O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

Samarqand iqtisodiyot va servis institutining
95 yilligiga bag‘ishlanadi

J.N. Abiyev, N.A. Usmanova,
U. Normurodov, B.X. Qilichov

OLIY TA’LIM TIZIMIDA KREDIT MODUL TIZIMI IMKONIYATLARIDAN FOYDALANIB TA’LIM SIFATINI OSHIRISH YO‘LLARI

MONOGRAFIYA

SAMARQAND 2025

UO‘K: 551.4(075)
A 90
KBK: 30.10ya73

J.N. Abiyev, N.A. Usmanova, U. Normurodov, B.X. Qilichov.
Oliy ta’lim tizimida kredit modul tizimi imkoniyatlaridan foydalanib ta’lim sifatini oshirish yo‘llari *[Matn]:* ***monografiya /*** *Samarqand iqtisodiyot va servis instituti – Samarqand.: “STEP-SEL” MCHJ nashriyoti, 2025 - 202 bet.*

Mazkur monografiya doirasida kredit-modul tizimining mohiyati, afzalliklari, kamchiliklari, O‘zbekiston oliy ta’limida uning joriy etilishi bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, xorijiy tajribalar va ularning o‘zlashtirish istiqbollari keng tahlil qilinadi. Bundan tashqari, talabalarning motivatsiyasini oshirish, o‘qituvchilar faoliyatini baholash va akademik erkinlikni rivojlantirish masalalari ham muhokama qilinadi. Shuningdek, Yevropa va Rossiya universitetlari tajribasi hamda talaba-o‘qituvchi fikrlari asosida ushbu tizimning O‘zbekistonda amaliy joriy etilish istiqbollari yoritiladi. Kredit-modul tizimi nafaqat o‘quv jarayonining sifatini oshirishga, balki O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarini xalqaro ta’lim maydoniga integratsiyalashuvi va bitiruvchilarning global mehnat bozorida raqobatbardoshligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Taqrizchilar:
A.S. Sheraliyev – SamISI Ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘limi boshlig‘i, PhD.
S.E. Erkinov – SamDCHTI dotsenti, PhD.

Monografiya institut Kengashining 2025-yil 02-iyuldagi majlisda muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan. (11-sonli majlis bayoni).

ISBN: 978-9910-587-19-1

© J.N. Abiyev va b., SamISI. 2025 y.
© “STEP-SEL” MChJ nashryoti. 2025 y.

MUNDARIJA:

KIRISH 4
I BOB. OLIY TA’LIM TIZIMIDA KREDIT-MODUL TIZIMINING NAZARIY ASOSLARI 7
1.1. Oliy ta’lim tizimida kredit-modul tizimi tushunchasi, maqsadi va vazifalari.....7

1.2. Oliy ta’lim sifatini oshirishda kredit-modul tizimining roli.....21

1.3. Kredit-modul tizimining huquqiy asoslari 52

II BOB. OLIY TA’LIM TIZIMIDA KREDIT-MODUL TIZIMINING IMKONIYATLARIDAN FOYDALANGANLIK HOLATI.....57
2.1. Kredit-modul tizimidan foydalanishda (tadbiq etishda) oliy ta’lim sifatiga ta’sir etuvchi omillar.....57

2.2. Kredit-modul tizimini kamchiliklari va muammolari. SWOT tahlil 81

2.3. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimlarida kredit-modul tizimidan foydalanganlik holati.....108

III BOB. OLIY TA’LIM TIZIMIDA KREDIT-MODUL TIZIMI IMKONIYATLARIDAN FOYDALANIB TA’LIM SIFATINI OSHIRISH YO‘LLARI.....125
3.1. Kredit-modul tizimining rivojlangan xorijiy davlatlar tajribalari 125

3.2. Kredit-modul tizimini talabalar mustaqil ta’lim faoliyatini oshirish omili sifatida.....154

3.3. Kredit-modul tizimini oliy ta’lim tizimida takomillashtirish.....171

XULOSA VA TAKLIFLAR.....190
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:.....196

KIRISH

Shavkat Mirziyoyev: “Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni koʻrsatadiki, oliy ta’lim muassasalarining vaqt talablariga moslasha olmasligi ilmiy va texnologik muvaffaqiyatlarga erishishi qiyin”.

Bugungi kunda Oʻzbekiston sanoatining barcha tarmoqlarida raqobatbardosh, ijodiy fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan yetuk mutaxassislarni tayyorlash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, ta’lim sohasi bu borada muhim oʻrin tutadi. Chunki mamlakatning taraqqiyoti bevosita ta’lim tizimi samaradorligi, mazmunan boy oʻquv adabiyotlari, talabalarning mustaqil bilim olishini qoʻllab-quvvatlovchi infratuzilmaning mavjudligi bilan chambarchas bogʻliqdir. Shu boisdan oliy ta’lim muassasalarida ilgʻor oʻqitish metodlari asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni zamonaviy kadrlarga boʻlgan ehtiyojni qondirishda hal qiluvchi rol oʻynaydi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan "Oʻzbekiston Respublikasining oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"da belgilanganidek, ta’lim jarayonlariga kredit-modul tizimini joriy etish, oʻqitish sifatini oshirish, korrupsiyani oldini olish, talaba va oʻqituvchi oʻrtasidagi hamkorlikni kuchaytirish asosiy vazifalardan biri sifatida belgilanmoqda. Ushbu qarorga koʻra, 2030-yilgacha mamlakatdagi oliy ta’lim muassasalarining 85 foizi kredit-modul tizimiga toʻliq oʻtishi rejalashtirilgan.

Kredit-modul tizimi ilk bor 1960-yillarning oxirida AQSH, Buyuk Britaniya va Kanada kabi ingliz tilida soʻzlashuvchi mamlakatlarda shakllangan. Dastlab ushbu tizim individual fanlar asosida qoʻllanilgan boʻlsa-da, keyinchalik u ta’limning zamonaviy va demokratik shakli sifatida keng qoʻllanila boshlandi. Mazkur tizim oʻquvchi bilimini reyting asosida baholaydi va talabani mustaqil ta’lim olishga

yo‘naltiradi. Unda talaba nafaqat o‘ziga mos o‘quv fanlarini, balki ushbu fanni o‘qituvchi professorni ham tanlash huquqiga ega bo‘ladi. Bu esa, albatta, ta’lim jarayonida shaxsiy yondashuvni kuchaytiradi va o‘quv jarayonining sifatli tashkil etilishini ta’minlaydi.

Kredit-modul tizimining asosiy tamoyillari ikki yo‘nalishga qaratilgan: talabalarning mustaqil bilim olishini qo‘llab-quvvatlash va ularning bilimini reyting asosida ob’ektiv baholash. Bu esa ta’limda shaffoflikni ta’minlaydi, korrupsiya holatlarini kamaytiradi hamda talaba haqidagi real bilim va salohiyatni aniqlash imkonini beradi. Modulli mashg‘ulotlar davomida o‘qituvchilar talabalarga yo‘l-yo‘riq beradi, maslahatlar beradi, o‘quv jarayonini boshqaradi. O‘qituvchi faqatgina bilim beruvchi emas, balki mentor, yo‘lboshchi va moderator rolida ishtirok etadi. Talaba esa o‘z bilimini mustaqil shakllantirish orqali tanqidiy va tizimli fikrlash ko‘nikmasini rivojlantiradi.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan, axborotga tezkor kirish imkoniyati mavjud bo‘lgan zamonaviy dunyoda ta’lim inson hayotida asosiy o‘rin egallamoqda. Ta’lim faqat bilim berish jarayoni emas, balki shaxsning qarashlari, qadriyatlari va ko‘nikmalarini shakllantiruvchi murakkab tizimdir. Ta’lim jarayoni orqali inson jamiyatga moslashadi, professional faoliyatga tayyorlanadi va har tomonlama yetuk shaxsga aylanadi.

Globallashuv jarayonlari, mehnat bozoridagi raqobatning kuchayishi ta’lim tizimidan doimiy moslashuvchanlikni talab qilmoqda. Shu bois, ta’lim tizimi zamon talablari asosida yangilanib, xalqaro tajribalar asosida takomillashtirilmoqda. Ayniqsa, Boloniya jarayoniga qo‘shilish istiqbollari doirasida O‘zbekiston ta’lim tizimi xalqaro standartlarga mos kredit-modul tizimini joriy etishga alohida e’tibor qaratmoqda.

Mazkur monografiya doirasida kredit-modul tizimining mohiyati, afzalliklari, kamchiliklari, O‘zbekiston oliy ta’limida uning joriy etilishi bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, xorijiy tajribalar va ularning o‘zlashtirish istiqbollari keng tahlil qilinadi. Bundan tashqari, talabalarning motivatsiyasini oshirish, o‘qituvchilar faoliyatini baholash va akademik erkinlikni rivojlantirish masalalari ham muhokama

qilinadi. Shuningdek, Yevropa va Rossiya universitetlari tajribasi hamda talaba-o‘qituvchi fikrlari asosida ushbu tizimning O‘zbekistonda amaliy joriy etilish istiqbollari yoritiladi.

Kredit-modul tizimi nafaqat o‘quv jarayonining sifatini oshirishga, balki O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarini xalqaro ta’lim maydoniga integratsiyalashuvi va bitiruvchilarning global mehnat bozorida raqobatbardoshligini ta’minlashga xizmat qiladi.

I BOB. OLIY TA’LIM TIZIMIDA KREDIT-MODUL TIZIMINING NAZARIY ASOSLARI

1.1. Oliy ta’lim tizimida kredit-modul tizimi tushunchasi, maqsadi va vazifalari

Kredit-modul tizimining tarixiy ildizlari XVIII–XIX asrlarga borib taqaladi. Bu davrda AQShning yetakchi universitetlari ta’lim jarayonini liberallashtirish, ya’ni talabaning o‘quv faoliyatini mustaqil ravishda rejalashtirishiga imkon beruvchi mexanizmlarni joriy etishga harakat qildilar. Shu maqsadda kredit tizimi tushunchasi shakllandi va dastlabki bosqichlarda o‘quv yuklamalarini miqdoriy baholash vositasi sifatida ishlatila boshlandi. Kreditlar orqali har bir fan bo‘yicha taqdim etilgan bilimlar hajmini ifodalovchi miqdoriy birliklar yaratildi, bu esa o‘z navbatida talabalar uchun o‘qish rejasini mustaqil tuzish imkonini berdi.

Kredit tizimining joriy etilishi nafaqat ta’lim jarayonini moslashuvchan qilish, balki o‘quv dasturlarining rivojlanish darajasini tizimli ravishda nazorat qilish, ta’lim sifatini baholash va ta’lim texnologiyalarini takomillashtirish uchun asos bo‘lib xizmat qildi. Bu yondashuv o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi munosabatlarni yangicha asosda tashkil qilish, talabani ta’lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish, mustaqil o‘qishga undash va ta’limning individuallashuvini ta’minlash imkonini berdi.

Yuqorida qayd etilgan kredit tizimi g‘oyalari keyinchalik Yevropa davlatlarining oliy ta’lim tizimlarini uyg‘unlashtirishga qaratilgan Boloniya jarayonining asosiy komponentlaridan biriga aylandi. Boloniya jarayoni XX asr oxirida Yevropada yuzaga kelgan globallashuv, iqtisodiy integratsiya va mehnat bozorining erkinlashuvi sharoitida oliy ta’lim tizimini umumiy yondashuvlar asosida muvofiqlashtirish zarurati tug‘ilgach shakllandi. Rivojlangan davlatlar ta’limning sifati va uning xalqaro raqobatbardoshligini oshirishga intilar ekan, bu boradagi ilk jiddiy tashabbus 1998-yilda Italiyaning Boloniya shahrida ilgari surildi.

Aynan 1998-yilda 29 ta Yevropa mamlakatining ta’lim vazirlari ishtirokida o‘tkazilgan xalqaro uchrashuv Boloniya jarayonining bosqichi sifatida tarixda muhim ahamiyat kasb etdi. Ushbu yig‘ilishning bosh maqsadi – Yevropaning turli davlatlaridagi oliy ta’lim tizimlari o‘rtasida uyg‘unlik yaratish, ularning o‘zaro tan olinadigan strukturasini ishlab chiqish va akademik harakatchanlikni ta’minlaydigan yagona makonni shakllantirish edi. Uchrashuv yakunida qabul qilingan Boloniya deklaratsiyasi bu boradagi asosiy siyosiy-huquqiy hujjatga aylandi.

Boloniya deklaratsiyasida ta’lim sohasida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan bir qator muhim islohotlar belgilab berildi. Jumladan, oliy ta’limni uch bosqichli tizimga – bakalavriat, magistratura va doktoranturaga ajratish, talabalarning turli davlatlarda o‘qishni davom ettirishini ta’minlovchi yagona kredit tizimini joriy etish, diplomlar va malakalarning o‘zaro tan olinishi, hamkorlikdagi o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va qo‘shma ilmiy faoliyatni rag‘batlantirish kabi chora-tadbirlar nazarda tutilgan edi.

Kredit tizimi bu jarayonda markaziy o‘rinni egalladi. U talabalarga Yevropaning istalgan oliy ta’lim muassasasida o‘qishni davom ettirish imkonini beradi. Bu tizimda o‘quv yuklamasi kreditlarda ifodalanadi, bu esa ta’lim mazmunini standartlashtirish, baholash mezonlarini uyg‘unlashtirish va talabalarning bilimini obyektiv ravishda baholashga xizmat qiladi. Shuningdek, bu tizim universitetlararo va mamlakatlararo ta’lim hamkorligini rivojlantirishga keng yo‘l ochadi.

Boloniya jarayoni ishtirokchi davlatlarni milliy ta’lim sifatini nazorat qiluvchi akkreditatsiya agentliklarini tashkil etishga, o‘quv dasturlarining mazmuni va sifati bo‘yicha yagona standartlarni belgilashga undadi. Vaqt o‘tishi bilan bu jarayon tobora ko‘proq davlatlarning e’tiborini tortdi va 2023-yilga kelib, Boloniya jarayoni xalqaro ta’lim sohasidagi eng yirik integratsion tashabbuslardan biriga aylandi.

Ushbu tashabbus natijasida nafaqat ta’lim tizimi isloh qilindi, balki xalqaro akademik hamkorlik, madaniy almashinuv va ilmiy izlanishlar uchun qulay zamin yaratildi. Boloniya jarayoni Yevropa ta’lim

makonini yagona, ochiq va raqobatbardosh maydonga aylantirishga xizmat qilib, ayni paytda boshqa qit’alardagi davlatlar uchun ham namunaviy model sifatida e’tirof etilmoqda.

Shunday qilib, kredit-modul tizimining tarixiy shakllanishi va Boloniya jarayonining bosqichma-bosqich rivojlanishi zamonaviy ta’limda sifat, moslashuvchanlik, shaffoflik va xalqaro integratsiyaga erishishning muhim omiliga aylandi. Garchi Boloniya jarayoni Yevropada oliy ta’lim tizimini uyg‘unlashtirish, sifatni oshirish va xalqaro akademik harakatchanlikni ta’minlash yo‘lida muhim qadam bo‘lgan bo‘lsa-da, bu islohotlar bir qator jiddiy muammolar va tanqidlar bilan ham yuzma-yuz keldi. Asosiy muammolardan biri – turli mamlakatlarda mavjud bo‘lgan ta’lim an’analari, o‘qitish uslublari va baholash mezonlarining farqliligidir. Har bir davlatning oliy ta’lim tizimi tarixiy, madaniy, siyosiy va iqtisodiy omillar bilan shakllangani sababli, bu tizimlarni yagona formatga keltirish, ularni standartlashtirish jarayonida ko‘plab ziddiyatli holatlar kuzatildi.

Bundan tashqari, ayrim tanqidchilar Boloniya jarayonini haddan tashqari iqtisodiylashtirishda ayblab kelmoqda. Ularning fikricha, bozor mexanizmlariga berilgan katta e’tibor, ayniqsa raqobat, samaradorlik va natijadorlikka urg‘u berilishi, ta’limning insonparvarlik va madaniy funksiyalarini chetga surib qo‘yishi mumkin. Bu esa ta’lim sifati, ilmiy izlanishlar erkinligi va akademik mustaqillik kabi asosiy qadriyatlarga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Shunga qaramay, Boloniya jarayoni integratsiya, hamkorlik va Yevropadagi oliy ta’lim sifati va raqobatbardoshligini oshirish yo‘lidagi tarixiy tashabbus sifatida e’tirof etiladi. Ayniqsa, ushbu islohotlarning asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo‘lgan kredit-modulli tizim (KMT) zamonaviy ta’lim jarayonini tashkil etishda muhim vosita sifatida maydonga chiqdi.

Kredit-modulli tizim – bu o‘qitishning modullashtirilgan tuzilmasi va kredit tizimi tamoyillariga asoslangan, zamonaviy, talabaga yo‘naltirilgan o‘quv jarayonini tashkil etish mexanizmidir. Uning bosh maqsadi – talabalarga bilim va ko‘nikmalarni qulay, tizimli va bosqichma-bosqich shaklda egallash imkonini yaratish hamda bu

yutuqlarni turli oliy ta’lim muassasalari o‘rtasida tan olish va transfer qilishni soddalashtirishdir. Bu tizim ta’limning shaxsiylashtirilgan yondashuvini kuchaytiradi, ya’ni har bir talaba o‘zining ehtiyojlari, qiziqishlari va imkoniyatlariga mos o‘quv rejasini shakllantira oladi.

Kredit-modulli tizimning asosiy komponentlaridan biri – Yevropa kreditlarni transfer qilish tizimi (ECTS) hisoblanadi. ECTS butun Yevropa miqyosida o‘quv yutuqlarini baholashni standartlashtirish va ta’lim muassasalari o‘rtasida akademik yutuqlarni oson ko‘chirish imkonini beruvchi shaffof tizimdir. Bu tizimda bir kredit talabaning taxminan 25–30 soatlik umumiy o‘quv yuklamasiga teng bo‘lib, unga ma’ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar, seminarlar, mustaqil ta’lim va yakuniy nazorat ishlari kiradi.

Kredit-modulli tizimda o‘quv dasturi alohida modullarga bo‘linadi, har bir modul esa aniq mavzularni yoritadi va o‘z yakuniy baholash shakliga ega bo‘ladi. Har bir modulga ajratilgan kreditlar, uni muvaffaqiyatli yakunlagan talabaning qancha mehnat sarflaganini ko‘rsatadi. Bu esa ta’lim jarayonini nafaqat shaffof qiladi, balki universitetlararo va davlatlararo taqqoslashni ham osonlashtiradi. Modullar hajm va shakl jihatidan farq qilishi mumkin, bu esa ta’lim dasturlarining moslashuvchanligini ta’minlaydi.

ECTS tizimi orqali kreditlar tan olinadi va boshqa oliy ta’lim muassasasiga o‘tganda yo‘qolmaydi. Bu esa talabalar uchun akademik harakatchanlikni rag‘batlantiradi va ular o‘z o‘quv faoliyatlarini turli mamlakatlarda davom ettirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Aynan shu jihatlar kredit-modul tizimini zamonaviy oliy ta’limning asosiy infratuzilmaviy tayanchiga aylantirgan.

Kredit-modulli tizimning afzalliklari va Yevropa ECTS tizimi bilan integratsiyasi - zamonaviy oliy ta’limda kredit-modulli tizim (KMT) jahon miqyosida keng qo‘llanilayotgan samarali ta’lim texnologiyasidir. Mazkur tizim o‘quv jarayonini modullashtirish orqali uni yanada moslashuvchan va shaxsga yo‘naltirilgan holga keltirishga xizmat qiladi. Eng muhim jihatlardan biri shundaki, kredit-modulli tizim talabalar uchun o‘zining kasbiy maqsadlari, ilmiy qiziqishlari va individual tayyorgarlik darajasiga muvofiq ravishda ta’lim modullarini

tanlash va birlashtirish imkoniyatini beradi. Bu esa, o‘z navbatida, o‘quv jarayonini talabaning shaxsiy ehtiyojlariga moslashtirish va mustaqil rejalashtirishga sharoit yaratadi.

Kredit-modulli tizim nafaqat nazariy bilimlarni o‘zlashtirish, balki amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga ham ustuvor ahamiyat beradi. Har bir modul tarkibida ma’ruzalar bilan birga amaliy mashg‘ulotlar, loyiha ishlari va real hayotdagi vaziyatlarni tahlil qilish asosidagi topshiriqlar kiritilgan bo‘lib, bu talabalarni murakkab muammolarni hal qilish, kreativ va tanqidiy fikrlash, shuningdek, kasbiy qarorlar qabul qilishga o‘rgatadi. Ayniqsa, magistratura bosqichida bu yondashuv dolzarb hisoblanadi, chunki bu bosqichda malakali mutaxassislarni tayyorlashga yuqori talablar qo‘yiladi.

Kredit-modulli tizim Yevropa kreditlarni uzatish va to‘plash tizimi (ECTS – European Credit Transfer and Accumulation System) bilan uzviy bog‘langan holda faoliyat yuritadi. ECTS tizimi xalqaro miqyosda tan olingan va ta’lim yutuqlarini standartlashtirish hamda ularni turli davlatlar va oliy ta’lim muassasalari o‘rtasida tan olishni soddalashtirishga qaratilgan. Ushbu tizim asosida talabaning bir yillik o‘quv yuklamasi o‘rtacha 1500-1800 akademik soat deb baholanadi va bu miqdor yiliga 60 kreditga tenglashtiriladi. Shunga muvofiq, bir semestr uchun 30 kredit ajratiladi.

Bu tizimning o‘ziga xos jihati shundaki, ECTS kreditlari faqat auditoriya mashg‘ulotlarini emas, balki mustaqil ta’lim, laboratoriya ishlari, seminarlar, loyihalar va boshqa turdagi o‘quv faoliyatlarini ham o‘z ichiga oladi. Har bir kredit talabaning ma’lum bir modulni o‘zlashtirish uchun sarflagan umumiy mehnat soatlarini ifodalaydi. Bu yondashuv orqali o‘quv jarayonining mazmuni va yuklamasi aniqroq, shaffofroq va adolatli baholanadi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, ECTS tizimida kreditlar nafaqat o‘qish jarayonidagi bosqichlararo siljishni soddalashtiradi, balki butun umr davomida o‘rganish (lifelong learning) tamoyilini amalda qo‘llashga xizmat qiladi. Ya’ni, talabalar diplom olish uchun zarur bo‘lgan kreditlarni bir necha yil davomida bosqichma-bosqich yig‘ish imkoniga ega bo‘ladi. Masalan, talaba muayyan sabablarga ko‘ra

o‘qishni vaqtincha to‘xtatgan taqdirda, ilgari to‘plangan kreditlar yo‘qolmaydi va u keyinchalik o‘qishni davom ettirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu tizim kasbiy faoliyat bilan ta’limni uyg‘unlashtirishga yordam beradi.

ECTS va KMT o‘rtasidagi uyg‘unlik oliy ta’lim tizimi uchun strategik ahamiyatga ega. Bu tizimlar orqali yagona akademik makon shakllanadi, unda talabaning o‘quv yutuqlari oson tan olinadi, modullararo va muassasalararo o‘zaro uzviylik ta’minlanadi. Natijada, xalqaro maydonda raqobatbardosh, bilimdon va yuqori malakali kadrlar tayyorlanadi.

Kredit-modulli tizimni joriy etishning zamonaviy ta’limdagi o‘rni va ahamiyati - Kredit-modulli tizimni (KMT) oliy ta’lim muassasalarida tatbiq etish nafaqat xalqaro ta’lim tizimlariga integratsiyalashish, balki ta’lim jarayonini liberallashtirish va talaba shaxsini rivojlantirishning innovatsion mexanizmlarini joriy etishga xizmat qiladi. Bu tizim orqali oliy ta’lim muassasalari jahon ta’lim makoniga faol kirib boradi, xalqaro standartlarga muvofiq o‘quv dasturlarini takomillashtiradi va natijada raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash imkoniyatini kengaytiradi.

Kredit tizimining joriy qilinishi bilan bir qatorda, ta’limning mazmuni va mohiyatiga nisbatan yondashuv ham tubdan o‘zgaradi. An’anaviy avtoritar modeldan farqli o‘laroq, KMT shaxsning sub’ektiv tajribasi, intellektual salohiyati va kasbiy qiziqishlariga asoslangan individual o‘quv yo‘nalishlarini shakllantirishga imkon beradi. Ta’lim bu yerda shunchaki bilim berish jarayoni emas, balki shaxsning o‘zini o‘zi anglash, hayotiy tajribalar asosida rivojlanish va o‘z kasbiy faoliyatida muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun poydevor sifatida ko‘riladi.

Kredit-modulli tizim o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi munosabatlarga ham yangicha yondashuvni taklif etadi. O‘qituvchi endilikda bilim beruvchi yagona manba emas, balki yo‘naltiruvchi, maslahat beruvchi, o‘quv jarayonini boshqaruvchi murabbiy sifatida qaraladi. Bu yondashuv ta’lim maqsadlarini, metodlarini, shakllarini va natijalarni baholash mezonlarini qayta ko‘rib chiqishni taqozo etadi.

Ushbu tizimning yana bir asosiy jihati – o‘quv jarayonining kasbiy yo‘naltirilganligidir. Ya’ni, talabaga nafaqat nazariy bilimlar beriladi, balki ularni real kasbiy faoliyatga tayyorlaydigan amaliy mashg‘ulotlar, laboratoriya ishlari, loyiha asosidagi ta’lim, ishlab chiqarish amaliyotlari bilan boyitilgan o‘quv modullari taklif etiladi. Bu esa talabalarni mehnat bozorining real ehtiyojlariga tayyorlash, ularning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

KMT sharoitida talaba o‘zining individual o‘quv yo‘nalishini mustaqil tarzda rejalashtirishi mumkin. Har bir modul kreditlar asosida baholanadi va talaba o‘zining tayyorgarlik darajasi, intilishi, kasbiy maqsadlari asosida o‘ziga mos modullarni tanlaydi. Bu esa o‘z navbatida shaxsiylashtirilgan ta’lim konsepsiyasini to‘liq amalga oshirish, talabaga mustaqil qaror qabul qilish va o‘z taqdirini boshqarish imkonini beradi.

O‘quv jarayonini zamonaviy yondashuv asosida tashkil etish mutaxassis tayyorlashning doimiy monitoringini talab etadi. Bu degani, ta’lim mazmuni faqat nazariy bilim bilan cheklanib qolmay, balki ishlab chiqarish amaliyotlari, malakaviy amaliyotlar, oraliq va yakuniy nazoratlar, bitiruv malakaviy ishi, bitiruvchilarning kasbiy kompetensiyalarini baholash kabi bosqichlarni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, ish beruvchilar bilan hamkorlikda ta’lim mazmuni shakllantiriladi, bu esa real bozor talablariga javob beruvchi mutaxassislar tayyorlashga xizmat qiladi.

Shubhasiz, mustaqil ta’lim ulushining oshishi kredit-modulli tizimning asosiy vazifalaridan biridir. Mazkur tizim talabalarni o‘z ustida ishlashga, mustaqil izlanishga, yangi bilimlarni egallashda faollik ko‘rsatishga undaydi. O‘qituvchi esa bu jarayonda yo‘naltiruvchi, maslahat beruvchi, baholovchi sifatida ishtirok etadi. Mustaqil ishlar tizimli tarzda tashkil etiladi, mavzular va adabiyotlar tavsiya qilinadi, topshiriqlar va konsultatsiyalar orqali mustaqil ta’lim faoliyati monitoring qilinadi.

Kredit-modulli tizimda modul va kredit tushunchalarining o‘rni hamda o‘quv jarayonining tashkil etilishi Kredit-modulli ta’lim tizimi o‘z mohiyatiga ko‘ra, talaba bilim olishi, kasbiy ko‘nikma va

kompetensiyalarni shakllantirishi uchun zarur bo‘lgan o‘quv faoliyatini aniq va tizimli asosda tashkil qilishni taqozo etadi. Bu tizimda kredit – talabaning ma’lum bir o‘quv modulini o‘zlashtirish uchun sarflagan ish yukining miqdoriy ifodasidir. Kreditlar o‘quv yukining umumiy hajmini hisoblashga, ta’lim natijalarini mezonlashtirishga va taqqoslashga xizmat qiladi.

Kredit-modul tizimining asosiy vazifalari

1.1.1-jadval

№	Kredit-modul tizimining asosiy vazifalari
1	O‘quv jarayonini modul prinsipi asosida tashkil etish
2	Har bir fan (kredit)ning qiymatini aniqlash
3	Talabalar bilimini reyting ballari asosida baholash
4	Talabalarga o‘zlarining individual o‘quv rejasini mustaqil tuzish imkoniyatini berish
5	O‘quv jarayonida mustaqil ta’lim ulushini oshirish
6	Ta’lim dasturlarining qulayligi va mehnat bozoridagi mutaxassislar talabiga mos ravishda o‘zgartirish imkoniyati

Shuningdek, har bir o‘quv moduli – bu muayyan o‘quv kursining tarkibiy qismi bo‘lib, u bir yoki bir nechta kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan. Modullar talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalarini amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi. Har bir modul o‘ziga xos didaktik tuzilishga ega bo‘lib, unda maqsadlar, kutilayotgan natijalar, baholash mezonlari, o‘qitish usullari va texnologiyalari belgilangan bo‘ladi.

Modulga ajratilgan kredit soni esa, talabaga shu modul doirasidagi mashg‘ulotlar, mustaqil ta’lim, laboratoriya ishlari, amaliyotlar, maslahatlar, loyiha ishlari va yakuniy baholash kabi barcha faoliyat turlariga sarflanishi lozim bo‘lgan vaqt hajmini anglatadi. Bu yondashuv o‘quv jarayonini tizimli tashkil etish, har bir talabaga shaxsiy ta’lim yo‘nalishini tanlash va rivojlantirish imkonini beradi.

Modullarning asosiy vazifasi – o‘quv dasturi orqali ma’lum bir kasbiy va umumiy kompetensiyalarni shakllantirishdir. Har bir modul quyidagi elementlarni o‘z ichiga oladi:

1.1.2-jadval

Tarkibiy bo‘lim	Tavsif
Mazmun va doirasi	Modullar asosida beriladigan aniq va sohaga yo‘naltirilgan bilimlar hamda ularning hajmi.
O‘quv maqsadlari	Har bir modul yakunida talabaning erishishi kutilayotgan bilim, ko‘nikma va kompetensiyalar.
Kutilayotgan natijalar	O‘lchab bo‘ladigan natijalar: bilim darajasi, kasbiy tayyorgarlik, mustaqil fikrlash salohiyati.
Didaktik usullar va texnologiyalar	Interaktiv metodlar, masalalar yechimi, jamoaviy ishlanmalar, onlayn platformalar, testlar.
Tashkiliy shakllar	Ma’ruzalar, seminarlar, amaliy mashg‘ulotlar, loyiha ishlari, MBI, magistrlik dissertatsiyasi.
Baholash mezonlari	Oraliq va yakuniy nazorat, testlar, taqdimotlar, topshiriqlar, loyiha himoyalari orqali natija monitoringi.

Ta’lim moduli – bu nafaqat o‘quv rejasining bir qismi, balki o‘qitishning mantiqiy blokidir. U o‘z ichiga maqsad, mazmun, metod va baholash tizimini olgan o‘zaro bog‘liq komponentlardan iborat bo‘lib, o‘quv jarayonini strukturaviy ravishda boshqarishga xizmat qiladi.

O‘quv jarayoni ikki asosiy tarkibiy qismdan iborat, o‘quv faoliyati va nazorat tadbirlari**.** O‘quv faoliyatiga dars mashg‘ulotlari, seminarlar, laboratoriyalar, mustaqil ishlar va amaliyotlar kiradi. Talaba bu jarayonda nafaqat bilim oladi, balki uni amaliy faoliyatda qo‘llash ko‘nikmasini ham shakllantiradi. Mustaqil ishlar, ayniqsa, talabaning izlanish olib borish, manbalarni tahlil qilish, mustaqil qaror chiqarish kabi yuqori darajadagi tafakkur faoliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

Nazorat tadbirlari esa o‘quv natijalarini baholash va ularni rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Bu baholash shakllari orqali talabalar o‘zlashtirish darajasi, bilim sifati, ko‘nikma va malakalarining egallanganlik darajasi aniqlanadi. Oraliq va yakuniy baholashlar esa modul yakunida kompetensiyalar qamrovini aniqlashga xizmat qiladi.

Kredit-modulli tizimda ta’lim mazmunining modul asosida tashkil etilishi, o‘quv jarayonini moslashuvchan, shaxsga yo‘naltirilgan, samarali va zamonaviy bo‘lishini ta’minlaydi. Bu esa yuqori malakali, bilimli va zamonaviy mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashning eng muhim omillaridan biridir.



1.1.1-rasm

Kredit-modulli tizimda o‘quv jarayonini rejalashtirish va boshqarish bosqichlari яamonaviy ta’lim tizimida o‘quv jarayonini rejalashtirish murakkab va ko‘p bosqichli mexanizm bo‘lib, u kredit-modulli tizim asosida tizimli va natijador yondashuvni talab etadi. Bunday rejalashtirish quyidagi asosiy yo‘nalish va bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

1. Fanlar katalogini shakllantirish o‘quv jarayonining boshlang‘ich nuqtasi sifatida, respublika iqtisodiyotining turli sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlar, mehnat bozoridagi real ehtiyojlar, ilg‘or xorijiy tajribalar va zamonaviy fan-texnika yutuqlari asosida fanlar

katalogi shakllantiriladi. Bu katalogni tuzishda tipik o‘quv rejalari, xalqaro talablarga mos metodologik yondashuvlar va yangi avlod o‘quv adabiyotlari asosiy manba sifatida qaraladi.

2. Fanlar ish dasturlarini (sillabuslarni) ishlab chiqish Har bir fan bo‘yicha ishlab chiqilgan sillabus (ishchi dastur) o‘quv kursining maqsadlari, mazmuni, natijalari, baholash mezonlari va metodologiyasini belgilaydi. Bu hujjat fanni o‘qitish jarayonining aniq rejasidir. Sillabuslar xalqaro standartlarga mos holda talabaning tanlagan ta’lim yo‘nalishi, darajasi va ehtiyojlarini hisobga olib tuziladi.

3. Talabalar uchun individual o‘quv yo‘nalishini shakllantirish o‘quv-uslubiy bo‘lim va fakultet dekani rahbarligida, dekan muovinlari nazorati ostida har bir talaba o‘zining individual o‘quv yo‘nalishini – ya’ni shaxsiy ta’lim trayektoriyasini shakllantiradi. Bu trayektoriya kreditlar asosida tanlangan fanlar, ularning o‘quv rejadagi joylashuvi va o‘zlashtirish ketma-ketligiga asoslanadi.

4. Ishchi o‘quv rejalarini va grafiklarini tuzish Tanlangan fanlar va modullarning o‘qitilishi bo‘yicha o‘quv yili yoki semestr bo‘yicha ishchi o‘quv rejasi tuziladi. Unga asoslangan holda o‘quv jarayonining kalendar grafiklari, ya’ni mashg‘ulotlar, nazorat tadbirlari va yakuniy baholashlar jadvali ishlab chiqiladi.

5. Mashg‘ulotlar jadvalini shakllantirish Akademik guruhlar, fanlar o‘qituvchilari, auditoriyalar va o‘quv yuklamalar hisobga olinib, haftalik mashg‘ulotlar jadvali tuziladi. Bu jarayonni avtomatlashtirish uchun zamonaviy axborot tizimlari keng qo‘llaniladi.

Kredit-modulli tizimni boshqarish va baholashning xususiyatlari kredit-modulli tizim asosida o‘quv jarayonini boshqarish va talabaning yutuqlarini baholash quyidagi tamoyillar asosida amalga oshiriladi:

1) Ta’lim yutuqlari uchun belgilangan natijalarni majburiy egallashga yo‘naltirilgan yondashuv – bunda har bir modul doirasida talabalar erishishi kerak bo‘lgan kompetensiyalar aniq belgilanadi;

2) O‘quv faoliyatining faollashtirilishi va talabalarni jalb qilish – interfaol usullar, loyihaviy ishlar, amaliy topshiriqlar orqali talabalar dars jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi;

3) Modul bo‘yicha o‘zlashtirish jarayonining tizimlashtirilgan boshqaruvi – o‘quv materialining bosqichma-bosqich o‘zlashtirilishi, talaba tomonidan yuzaga keladigan muammolarni aniqlash va bartaraf etish;

4) Didaktik materiallarni samarali o‘zlashtirishga ko‘mak berish – har bir fan uchun darsliklar, qo‘llanmalar, elektron resurslar, testlar va amaliy topshiriqlar tizimlashtirilgan shaklda taqdim etiladi;

5) Modul mazmunining uzluksiz monitoringi – o‘qitishning sifati, talabalarning faolligi, baholashning adolatliligi doimiy tahlil etiladi;

6) Baholashning motivatsion va korreksion funktsiyalari – oraliq va yakuniy baholash faqat natijani aniqlash uchun emas, balki o‘quv jarayonini to‘g‘rilash va talabani rag‘batlantirish vositasi sifatida ham ishlaydi;

7) Stressni kamaytirish va adolatli imtihon tizimi – baholash bosqichma-bosqich amalga oshiriladi, bu esa talabaning zo‘riqishini kamaytiradi va o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi.

Kredit-modulli tizimning professor-o‘qituvchilar uchun yaratadigan imkoniyatlari va afzalliklari zamonaviy oliy ta’limda kredit-modulli tizimning joriy etilishi nafaqat talabalarning bilim olishi va o‘zlashtirish jarayonini yangicha asosda tashkil qilishga, balki pedagog xodimlar – ya’ni professor-o‘qituvchilar uchun ham keng ko‘lamli afzalliklar va innovatsion imkoniyatlar yaratishga xizmat qiladi.

Kredit-modulli tizim o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishi, xalqaro hamkorlik, ta’lim jarayonidagi ishtirokining takomillashuvi, shuningdek, fanlararo integratsiya uchun mustahkam poydevor yaratadi:

1. Ilmiy va amaliy hamkorlik imkoniyatlarining kengayishi Kredit-modulli tizim, xususan, Yevropa kredit transfer tizimi (ECTS) bilan uyg‘unlashgan holda, professor-o‘qituvchilarga xorijiy mamlakatlardagi hamkasblari bilan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borish, akademik loyihalarda ishtirok etish va pedagogik tajriba almashish imkonini beradi. Ushbu tizim doirasida xalqaro grantlar, ilmiy

konferensiyalar va stajirovkalar orqali bilim almashuvi jarayoni faollashadi;



1.1.2-rasm Kredit-modulli tizimdagi asosiy afzalliklar

2. Fanlarni hamkorlikda o‘qitish imkoniyati Kredit-modulli tizim o‘qituvchilarga fanlarni boshqa mamlakatlardagi o‘qituvchilar bilan birgalikda o‘qitish imkonini yaratadi. Masalan, bitta fan moduli doirasida xorijiy professor bilan qo‘shma mashg‘ulotlar, seminarlar yoki vebinarlar tashkil etilishi mumkin. Bu nafaqat talabalarning xalqaro bilim doirasini kengaytiradi, balki o‘qituvchilarning o‘z malakasini oshirishiga ham xizmat qiladi;

3. O‘qituvchilar almashinuvi mexanizmlarining rivojlanishi ETCS va unga integratsiyalashgan boshqa xalqaro tizimlar yordamida oliy ta’lim muassasalari o‘rtasida o‘qituvchilar almashinuvi yo‘lga qo‘yiladi. Bu esa mahalliy o‘qituvchilarga qisqa muddatli akademik safarlar orqali chet ellik hamkasblar tajribasi bilan tanishish, yangi pedagogik texnologiyalarni o‘zlashtirish va xalqaro ta’lim muhitiga

moslashish imkonini beradi. Shu bilan birga, xorijiy pedagoglarning mahalliy universitetlarda dars o‘tishi orqali ta’lim sifati oshadi, fanlararo yondashuvlar boyiydi;

4. Akademik yutuqlarning e’tirof etilishi va akkreditatsiyadan o‘tish imkoniyatlari ECTS tizimida faoliyat yurituvchi universitetlar uchun o‘qituvchilarning o‘z sohasidagi yutuqlari, tajribalari va malakalari xalqaro miqyosda tan olinadi. Bu esa ularni xalqaro reestrlarga kiritish, diplomlarni nostrifikatsiya qilish va boshqa davlatlarda dars berish uchun litsenziyalar olish imkonini beradi. O‘qituvchilarning ilmiy maqolalari, darsliklari, innovatsion metodik ishlanmalari xalqaro platformalarda e’tirof etilishi ularning kasbiy obro‘-e’tiborini oshiradi.

Kredit-modulli tizimda mustaqil ta’limning o‘rni va uning ta’siri Kredit-modulli ta’lim tizimining yana bir muhim jihati – bu talabaning mustaqil ta’limini kuchaytirish va rivojlantirishga qaratilgan yondashuvdir. Mazkur tizim doirasida mustaqil ta’lim faqatgina o‘qituvchining topshiriqlarini bajarish bilan cheklanmay, balki talabani mustaqil qaror qabul qilishga, ijodiy fikrlashga, muammolarni mustaqil hal etishga va o‘z bilimlarini chuqurlashtirishga yo‘naltiriladi. Bu jarayon, o‘z navbatida, kelajakda mutaxassisning mustaqil faoliyat yuritish qobiliyatini shakllantiradi.

Ushbu tizimda talaba doimiy ravishda o‘z kursdoshlaridan, shuningdek, o‘qituvchilardan maslahat va ko‘mak olish imkoniga ega bo‘ladi. Axborot texnologiyalarining keng qo‘llanilishi esa bilim olishga doir manbalarni topish, ularni tahlil qilish va o‘zlashtirish jarayonini ancha yengillashtiradi. Shunday qilib, mustaqil ta’limga e’tibor qaratilishi – bu faqatgina o‘quv jarayonining tarkibiy qismi emas, balki zamonaviy oliy ta’lim tizimining innovatsion elementidir. U ijodkor, tashabbuskor, tanqidiy fikrlay oladigan va hayotiy muammolarga mustaqil yechim topa oladigan mutaxassislar tayyorlashga xizmat qiladi.

1.2. Oliy ta’lim sifatini oshirishda kredit-modul tizimining roli

Kredit-modulli tizim asosida ta’limni tashkil etish: oliy ta’limda sifat, samaradorlik va global integratsiya omili sifatida bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’lim tizimi oldida turgan dolzarb vazifalardan biri – mehnat bozorining o‘zgaruvchan talablariga javob bera oladigan, raqobatbardosh, innovatsion fikrlovchi, ixtisoslashgan va yuqori malakali yangi avlod mutaxassislarini tayyorlash sifatini keskin oshirishdan iboratdir. Raqamli transformatsiya, texnologik rivojlanish va globallashuv sharoitida iqtisodiyotning barqaror va dinamik taraqqiyotini ta’minlash uchun inson kapitaliga bo‘lgan talab ortib bormoqda. Bu esa, o‘z navbatida, oliy ta’lim tizimining sifatini tubdan yaxshilash zaruratini yuzaga keltiradi.

O‘zbekiston ta’lim tizimidagi paradigmaviy o‘zgarishlar Mustaqillik yillarida O‘zbekiston ta’lim tizimi bir necha bosqichli, strategik islohotlar jarayonidan o‘tdi. Xususan, so‘nggi yillarda ta’lim sohasida yuz bergan tizimli islohotlar natijasida ta’lim paradigmasi o‘zgardi – avvalgi ma’muriy-buyruqbozlik yondashuvidan bilim markazlashgan, talabaga yo‘naltirilgan moslashuvchan tizimga o‘tildi. Bunday yondashuvda ta’limning moslashuvchanligi, natijadorlikka yo‘naltirilganligi, shaxsiylashtirilgan o‘quv traektoriyalari va modul asosidagi baholash tizimlari muhim o‘rin egallaydi.

Moslashuvchan ta’lim tizimining joriy etilishi oliy ta’lim muassasalarini global tanlov kontekstiga tayyorlash, xalqaro reytinglarda ishtirokini kuchaytirish hamda raqobatbardosh kadrlar tayyorlash imkonini beradi. Kasbiy tayyorgarlik sifatini xalqaro standartlar darajasiga olib chiqish, oliy ta’lim muassasalarini qayta tayyorlash va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish orqali ta’minlanmoqda.

Kredit-modulli tizimning joriy etilishi va ta’lim tizimiga ta’siri O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlariga muvofiq, 2020/2021 o‘quv yilidan boshlab oliy ta’lim muassasalarida bosqichma-bosqich kredit-modulli tizim joriy etilmoqda. Ushbu tizim Yevropa kredit transfer tizimi (ECTS) asosida shakllantirilib, hozirda nafaqat Yevropa davlatlari, balki Rossiya, AQSh, Osiyo

mamlakatlarida ham keng qo‘llanilmoqda. Kredit-modulli tizimning joriy etilishi bilan bir qatorda, oliy ta’lim muassasalariga ilmiy-akademik mustaqillik, professor-o‘qituvchilarga esa malaka oshirish va ilmiy tadqiqotlar o‘tkazish uchun xalqaro miqyosdagi imkoniyatlar yaratilmoqda.

Ta’lim mazmuni va modulli strukturaga o‘tishning afzalliklari Kredit-modulli tizimning asosiy xususiyati – ta’lim dasturlarining modulli strukturasi hisoblanadi. Ya’ni, har bir ta’lim yo‘nalishidagi fanlar o‘zaro mantiqan bog‘langan mustaqil bloklar – modullar shaklida tuziladi. Talaba har bir modulni yakunlaganidan so‘ng, u imtihon yoki sinov topshirish orqali baholanadi. Bu modulga tegishli mavzularni o‘zlashtirganini tasdiqlaydi. Mazkur yondashuv bilimlarni bosqichma-bosqich va chuqur o‘zlashtirish imkonini yaratadi.

Bundan tashqari, ta’lim dasturlari moslashuvchanlik kasb etadi. Talabalar o‘z bilim darajasi va qiziqishlariga mos ravishda modullarni tanlab, individual o‘quv rejasini shakllantiradi. Bu jarayonda akademik maslahatchilar tomonidan metodik tavsiyalar beriladi. Ta’lim jarayoni davomida talabalar mustaqil ta’limga, tadqiqot ishlari, prezentatsiyalar, insholar va ijodiy ishlarga keng jalb qilinadi. Mustaqil o‘rganish uchun mo‘ljallangan mavzular doirasida qo‘shimcha adabiyotlar bilan ishlash, zamonaviy elektron ta’lim platformalari orqali axborotga ega bo‘lish imkoni taqdim etiladi.

Ta’limni baholashda zamonaviy yondashuvlar Kredit-modulli tizimda baholash jarayoni ham zamonaviy mezonlar asosida amalga oshiriladi. An’anaviy ballik baholash o‘rniga nuqta-reyting (point-rating) tizimi, kredit yig‘ish orqali baholash, joriy va yakuniy nazorat ishlari orqali bosqichma-bosqich bilim va ko‘nikmalar darajasi aniqlanadi. Bu esa ta’lim sifatini nazorat qilishda shaffoflik va ob’ektivlikni ta’minlaydi.

Oliy ta’limda xalqaro integratsiyaning kuchayishi Kredit-modulli tizimning joriy etilishi, bir tomondan, oliy ta’lim tizimini xalqaro darajaga olib chiqsa, boshqa tomondan, O‘zbekistonning iqtidorli yoshlari uchun xorijiy ta’lim muassasalarida o‘qishni davom ettirish va ilmiy almashinuvlarda ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Professor-o‘qituvchilar esa nufuzli xorijiy universitetlarda malaka oshirish, doktorlik dissertatsiyalari doirasida tadqiqot olib borish imkoniga ega bo‘ladilar. Bu jarayonlar o‘zaro hamkorlikning mustahkamlanishiga, ilmiy-tadqiqot faoliyatining intensivlashuviga va bilimlar almashuviga xizmat qiladi.

Kredit-modul tizimining joriy etilishi va uning oliy ta’lim tizimiga ta’siri pedagogika fanida amerikalik mashhur olim D. Dyuining (1859–1952) ilgari surgan g‘oyalari zamonaviy ta’lim jarayonining asosiy tamoyillaridan biri hisoblanadi. Unga ko‘ra, talaba nima va qanday o‘qish lozimligini o‘zi belgilaydi. Bu yondashuvda o‘qituvchi nazorat qiluvchi emas, balki talabaning rivojlanishini kuzatib boruvchi, unga kerakli vaqtda yo‘naltiruvchi sifatida namoyon bo‘ladi. Natijada, o‘qituvchi va talaba o‘quv jarayonining hamkor tomonlariga aylanadi.

Mazkur yondashuv 1903 yildan boshlab AQShdagi universitetlarda ta’lim islohoti jarayonida amaliyotga tatbiq etila boshladi. Avvalgi yillarda AQSh oliy ta’lim tizimi asosan klassik nemis modeli – "Humboldt modeli"ga asoslangan edi. Biroq zamonaviy bosqichda ko‘plab mamlakatlar liberal yondashuv asosidagi kredit-modul tizimiga o‘tmoqda. Bu tizim talaba shaxsiga yo‘naltirilgan, ochiq, shaffof va moslashuvchan bo‘lib, o‘quv dasturlarini tanlash, almashish va baholash imkoniyatlarini kengaytiradi.

Kredit tizimi deganda, o‘quv yutuqlarining (kredit birliklari ko‘rinishida) yig‘indisi orqali baholanadigan, modulli va moslashuvchan ta’lim modeli tushuniladi. Ushbu tizimda o‘qitilayotgan materiallarning 50 foizi tanlovli bo‘lib, o‘quv jarayoni asosan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali amalga oshiriladi. Bu esa ta’lim jarayonini individualizatsiya qilish, tabaqalashtirish va global mehnat bozorining talablari bilan uyg‘unlashtirishga imkon beradi.

Kredit-modul tizimini joriy etishdan ko‘zlangan maqsadlar:

1. Ta’lim sifatini oshirish – Rivojlangan mamlakatlar tajribasini inobatga olgan holda, zamonaviy axborot texnologiyalari, malakali pedagoglar va yangilangan o‘quv materiallari orqali ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish.

2. Akademik mobillikni kengaytirish – Talabalar, pedagoglar

va tadqiqotchilar o‘rtasida xalqaro almashuvlarni yo‘lga qo‘yish orqali ilmiy salohiyatni mustahkamlash.

3. Pedagoglar uchun raqobat muhitini yaratish – Yangi o‘quv texnologiyalarini joriy etish, ta’lim jarayonini samarali tashkil qilish orqali o‘qituvchilarning ilmiy-pedagogik rivojlanishiga ko‘maklashish.

4. O‘quv jarayonini shaxsiylashtirish – Har bir talabaning mustaqil ravishda ta’lim dasturini shakllantirishi va bilimlar baholanishi jarayonida ishtirok etishiga imkon berish.

Ushbu tizim dunyodagi ko‘plab yetakchi universitetlarda amaliyotga joriy qilingan bo‘lib, uning qo‘llanilishi O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarining xalqaro darajada tan olinishi uchun zamin yaratadi. Jumladan, kreditlar yig‘indisi boshqa universitetlarda tan olinishi, talabalarga o‘qishini boshqa OTMga ko‘chirish imkonini beradi. Talaba o‘zi istagan fanlarni tanlash, ularni turli darajada o‘zlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi, bu esa kredit miqdoriga bevosita bog‘liq bo‘ladi.

Kredit tizimining afzalliklari:

- Yagona milliy yondashuv – Kredit tizimiga asoslangan milliy model barcha OTMlarda kreditlar yig‘ilishini standartlashtiradi, ularni boshqa ta’lim muassasalariga o‘tkazishni osonlashtiradi.
- Avvalgi ta’lim yutuqlarini e’tirof etish – Formal va informal ta’lim shakllarida erishilgan bilim va ko‘nikmalar tan olinadi.
- Bosqichma-bosqich rivojlanish – Har bir bosqichda to‘plangan kreditlar talabani yakuniy maqsadga yaqinlashtiradi.
- Boloniya jarayoni bilan uyg‘unlik – Kredit tizimi O‘zbekistonning Evropa oliy ta’lim makoniga integratsiyalashuvi uchun muhim omildir. Bu esa xalqaro hamkorlik, dasturlar mosligi va talabalar harakatchanligini ta’minlaydi.

Umuman olganda, kredit-modul tizimining joriy etilishi O‘zbekiston oliy ta’lim tizimini zamonaviy xalqaro standartlar darajasiga olib chiqish, ta’lim sifatini oshirish, talabalarning bilimlarini chuqur va tizimli egallashiga imkon yaratadi. Bu esa o‘z navbatida mehnat bozorida raqobatbardosh va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning muhim vositasiga aylanadi.

Kredit-modul tizimi: milliy mentalitet, yosh xususiyatlari va zamonaviy ta’lim talablari doirasidagi integratsiyasi kredit-modul tizimining muvaffaqiyatli joriy etilishi uchun uni nafaqat texnik yoki tashkiliy jihatdan, balki madaniy, psixologik va ijtimoiy jihatlardan ham asoslab berish zarur. Ta’lim tizimida har qanday islohotlar, ayniqsa, xalqaro andozalarga moslashishga qaratilgan o‘zgarishlar milliy mentalitet, yoshlarning o‘ziga xosliklari, madaniy darajasi va ijtimoiy holatlarini chuqur tahlil qilish asosida amalga oshirilishi lozim.

Kredit tizimi – bu talaba mustaqilligini kuchaytirish, ularning bilim olish jarayonini shaxsiylashtirish va nazoratni avtomatlashtirishga xizmat qiluvchi o‘quv modeli bo‘lib, ayni vaqtda ijtimoiy moslashuvchanlik va shaffoflik tamoyillarini ilgari suradi. Shuning uchun ushbu tizimni joriy etishda o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi munosabatlar yangi bosqichga chiqadi – ular hamkorlik, maslahatlashuv va erkin fikr almashinuvi asosidagi tengdosh subyektlarga aylanadi.

O‘zbekiston yoshlari jamiyatda o‘z o‘rnini topishga, tajribali mutaxassislar va murabbiylar kabi yetuk shaxslarga ergashishga intiluvchi qatlamdir. Shu sababli kredit tizimining muvaffaqiyatli ishlashi uchun o‘qituvchi shaxsining jamiyatdagi mavqeini oshirish, uning nufuzini mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi. O‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki talabaning shaxsiy va kasbiy shakllanishida yo‘lboshchi bo‘lishi lozim.

Kredit tizimi o‘quv jarayonining interfaol, talaba markazli va baholash mezonlari bo‘yicha aniq tashkil etilishini talab qiladi. Haftalik formatda tashkil etilgan mashg‘ulotlar davomida talabalar mustaqil izlanishlar olib boradi, topshiriqlarni bajaradi va natijalari asosida o‘qituvchi ularning reytingini aniqlaydi. Agar talaba mashg‘ulotlarga tayyorlanmasa, ishtirok etmasa yoki topshiriqlarni bajarmasa, bu uning umumiy bahosiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu esa mas’uliyatni oshiradi, o‘zlashtirish darajasini mustahkamlaydi va har bir talabaning faolligini rag‘batlantiradi.

Kredit tizimi talabalarga nafaqat fanlarni, balki ularni o‘rgatadigan o‘qituvchilarni tanlash imkonini ham beradi. Dastlabki bosqichlarda bu

holat ayrim muammolarni keltirib chiqarishi mumkin: talabchan, intizomga qat’iy yondashadigan yuqori malakali o‘qituvchilarni tanlashdan talabalar cho‘chishi mumkin. Ammo vaqt o‘tishi bilan talabalarning qarorlari yanada ongli va mas’uliyatli bo‘lib boradi, murabbiylarning haqiqiy qadriyat sifatida baholanishi shakllanadi.

Bugungi globallashuv va raqamlashtirish davrida ta’lim tizimi tezkor axborot almashinuvi, zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash va tahlil qilishga qodir bo‘lgan mutaxassislarni tayyorlashga yo‘naltirilgan bo‘lishi zarur. Kredit tizimi shunday kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi: mustaqil axborot izlash, uni qayta ishlash, tahlil qilish va hayotga tatbiq etish. Bu esa xalqaro mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi.

Kredit tizimining joriy etilishi O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarining xalqaro reytinglarda yuqori o‘rinlarni egallashiga, xalqaro universitetlar bilan o‘zaro tan olinadigan diplom va kredit birliklari almashinuvi yo‘lga qo‘yilishiga imkon yaratadi. Shu bilan birga, xorijiy ta’lim va ilmiy markazlar bilan hamkorlikda malaka oshirish, o‘qituvchilar va talabalar almashinuvi yo‘lga qo‘yiladi. Ilmiy-tadqiqot salohiyatiga ega yosh mutaxassislarni tayyorlashda ushbu tizim muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘quv jarayonining yangi shakllarini joriy qilish, ilg‘or texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslar orqali sog‘lom raqobat muhitini yaratish – bu kredit tizimining asosiy ustunliklaridandir. Talabalarning reytingi, kredit to‘plash jarayoni, yakuniy baholash mezonlari ochiq va shaffof bo‘lishi talab etiladi. Baholash me’zonlari talabaning davomatini, mustaqil ishlar natijasini, ilmiy tadqiqotga jalb qilinganligini va yakuniy nazoratdan olgan ballarini hisobga olgan holda shakllantiriladi. Shuningdek, kurslarning murakkabligi, tadqiqotga yo‘naltirilganlik darajasi, talab qilinadigan mehnat vaqti ham kredit birliklarini belgilashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Bu esa nafaqat o‘qish davomida, balki kelajakdagi kasbiy yo‘nalishlarni tanlashda ham talabaning mustaqilligini oshiradi.

Akademik kredit tizimi zamonaviy ta’limning ochiqligi, shaffofligi va raqobatbardoshligini ta’minlaydi. U turli mamlakatlar o‘rtasida

ta’lim natijalarining o‘zaro tan olinishi, o‘quv yurtlari o‘rtasida talabalar almashinuvi va xalqaro integratsiya jarayonlarini tezlashtiradi. Shuningdek, kredit tizimi ta’limni demokratlashtirishga, talabalar va o‘qituvchilar o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashga, har bir talabaning o‘z ta’lim yo‘nalishini mustaqil shakllantirishiga asos yaratadi.

Kredit-modul tizimining samarali ishlashida o‘quv jarayonining boshqaruvi va baholash mexanizmlarining aniqligi oliy ta’lim muassasalarida kredit-modul tizimini samarali joriy etishning eng muhim omillaridan biri – o‘qituvchi va talabalar o‘rtasida o‘zaro munosabatlarni tartibga soluvchi aniq va tushunarli ko‘rsatmalar tizimini ishlab chiqishdir. Bu ko‘rsatmalarni qat’iy ravishda bajarish nafaqat ta’lim jarayonini intizomli qiladi, balki talabalar va o‘qituvchilar o‘rtasida ochiq, ishonchli va ob’ektiv boshqaruv muhitini shakllantiradi. Bunday sharoitda baholarning prognoz qilinishi osonlashadi, ya’ni talabalar o‘z faoliyati natijasida qanday baho olishini oldindan tasavvur qila oladi, bu esa ularning mas’uliyatini va ta’limga bo‘lgan yondashuvini oshiradi.

Kredit tizimida bilimlarni baholash va nazorat qilish faqatgina sinovlar va imtihonlar orqali emas, balki doimiy monitoring, joriy nazorat va mustaqil ishlar samaradorligiga bog‘liq holda tashkil etiladi. Shu nuqtai nazardan, mustaqil ishlarning o‘quv jarayonidagi ulushini oshirish orqali talabalarni mustaqil fikrlash, axborotlarni tahlil qilish, amaliy vazifalarni yechishga tayyorlash mumkin. Biroq bu tizim samarali ishlashi uchun zamonaviy va ilmiy asoslangan metodologiyaga ega o‘quv-uslubiy ta’minot zarur bo‘ladi.

Ko‘plab hollarda o‘qituvchilar uchun bu borada metodologik bazaning yo‘qligi yoki yetarlicha ishlab chiqilmaganligi vazifalarning sifatli bajarilishiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shuning uchun, mustaqil ishlarni samarali tashkil etish va baholash mezonlarini aniqlashtirish bo‘yicha yangi model va yondashuvlar ishlab chiqilishi zarur. Bunday uslubiy yondashuv o‘quv jarayonining sifatini oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

Chet el tajribasi va O‘zbekistonda ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan islohotlar So‘nggi yillarda O‘zbekistonda oliy ta’lim sifatini oshirish yo‘lida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, davlat byudjetidan ajratilayotgan mablag‘larning katta qismi – ya’ni ta’lim sohasiga 35 foiz miqdoridagi moliyaviy resurs – sohaning innovatsion rivojlanishiga yo‘naltirilmoqda. Bu resurslardan samarali foydalanish kredit-modul tizimining to‘liq ishlashi, zamonaviy texnologiyalarni tatbiq etish, o‘qituvchilarning malakasini oshirish va xalqaro tajribani lokal sharoitga moslashtirish imkonini beradi.

Ayniqsa, xorijiy mamlakatlarda muvaffaqiyatli amaliyot sifatida tan olingan kredit tizimi O‘zbekistonda yosh avlodni erkin fikrlaydigan, tashabbuskor, kreativ va innovatsion salohiyatga ega mutaxassislar sifatida shakllantirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qilmoqda.

Kredit tizimining milliy sharoitga moslashtirilgan shakli Yevropa Kredit Transfer Sistemi (ECTS) talablariga mos ravishda ishlab chiqilmoqda. Bunda oliy o‘quv yurtlariga o‘z o‘quv dasturlarini moslashuvchanlik bilan loyihalash, innovatsion o‘qitish uslublarini joriy etish, talabalar va ish beruvchilar ehtiyojlarini hisobga olish imkoniyati yaratilmoqda. Bu esa nafaqat ta’lim jarayonini diversifikatsiyalash, balki mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan kadrlarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, kredit tizimining milliy modelini ishlab chiqish orqali uzluksiz, barqaror va shaffof o‘quv jarayoni yaratilib, bu jarayon barcha manfaatdor tomonlarga – ya’ni talabalar, ish beruvchilar va ta’lim muassasalariga foyda keltiradi. Bu yondashuv orqali oliy ta’lim tizimida talabalar harakatchanligini (mobilitetni) ta’minlash, ularni boshqa mamlakatlarda ham o‘qishiga, diplom va baholarining tan olinishi jarayonini osonlashtirishga erishiladi.

Kredit-modul tizimi xalqaro darajadagi diplomlarning qiymatini oshiradi. Bu esa nafaqat mamlakat ichkarisida, balki xorijiy ta’lim tizimlari bilan integratsiyalashuv imkonini kengaytiradi. Ayniqsa, xorijiy talabalarni jalb etishda, milliy diplomlarning xalqaro tan olinishida va universitetlar reytingini oshirishda ushbu tizim strategik vosita bo‘lib xizmat qilmoqda.

Mazkur tizim asosida ishlab chiqilayotgan o‘quv dasturlari va hujjatlar (shu jumladan “Diploma Supplement” yoki Diplom ilovasi) o‘quv dasturining tarkibi, baholash mezonlari va akademik yutuqlarni aniq va tushunarli shaklda aks ettirish orqali, xalqaro standartlarga muvofiqlikni ta’minlaydi.

Boloniya jarayoni doirasida ta’lim tizimining tuzilishi va kredit-modul tizimining asosiy komponentlari Boloniya jarayoni – bu Yevropa mamlakatlarida oliy ta’lim tizimlarini uyg‘unlashtirish va yagona ta’lim makonini yaratishga qaratilgan keng qamrovli islohotlar tizimidir. Ushbu jarayon doirasida ta’lim tizimining samaradorligi va moslashuvchanligini ta’minlash uchun muhim tarkibiy qismlar joriy etilgan. Ularning eng asosiylaridan biri – kredit-modul tizimi bo‘lib, bu tizim orqali ta’lim jarayonining tashkil etilishi, baholash mezonlari va o‘quv yuki muvofiqlashtiriladi.

Kredit-modul tizimi asosida o‘quv fanlari maxsus modullar shaklida tuziladi. Har bir modul biror yo‘nalishdagi tematik blokni tashkil etadi va u orqali talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalari izchil baholanadi. Modullar o‘z navbatida kreditlar asosida hisoblab chiqiladi va talabalarning umumiy o‘quv faoliyatini miqdoriy jihatdan belgilash imkonini beradi. Bu esa o‘qituvchilarga ta’lim yuklamasini aniq rejalashtirish, talabalar esa o‘z bilim darajasini real baholash imkoniyatiga ega bo‘lishlarini ta’minlaydi.

Kredit (yoki ECTS – Yevropa Kredit Transfer Tizimi) – bu o‘quv yukining miqdoriy ifodasidir. Bu tizim nafaqat auditoriya mashg‘ulotlari, balki mustaqil ta’lim, darslarga tayyorgarlik, amaliy mashg‘ulotlar, seminarlar va yakuniy baholashlar (imtihonlar)ni ham o‘z ichiga oladi. Masalan, 6 kreditga ega bo‘lgan modul 150-180 soatlik umumiy o‘quv yukini anglatadi. Bu vaqt darslar, o‘quv materiallari ustida mustaqil ishlash, topshiriqlar bajarish va imtihonlarga tayyorgarlik kabi faoliyatlarga sarflanishi kerak bo‘ladi.

Aksariyat Yevropa mamlakatlarida 1 kredit o‘rtacha 25-30 soatlik o‘quv yukiga teng. Shu tarzda kreditlar o‘quv jarayonining real yuklamasini hisoblashda eng ishonchli va universal mezon bo‘lib xizmat qiladi. Bu yondashuv, ta’lim mazmunini talabalar uchun qulay

va tushunarli shaklda taqdim etish imkonini beradi, shuningdek o‘quv jarayonida yuklamani muvozanatli taqsimlashga yordam beradi.

Kredit-modul tizimi doirasida kreditlar talabalar tomonidan kurs yoki modulni muvaffaqiyatli yakunlash orqali to‘planadi. Kreditlarning berilishi kursni o‘zlashtirishga asoslangan baholash tizimi orqali amalga oshiriladi. Ushbu baholash talabaning o‘quv natijalari – ya’ni bilim, ko‘nikma va kompetensiyalar darajasiga asoslanadi. Kreditlar jamlanib, talabaga darajali diplomlar va malaka hujjatlarini olishda asosiy mezon sifatida xizmat qiladi.

Eng muhim afzalliklaridan biri shundaki, bu tizim orqali kreditlarni bir oliy ta’lim muassasasidan boshqasiga ko‘chirish osonlashadi. Bu esa akademik mobillikni rag‘batlantiradi – talabalar turli mamlakatlarda yoki muassasalarda ta’lim olish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shu bilan birga, xorijda olingan baholar va o‘quv yutuqlari milliy tizimda tan olinadi, bu esa o‘z navbatida ta’lim muassasalari o‘rtasidagi hamkorlikni kengaytiradi.

Modullar – bu biror fanga oid tematik yo‘nalishlar bo‘lib, ular orqali talabalarga chuqurlashtirilgan bilimlar beriladi. Har bir modul o‘ziga xos mavzular majmuasini o‘z ichiga oladi va belgilangan o‘quv maqsadlariga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Bu modul tuzilmasi orqali o‘quv dasturlari strukturaviy va mazmuniy jihatdan tizimlashtiriladi.

Shuningdek, modullar o‘zaro bog‘lanib, bosqichma-bosqich rivojlanadigan bilim zanjirini hosil qiladi. Talabalar individual ta’lim yo‘nalishini tanlash imkoniyatiga ega bo‘ladi, ya’ni u o‘z qiziqishi, kelajakdagi kasb ehtiyojlari asosida modullarni tanlab o‘rganadi. Bu moslashuvchanlik ta’limni shaxsga yo‘naltirilgan qilish imkonini beradi.

Yevropa oliy ta’lim makonining ajralmas qismi bo‘lgan Boloniya jarayoni doirasida kredit-modul tizimi ta’lim tizimining barqaror, shaffof va natijalarga yo‘naltirilgan shaklini yaratishga xizmat qilmoqda. Kreditlar orqali o‘quv yukining miqdoriy baholanishi, modullar orqali bilimlarning tematik va bosqichli taqsimoti, hamda baholashning standartlashtirilgan usullari – bularning barchasi ta’lim sifatini oshirish, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish va talabalarning

harakatchanligini ta’minlashda muhim vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Talabalarning individual ta’lim yo‘nalishini shakllantirishda modul tanlovining ahamiyati Kredit-modul tizimining eng muhim afzalliklaridan biri – bu talabalarga o‘zlarining ta’lim yo‘nalishlarini mustaqil shakllantirish imkonini berishidir. Ya’ni, talabalar modullarni o‘z shaxsiy manfaatlari, kelajakdagi martaba rejasi hamda kasbiy ehtiyojlarini hisobga olgan holda tanlay oladilar. Bu esa o‘z navbatida o‘quv jarayonini moslashuvchan, shaxsga yo‘naltirilgan va natijador qiladi. Bunday yondashuv talabalarga faqat nazariy bilimlar emas, balki amaliy ko‘nikmalarni ham egallash imkoniyatini yaratadi.

Masalan, iqtisodiyot yo‘nalishida tahsil olayotgan bir talaba nazariy iqtisodiy fanlardan tashqari, raqamli texnologiyalar, biznesni boshqarish, loyihalashtirish yoki huquqshunoslik kabi sohalarga oid modullarni ham tanlashi mumkin. Bu esa unga sohaning turli jihatlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni chuqur tushunishga, keng qamrovli bilimga ega bo‘lishga va bozor talablariga moslashishga imkon beradi.

Har bir modul aniq belgilangan o‘quv maqsadlari va o‘rganish natijalari asosida tuziladi. Bu esa talabalarga kursdan nimani o‘rganishlari kerakligini aniq tushunishga yordam beradi. O‘quv natijalari bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarni qamrab oladi hamda ular modul yakunida qanday mezonlar asosida baholanishini ko‘rsatadi. Shuningdek, modullar ko‘p hollarda kombinatsiyalangan ta’lim metodlarini o‘z ichiga oladi – ya’ni ma’ruzalar, seminarlar, amaliy mashg‘ulotlar, loyiha ishlari, kurs ishlari va yakuniy imtihonlar orqali talaba faol ishtirok etishga undaladi. Ushbu yondashuv ta’lim jarayonini faollashtiradi, talabalarning tanqidiy va ijodiy fikrlash salohiyatini rivojlantiradi hamda olingan nazariy bilimlarni real hayotdagi muammolar bilan bog‘lashga imkon beradi. Bu esa, o‘z navbatida, zamonaviy mehnat bozorining talablariga javob bera oladigan kasbiy tayyorgarlikni ta’minlaydi.

Kredit-modul tizimining yana bir ustun jihati – bu baholash jarayonining shaffofligi va aniqligidir. Har bir modul uchun baholash mezonlari oldindan belgilangan bo‘lib, u talabaning bilim darajasini

bosqichma-bosqich aniqlashga xizmat qiladi. Modullar doirasida olingan ballar (yoki kreditlar) yakuniy sertifikatlashda hisobga olinadi va bu orqali talabaning umumiy o‘quv yutuqlari aniq ko‘rinadi. Shu tarzda nafaqat talabalar o‘z taraqqiyotini kuzatib borishlari mumkin, balki o‘qituvchilar ham ularning kuchli va rivojlantirish zarur bo‘lgan jihatlarini aniqlash imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Baholashning modulli shakli, shuningdek, ta’lim jarayonining individualizatsiyalashuviga, vaqtni to‘g‘ri taqsimlashga va resurslardan oqilona foydalanishga xizmat qiladi. Har bir modulning davomiyligi, yuklamasi va talab darajasi oldindan belgilab qo‘yilganligi sababli, talabalar o‘z vaqtlarini samarali boshqarish va o‘qish rejalarini to‘g‘ri tuzish imkoniga ega bo‘ladilar.

Modulli yondashuv shuningdek fanlararo integratsiyani ham ta’minlaydi. Turli sohalarga oid modullar o‘rtasidagi bog‘liqlik, ularning kesishuv nuqtalarini aniqlash va birgalikda qo‘llash orqali ko‘p tarmoqli (multidisiplinar) o‘quv dasturlari ishlab chiqilishi mumkin. Bu esa zamonaviy, murakkab muhitda faoliyat yuritadigan, keng ko‘lamli bilim va ko‘nikmalarga ega mutaxassislarni tayyorlash imkonini yaratadi.

Masalan, sog‘liqni saqlash, axborot texnologiyalari va iqtisodiyot sohalarini birlashtirgan modullar majmuasi orqali sog‘liqni saqlash sohasida raqamli innovatsiyalar bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislarni tayyorlash mumkin. Shu tarzda fanlararo yondashuv amaliyotda juda dolzarb bo‘lgan kompleks muammolarni hal qilishga qodir bo‘lgan innovatsion fikrlaydigan kadrlar yetishtirilishini ta’minlaydi.

Zamonaviy oliy ta’lim tizimida kredit-modul asosida baholash yondashuvi talabalarning bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini chuqur, tizimli va ob’ektiv baholash imkonini yaratmoqda. An’anaviy yondashuvda asosiy urg‘u yakuniy imtihonlar natijalariga qaratilgan bo‘lsa, kredit-modulli baholash tizimi jarayonning barcha bosqichlarini qamrab oladi. Bunda o‘qitish sifati, talabaning faol ishtiroki, amaliy topshiriqlarni bajarish darajasi, nazorat ishlari va boshqa ko‘rsatkichlar asosida umumiy reyting shakllantiriladi.

Bu tizim doirasida har bir modul muayyan kredit miqdori bilan ifodalanadi. Kredit miqdori — bu o‘quv kursining yuklamasi, murakkablik darajasi, mustaqil ta’lim soati, laboratoriya mashg‘ulotlari, seminarlar va loyihaviy ishlarni o‘z ichiga olgan o‘zlashtirish hajmini bildiradi. Masalan, bir modul uchun ajratilgan 5 kredit kursni o‘zlashtirish uchun talab etiladigan 125-150 soat o‘quv yukini anglatadi.

Reyting yondashuvi o‘quv jarayonini bosqichma-bosqich monitoring qilish, talabaning rivojlanish traektoriyasini aniqlash, individual yondashuvni ta’minlashga xizmat qiladi. Bu tizim orqali o‘qituvchi talabani faqat yakuniy baho asosida emas, balki o‘quv semestri davomida qilgan barcha ishlari — testlar, esse, laboratoriya natijalari, kurs ishlari va jamoaviy loyihalar asosida baholaydi. Bu esa talabaning o‘zini o‘zi boshqarish, mustaqil fikrlash va faol o‘rganish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Reyting tizimi raqobat muhitini shakllantiradi, talabaning bilim va ko‘nikmalarini namoyon qilishiga keng imkoniyat beradi. Baholashning mezonlari aniq belgilanganligi sababli, talabaning o‘z ustida ishlashi, reytingini oshirish bo‘yicha chora ko‘rishi uchun zarur shart-sharoitlar mavjud. Agar talaba ma’lum bir topshiriqni yetarlicha bajara olmasa, u holda qayta topshirish, qo‘shimcha mashg‘ulotlarda qatnashish yoki boshqa turdagi vazifalar orqali reytingni yaxshilash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa o‘zlashtirish sifati va mavzuga chuqur kirib borishga yordam beradi.

Kredit-modul tizimi o‘quv jarayonini moslashuvchan va talabaning shaxsiy rivojlanishiga yo‘naltirilgan tarzda tashkil etadi. Akademik yil odatda ikki asosiy semestrga bo‘linadi kuz va bahor semestrlari. Har bir semestr davomida talabadan ma’lum miqdordagi kredit to‘plash talab etiladi, masalan, 30 kredit. Har bir kurs yoki modul 3 dan 6 kreditgacha bo‘lishi mumkin va bu kursning murakkabligi hamda yuklamasiga bog‘liq.

Semestr boshlanishidan avval talabalar uchun maxsus kurslar katalogi taqdim etiladi. Unda har bir fan, uni olib boruvchi o‘qituvchi, baholash shakllari va dastur mazmuni haqida batafsil ma’lumot

beriladi. Talaba majburiy va tanloviy modullar o‘rtasidan o‘zining kasbiy yo‘nalishi va qiziqishlariga mos kurslarni tanlaydi. Masalan, kompyuter muhandisligi bo‘yicha o‘qiyotgan talabaga kuzgi semestrda quyidagi kurslar taklif qilinishi mumkin “Dasturlash asoslari”, “Statistika asoslari”, “Veb-dizayn”, “Mobil ilovalar”, “Ma’lumotlar bazasi” kabi fanlar. Agar talaba veb-dizayn va foydalanuvchi interfeyslari yo‘nalishida ixtisoslashmoqchi bo‘lsa, u holda “Veb dizayn”, “Mobil ilovalar” kabi modullarni tanlashi mumkin. Boshqa bir talaba ma’lumotlar tahlili yoki sun’iy intellekt sohasida o‘zini rivojlantirmoqchi bo‘lsa, “Statistika”, “Ma’lumotlar tahlili” kabi fanlarga ustuvorlik beradi. Bu yondashuv talabalarning o‘z martaba rejalari asosida o‘quv yo‘nalishini mustaqil shakllantirishiga xizmat qiladi. Alohida e’tiborga molik jihat shuki, kredit-modul tizimida kurslar tanlovi talabaning ilgari o‘zlashtirgan bilimlariga bog‘liq bo‘lishi mumkin. Ba’zi modullarni o‘zlashtirish uchun dastlabki tayyorgarlik (prerequisite) talab etiladi. Masalan, “Mobil ilovalar ishlab chiqish” kursini o‘zlashtirishdan avval “Dasturlash asoslari” kursini o‘zlashtirish majburiy bo‘lishi mumkin. Bu tizimning mantiqiy izchilligini ta’minlaydi va bilimlarning bosqichma-bosqich shakllanishiga xizmat qiladi.

Kredit-modul tizimi talabalarga har bir semestrda to‘plagan kreditlarini tizimda saqlab borish va keyingi bosqichlarda hisobga olish imkonini beradi. Talaba bir semestrda 30 kreditni muvaffaqiyatli to‘plagan taqdirda, u o‘qishni davom ettirish yoki boshqa yo‘nalishlarga o‘tishda o‘zining mavjud akademik yutuqlaridan foydalanishi mumkin. Bahor semestrida esa talabalar yangi kurslar tanlab, ilgari o‘zlashtirgan bilimlari asosida ixtisoslik darajasini oshirishga harakat qiladi.

Umuman olganda, kredit-modul tizimida reyting asosida baholash va kurslarni erkin tanlash imkoniyati oliy ta’limda sifatli, moslashuvchan, raqobatbardosh va talabaga yo‘naltirilgan o‘quv muhitini yaratadi. Bu tizim orqali talaba o‘zini rivojlantirish, bilim va ko‘nikmalarini baholash hamda mehnat bozorining ehtiyojlariga mos kadrga aylanish uchun zarur sharoitga ega bo‘ladi.

Kredit-modul tizimining (KMT / KMC) afzalliklari va kamchiliklari

1.2.1-jadval

№	KMTning Afzalliklari	KMTning Kamchiliklari
1	O‘quv rejalari moslashuvchanligi	Joriy etishda qiyinchiliklar
2	Ta’lim jarayonini individuallashtirish	Bilimlarni baholashda rasmiylashuv xavfi
3	Shaffoflik	Infratuzilmaviy muammolar

Kredit-modul tizimini joriy etishning afzalliklari va o‘quv jarayoniga ta’siri Kredit-modulli o‘quv tizimi zamonaviy oliy ta’lim muhitida individual yondashuv va moslashuvchanlikni ta’minlovchi asosiy mexanizmlardan biri sifatida e’tirof etiladi. Ushbu tizimni joriy etish nafaqat ta’lim sifatini oshirish, balki talabalar ehtiyojlarini hisobga olish orqali o‘quv jarayonining shaxsga yo‘naltirilganligini kuchaytiradi:

1. O‘quv jarayonining moslashuvchanligi kredit-modulli tizimning eng muhim ustunliklaridan biri bu — o‘quv dasturining moslashuvchanligi bo‘lib, talabalarga o‘zlarining shaxsiy ehtiyojlari, qiziqishlari va kelajakdagi kasbiy maqsadlariga mos kurslarni tanlash imkoniyatini beradi. Bu tizim avvalgi markazlashgan yondashuvlardan farqli ravishda, qat’iy va bir xil jadval asosida harakat qilish o‘rniga, har bir talabaning individual traektoriyasini shakllantirishga asoslanadi. Talabalar majburiy fanlar bilan bir qatorda tanlov fanlarini ham o‘zlari belgilaydi;

2. Individual ehtiyojlarga mos o‘quv yuklamasi tizim talabalarga o‘zlarining o‘quv yuklamasini semestr davomida mustaqil tarzda rejalashtirish imkonini beradi. Ishlaydigan talabalar, oilaviy majburiyatlarga ega bo‘lganlar yoki sog‘ligi sababli yuklama cheklanganlar uchun bu juda muhim afzallikdir. Masalan, bir talaba bir semestrda 30 kredit o‘rniga 18 yoki 24 kredit olishni tanlashi mumkin. Bu yondashuv stress darajasini kamaytiradi, o‘zlashtirish darajasini chuqurlashtiradi va har bir fan bo‘yicha sifatli bilim olishni ta’minlaydi.

Bundan tashqari, ko‘plab oliy o‘quv yurtlari kredit-modul tizimi doirasida onlayn ta’lim, kechki mashg‘ulotlar, yozgi semestrlar kabi muqobil o‘quv shakllarini ham joriy etmoqda. Bu esa o‘qish va boshqa hayotiy majburiyatlarni birgalikda olib borayotgan talabalar uchun keng imkoniyatlar ochadi;

3. Bozor talablari va dolzarb kurslarga tezkor moslashuv Kredit-modul tizimining yana bir afzalligi — u oliy ta’lim muassasalariga mehnat bozoridagi tezkor o‘zgarishlarga moslashish imkonini beradi. Agar ma’lum bir sohada yangi texnologiyalar paydo bo‘lsa yoki malaka talablarida o‘zgarish yuz bersa, universitetlar kredit tizimi asosida yangi kurslar, modullarni o‘quv dasturiga tezkor kiritishi mumkin. Masalan, so‘nggi yillarda sun’iy intellekt, kiberxavfsizlik, ekologik boshqaruv kabi yo‘nalishlarda talab ortgani sababli, shu mazmundagi kurslar oliy ta’lim muassasalari tomonidan taklif etilmoqda. Bu esa talabalarni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirishga, ularning raqobatbardoshligini oshirishga va ta’limning amaliy qamrovini kengaytirishga xizmat qiladi. Shuningdek, universitetlar xalqaro standartlar bilan uyg‘unlashtirilgan o‘quv modullarini joriy etish orqali talabalarga xalqaro akademik harakatchanlikda ishtirok etish imkonini ham beradi;

4. O‘quv jarayonining individuallashtirilishi kredit-modulli tizimda har bir talabaning individual rivojlanish trayektoriyasi alohida ahamiyatga ega. Bu yondashuv o‘qituvchilarga ham talabalarni chuqurroq kuzatish, individual maslahatlar berish va talabaga mos pedagogik strategiyalarni ishlab chiqishga imkon yaratadi. Talaba o‘zining o‘qish tezligini, yo‘nalishini, mustaqil ishlash darajasini o‘zi belgilagan holda, o‘quv jarayonining to‘laqonli ishtirokchisiga aylanadi.

Talabaning o‘z ustida ishlashga bo‘lgan motivatsiyasi oshadi, chunki u o‘zi tanlagan yo‘nalish bo‘yicha harakat qilmoqda. Bu esa faqat akademik muvaffaqiyat emas, balki ijtimoiy va shaxsiy jihatdan ham yetuk, o‘z yo‘lini anglagan mutaxassisni tayyorlashga xizmat qiladi.

Kredit-modul tizimining joriy etilishi oliy ta’limda sifat, samaradorlik va moslashuvchanlikning yangi bosqichiga o‘tishni ta’minlaydi. Uning asosiy ustunliklari - o‘quv dasturining moslashuvchanligi, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, individual o‘quv yuklamasi va mehnat bozoriga tezkor moslashuv kabi jihatlar orqali ta’lim tizimi ko‘p qirrali va raqobatbardosh bo‘lib boradi. Shu bilan birga, bu tizim talabalar mas’uliyatini oshirish, mustaqil ta’limga rag‘batlantirish va kasbiy tayyorgarlikni chuqurlashtirish orqali ularning real hayotga tayyorligini ta’minlaydi.

Kredit-modul tizimining interaktivlik, shaffoflik va individuallashtirishga qo‘shgan hissasi Zamonaviy oliy ta’limda ta’lim sifatini oshirish, talaba faoliyatini faollashtirish hamda mehnat bozori ehtiyojlariga mos kadrlar tayyorlashda kredit-modulli tizim muhim vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bu tizim har bir talabaga o‘ziga xos bilim va ko‘nikmalar majmuasini shakllantirish, shuningdek, o‘quv jarayonida faol ishtirok etish imkonini beradi:

1. Bilim va ko‘nikmalarni individuallashtirish kredit-modul tizimida har bir talaba o‘zining individual ehtiyojlari, iqtidor darajasi va professional maqsadlariga muvofiq o‘quv traektoriyasini shakllantira oladi. Bu esa har bir talabaning o‘ziga xos, noyob bilim va ko‘nikmalar uyg‘unligini hosil qilishiga sharoit yaratadi. O‘quv yuklamasining moslashuvchanligi, fanlar va modullarni tanlash imkoniyati ta’limga shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni kengaytiradi. Masalan, iqtisodiyot yo‘nalishida tahsil olayotgan talaba, agar moliya sohasiga qiziqsa, kredit tahlili, byudjet siyosati yoki xalqaro moliya kabi modullarni tanlashi mumkin. Bu yondashuv talabalarni faqatgina nazariy emas, balki amaliy bilimlar bilan ham qurollantiradi va ularni kelajakdagi mehnat faoliyatiga tayyorlaydi;

2. Ta’lim sur’atini moslashtirish va javobgarlik tuyg‘usini shakllantirish Kredit-modulli tizim ta’lim sur’atini har bir talabaning hayotiy sharoiti va tayyorgarlik darajasiga moslashtirishga imkon beradi. Shu tariqa, o‘qish bilan ishlashni birgalikda olib borayotgan, salomatligi yoki oilaviy sharoiti sababli yuklamasi cheklangan talabalar ham ta’limdan ortda qolmasdan o‘z traektoriyasini davom ettirishi

mumkin. Bundan tashqari, bu tizim talabalarning o‘z o‘qish jarayoniga bo‘lgan mas’uliyatini oshiradi. Ular nafaqat o‘z fanlarini tanlaydilar, balki ta’lim mazmuni va sifatiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadilar. Jumladan, talabalarning o‘quv dasturlarini ishlab chiqish, fan modullarining tarkibini takomillashtirish bo‘yicha muhokamalarda ishtirok etishlari amaliyotga joriy qilinmoqda. Bu esa ularning fikr-mulohazalari va afzalliklari hisobga olinib, o‘quv dasturlarini yanada takomillashishiga xizmat qiladi. Natijada, talabalar o‘z bilimlari va kasbiy tayyorgarliklari uchun javobgarlikni chuqurroq his qiladilar. Bu jarayon ularning o‘quvga bo‘lgan motivatsiyasini oshiradi, o‘zlashtirish darajasini yaxshilaydi va mustaqil fikrlash hamda qaror qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantiradi;

3. Baholash tizimining shaffofligi va ta’lim jarayonini individuallashtirish Kredit-modulli tizimda ko‘zda tutilgan baholash mezonlari va oraliq aloqa vositalari orqali o‘qituvchilar har bir talabaning o‘quv jarayonidagi ishtirokini tizimli ravishda kuzatib borish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Akademik natijalar nafaqat yakuniy imtihonlarga, balki butun semestr davomida bajarilgan loyiha ishlari, seminar ishtiroki, tadqiqot topshiriqlari va amaliy mashg‘ulotlarga asoslanadi. Bu yondashuv o‘qituvchiga har bir talabani chuqur tahlil qilish, ularning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, zarur bo‘lsa individual maslahatlar berish imkonini yaratadi. Shuningdek, ushbu tizim natijalarning shaffofligini ta’minlaydi. Har bir kredit, modul va baholash komponentlari aniq belgilab qo‘yilgan bo‘lib, talabalar o‘z o‘zlashtirish darajasini, o‘quv yuklamasining holatini va erishilgan kompetensiyalarni real vaqt rejimida kuzatib borish imkoniyatiga ega. Bu esa akademik rejalashtirish va shaxsiy o‘sishni boshqarishda muhim rol o‘ynaydi;

4. Mehnat bozori bilan uzviy bog‘liqlik Kredit-modulli tizim ish beruvchilar uchun ham sezilarli qulayliklar yaratadi. Tizimda talabaning egallagan kreditlari, o‘zlashtirgan modullari va shakllangan kompetensiyalari to‘g‘risidagi ma’lumotlar tizimlashtirilgan va standartlashtirilgan shaklda taqdim etiladi. Bu esa nomzodlarning bilim darajasini aniq baholashga, ularning malaka darajasini mavjud bo‘sh ish

o‘rinlari talablari bilan solishtirishga imkon beradi. Misol uchun, agar ish beruvchi loyiha boshqaruvi bo‘yicha mutaxassis izlayotgan bo‘lsa, kredit-modul tizimi orqali u nomzodning “Loyihalarni boshqarish”, “Tajriba asosidagi boshqaruv”, “Strategik rejalashtirish” kabi kurslarni o‘zlashtirganligini aniqlashi mumkin. Bu esa xodimlarni tanlash jarayonini soddalashtiradi, malakali kadrlar tanlovini optimallashtiradi va ish beruvchilar bilan oliy ta’lim muassasalari o‘rtasida ishonchli aloqalarni mustahkamlaydi.

Kredit-modulli tizim zamonaviy ta’limni individuallashtirish, interaktivlikni oshirish va shaffoflikni ta’minlashda muhim rol o‘ynamoqda. Ushbu tizim orqali talabalar o‘z o‘quv jarayonining faol ishtirokchisiga aylanib, o‘zining o‘ziga xos bilim va ko‘nikmalar majmuasini shakllantirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Baholash tizimining ochiqligi, mehnat bozori bilan uyg‘unlik va ta’lim sur’atini moslashtirish imkoniyati nafaqat talabalarning, balki o‘qituvchilar va ish beruvchilarning ham manfaatlarini qamrab oladi. Shunday qilib, kredit-modul tizimi ta’lim samaradorligini oshirish va bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda strategik vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Kredit-modul tizimining shaffoflikni ta’minlashdagi o‘rni va joriy etishdagi qiyinchiliklar Kredit-modul tizimi oliy ta’lim muassasalarining ichki boshqaruvi, ta’lim sifatini monitoring qilish hamda ta’lim dasturlarini akkreditatsiyadan o‘tkazish jarayonida shaffoflikni ta’minlovchi muhim mexanizm hisoblanadi. Bu tizim o‘quv natijalarini standartlashtirilgan va mezonlarga asoslangan formatda taqdim etishni nazarda tutganligi sababli, oliy ta’lim muassasalari o‘zlarining ta’lim sifati va samaradorligini xalqaro mezonlar asosida samarali tarzda namoyish etish imkoniga ega bo‘ladi.

Bunday yondashuv nafaqat xalqaro akkreditatsiya jarayonlarini soddalashtiradi, balki ish beruvchilar orasida oliy ta’lim muassasalariga bo‘lgan ishonchni oshirish, ularning raqobatbardoshligini kuchaytirish va ijtimoiy nufuzini mustahkamlashga xizmat qiladi. Ayniqsa, kreditlar asosida shakllantirilgan o‘quv natijalari orqali bitiruvchilarning egallagan kompetensiyalari aniq va o‘lchovli ko‘rinishda namoyon

bo‘ladi. Bu esa ish beruvchilar uchun nomzodlarning tayyorgarlik darajasini baholashni soddalashtiradi.

Biroq, kreditlar soni har doim ham o‘qitish sifati yoki ta’lim jarayonining real samaradorligini to‘liq aks ettirmasligi mumkin. Shu sababli, o‘quv dasturlarining mazmuni, o‘qitish metodikasi, baholash vositalari va yakuniy o‘zlashtirish darajalari haqida to‘liq, aniq va ommaga ochiq ma’lumotlar tizimini shakllantirish zarur. Talabalar, ish beruvchilar va boshqa manfaatdor tomonlar uchun o‘quv jarayoni to‘g‘risida aniq axborotlar taqdim etilishi, ta’lim jarayonining shaffofligi va hisobdorligini oshiradi.

Kredit-modul tizimi o‘zining ko‘plab afzalliklariga qaramasdan, uni to‘laqonli va samarali joriy etish jarayoni bir qator jiddiy infratuzilmaviy va tashkiliy muammolar bilan to‘qnash kelmoqda:

1. Infratuzilmaviy talablarning kuchayishi ushbu tizimni tatbiq etish ta’lim dasturlarini modernizatsiya qilish, fanlar va modullarni qayta ko‘rib chiqish, zamonaviy baholash mexanizmlarini yaratish hamda raqamli texnologiyalardan foydalanishni talab qiladi. Bu esa o‘z navbatida, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, yangi texnika va jihozlar xaridi, maxsus dasturiy ta’minotni ishlab chiqish yoki moslashtirish kabi moliyaviy sarmoya va inson resurslarini jalb etishni talab qiladi. Aksariyat oliy ta’lim muassasalari bu borada yetarli texnik baza yoki raqamli infratuzilmaga ega emas. Bu esa kredit-modul tizimi asosidagi avtomatlashtirilgan baholash, monitoring va akademik ma’lumotlar bazasining barqaror ishlashini xavf ostida qoldiradi. O‘quv jarayonining modullashtirilgan shaklga o‘tishi esa har bir kurs bo‘yicha alohida syllabi, o‘quv natijalari, baholash mezonlari, o‘quv materiallari va darsliklar talab etilishini bildiradi;

2. Kadrlar va inson omiliga oid muammolar tizimni muvaffaqiyatli joriy etishda o‘qituvchilarning roli beqiyosdir. Biroq, ko‘plab pedagoglar kredit-modul tizimining mohiyatini yetarlicha tushunmagan bo‘lishi, an’anaviy dars berish uslublaridan voz kechishni istamasligi yoki yangicha baholash metodlariga nisbatan ishonchsizlik bilan qarashi mumkin. Bunday qarshiliklar ko‘pincha o‘zgarishlardan

qo‘rquv, tizimga nisbatan ishonch yetishmasligi, shuningdek, rahbariyat tomonidan yetarli motivatsiya va uslubiy yordam ko‘rsatilmasligi bilan bog‘liq bo‘ladi. Mazkur tizimda ishlash uchun pedagoglar o‘quv modulini mustaqil loyihalashtira olishi, kreditlar asosida baholash vositalarini ishlab chiqishi, talabalarni o‘rganishga yo‘naltirilgan interaktiv metodlardan foydalanishi zarur. Bu esa o‘qituvchilarning qayta tayyorlanishini, metodik ko‘nikmalarini yangilashini va zamonaviy pedagogik yondashuvlarni egallashini talab etadi;

3. Axborot tizimlarini tashkil qilishdagi qiyinchiliklar kredit-modul tizimining markaziy elementi bu akademik harakatlanish va o‘quv jarayonining real vaqt rejimida monitoring qilinishi hisoblanadi. Bu esa ta’lim muassasasida zamonaviy, integratsiyalashgan axborot tizimi mavjud bo‘lishini, shuningdek, barcha bo‘g‘inlarda (dekanat, o‘qituvchi, talaba) raqamli boshqaruv madaniyatining shakllangan bo‘lishini talab etadi. Ko‘plab OTMlarda bunday tizimlarning yo‘qligi yoki yetarlicha takomillashmaganligi tufayli kredit-modul tizimi to‘liq ishlamaydi yoki faqat qog‘ozda mavjud bo‘ladi;

4. Baholash tizimidagi cheklovlar kredit-modul tizimi miqdoriy ko‘rsatkichlarga (kreditlar soni, o‘rtacha ball, soat hajmi) e’tibor qaratgan holda, ba’zi hollarda ta’lim sifatining ichki mazmuniy tomonlarini e’tibordan chetda qoldirishi mumkin. Talabalar faqat kreditni olish uchun kursga qatnashadi, ammo egallangan bilim va ko‘nikmalarning sifati yetarlicha baholanmasligi mumkin. Shuning uchun bu tizimda sifat ko‘rsatkichlarini aniqlovchi kompetensiya asosida baholash mexanizmlarini takomillashtirish, sifatni aniqlovchi ko‘rsatkichlar bilan ish yuritish alohida e’tiborga loyiq.

Kredit-modul tizimi oliy ta’lim jarayoniga shaffoflik, individual yondashuv va xalqaro standartlarga yaqinlashish imkoniyatlarini olib kiradi. Shu bilan birga, bu tizimni to‘laqonli va samarali joriy etish uchun chuqur infratuzilmaviy, metodik va inson resurslariga asoslangan tayyorgarlikni talab qiladi. Tizimni samarali ishlatish uchun raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, o‘qituvchilarni zamonaviy pedagogik yondashuvlarga tayyorlash, baholash vositalarini takomillashtirish va ta’lim sifati monitoringini yo‘lga qo‘yish zarur. Aks holda, kredit-

modul tizimi o‘zining to‘laqonli afzalliklarini ro‘yobga chiqara olmaydi.

Kredit-modul tizimida baholashning rasmiylashuvi va yuzaga keladigan salbiy oqibatlar Kredit-modul tizimining asosiy tamoyillaridan biri – baholash mezonlarining aniq va standartlashtirilgan bo‘lishi hisoblanadi. Biroq, bu yondashuv o‘ziga xos salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Xususan, baholash jarayoni haddan ziyod rasmiylashtirilganda, ta’limning asl maqsadi – bilim va kompetensiyalarni chuqur o‘zlashtirish emas, balki shunchaki kreditlar to‘plash va belgilangan vazifalarni bajarish orqali yuqori baho olishga qaratiladi.

Bunday holat talabalar orasida yuzaki o‘zlashtirish, ya’ni “taqvimga qarab o‘qish” odatini shakllantiradi. Ular o‘quv materialini chuqur anglash emas, balki o‘quv jarayonini bajarilishi lozim bo‘lgan majburiyatlar yig‘indisi sifatida qabul qila boshlaydilar. Natijada, bilimni egallash jarayoni passiv xarakterga ega bo‘lib, ta’lim sifatining real darajasi pasayadi.

Shuningdek, o‘qituvchilar va universitetlar ham statistik ko‘rsatkichlar, masalan, o‘quv kurslarining o‘zlashtirish darajasi, talabalarning o‘rtacha baholari, o‘z vaqtida bitiruv foizlariga e’tibor qaratib, baholashda soddalashtirish va umumiy mezonlarga moslashtirish yo‘lini tutishlari mumkin. Bu esa bilimga bo‘lgan talablar pasayishiga, o‘qitishning chuqurligini yo‘qotishiga va talabalarni yetarli mehnatsiz yuqori natijalarga erishishga o‘rgatib qo‘yish xavfini tug‘diradi.

Kredit-modul tizimida baholash ko‘pincha miqdoriy ko‘rsatkichlar – kreditlar soni, ballar, topshiriqlar soni orqali amalga oshiriladi. Bu esa o‘quvchilarning individual o‘rganish uslublari, o‘zlashtirish sur’atlari, qiziqishlari va didaktik ehtiyojlarini e’tiborsiz qoldirishi mumkin. Agar baholash faqat standartlashtirilgan mezonlarga asoslangan bo‘lsa, barcha talabalar “o‘rtacha ko‘rsatkichlar” asosida baholanadi, natijada individual rivojlanishga imkon bermaydi.

Bunday tizimda ijodiy va noan’anaviy fikrlovchi talabalar o‘z salohiyatini to‘laqonli namoyon eta olmaydi, chunki ular standart

mezonlarga mos kelmasligi mumkin. Bu esa o‘z navbatida o‘quv jarayonining xilma-xilligini, kreativlik va mustaqil fikrlashni cheklab qo‘yadi.

Shunday qilib, kredit-modul tizimining rasmiylashtirilgan baholash modeliga tayanishi ta’lim tizimini yuzaki, formal natijalarga qaratilgan holatga olib kelish xavfini oshiradi. Ushbu vaziyatda kredit tizimi vosita sifatida emas, balki o‘ziga xos maqsad sifatida qabul qilina boshlaydi. Bu esa chuqur bilim, tafakkur, ko‘nikma va kompetensiyalarni shakllantirish o‘rniga, tashqi ko‘rsatkichlar – foiz, ball va kreditlar ortidan quvishga olib keladi.

Mazkur muammo ta’lim muassasalaridan baholash tizimini takomillashtirish, talabalarni individual yondashuv asosida qo‘llab-quvvatlash, o‘qituvchilarning esa motivatsiyasini oshirishni talab qiladi. Buning uchun quyidagi yo‘nalishlarda tizimli ishlar olib borilishi zarur:

Kompetensiyaga asoslangan baholash tizimini joriy etish – bu o‘quv natijalarining faqat miqdoriy emas, sifat jihatdan ham o‘lchanishini ta’minlaydi. Talabalar portfoliolari va formatif baholash metodlarini qo‘llash – bu usullar chuqur o‘zlashtirishni rag‘batlantiradi. O‘qituvchilar uchun metodik va psixopedagogik treninglar tashkil etish – individual yondashuvni amaliyotga tadbiq etish imkonini yaratadi. Raqamli diagnostika tizimlarini ishlab chiqish – bu har bir talabani rivojlanish trayektoriyasini nazorat qilishga yordam beradi.

An’anaviy va kredit-modul tizimlarining taqqosiy afzalliklari zamonaviy oliy ta’lim tizimlarida an’anaviy yondashuv va kredit-modul tizimi bir-birini to‘ldiruvchi ikki asosiy metodologiya sifatida qaralmoqda. Har ikkala tizimning ham o‘ziga xos kuchli va zaif jihatlari mavjud.

An’anaviy ta’lim tizimi qat’iy tuzilma va kuchli metodik qo‘llab-quvvatlash bilan ajralib turadi. Bu tizimda ta’lim jarayoni odatda markazlashgan holda olib boriladi, o‘qituvchining roli yetakchi bo‘lib, talabalar belgilangan o‘quv rejasi asosida harakatlanadilar. Bunday yondashuv ta’limning bir xilligi, nazariy chuqurligi va metodik aniqligini ta’minlaydi.

An’anaviy va kredit-modul tizimlarining taqqoslamasi

1.2.1-jadval

№	Kredit-modul ta’lim tizimi (KMT)	An’anaviy ta’lim shakli
1.	Moslashuvchanlik: Talabalar kurslarni mustaqil tanlaydi va o‘z ta’lim yo‘nalishini belgilaydi.	Kam moslashuvchanlik: Talabalar kurslarni mustaqil tanlay olmaydi, belgilangan rejaga amal qiladi.
2.	Individuallashtirilgan o‘qitish: Fanlarni turli yo‘nalishlarda va kombinatsiyada o‘rganish mumkin.	Individuallikka cheklov: Barcha talabalar bir xil kursni o‘taydi, qiziqish va qobiliyatlar inobatga olinmaydi.
3.	Mobillik: Talabalar almashinuv dasturlarida ishtirok etib, boshqa OTMlarga oson o‘ta oladi.	Kam mobillik: OTMlar o‘rtasida o‘tish va kurslarni akkreditatsiya qilish murakkabroq.
4.	Baholash tizimi: Kreditlar orqali bilim va taraqqiyot aniqroq baholanadi.	Ob’yektivlikdagi muammo: Talabalarning harakatlari yetarlicha e’tiborga olinmasligi mumkin.
5.	Fanlararo yondashuv: Turli sohalardagi bilimlarni birlashtirish imkonini beradi.	Bevosita muloqot: Ma’ruza va seminarlar orqali o‘qituvchi va talabalar o‘rtasida yaqin aloqalar.
6.	O‘z-o‘zini boshqarish: Yuqori darajada o‘zini tashkil etish talab etiladi.	Doimiy qo‘llab-quvvatlash: Talabalar muntazam tarzda o‘qituvchilardan fikr-mulohaza olishadi.
7.	Kurslar muvofiqlashtirilmagan bo‘lishi mumkin: Ayrim modullar noto‘g‘ri taqsimlanib, ortiqcha yuklama bo‘lishi mumkin.	Tuzilmalanganlik: Aniq reja va jadval asosida o‘qish, bu esa yuklamani rejalashtirishni osonlashtiradi.
8.	O‘zlashtirishdagi murakkablik: Yangi tizim talaba va o‘qituvchilar uchun murakkab bo‘lishi mumkin.	Osonlik: An’anaviy tizim tushunarliroq, ko‘pchilik bunga odatlangan.

Kredit-modul tizimi esa o‘quv jarayonini individuallashtirish va moslashuvchan qilish imkonini beradi. Bu tizimda talaba ta’lim jarayonining markazida turadi, o‘z qiziqishlari, qobiliyatlari va

professional maqsadlari asosida modul va kurslarni tanlay oladi. Bunday yondashuv, ayniqsa, zamonaviy mehnat bozori talablariga mos kompetensiyalarni shakllantirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Qaysi tizimni afzal ko‘rish ehtiyoji esa talabaning shaxsiy o‘quv ehtiyojlari, ta’lim muassasasining strategik yo‘nalishi hamda mamlakatda amalga oshirilayotgan ta’lim siyosatiga bog‘liq. Bugungi globallashgan davrda akademik harakatchanlik – xalqaro ta’lim hamkorligining muhim ko‘rinishidir. Talabalar va tadqiqotchilarning boshqa mamlakatlarda ta’lim olishlari yoki ilmiy faoliyat olib borishlari o‘zaro bilim, tajriba va madaniy qadriyatlar almashuvini ta’minlaydi.

Akademik harakatchanlik:

- talabalar uchun yangi o‘quv yondashuvlarini o‘zlashtirish, ilg‘or tajribalarni o‘rganish;

- xalqaro aloqalarni rivojlantirish, turli madaniyatlar bilan ishlash ko‘nikmasini shakllantirish;

- kasbiy istiqbollarni kengaytirish imkonini yaratadi.

Bu harakatlanish orqali o‘qituvchilar va tadqiqotchilar ham o‘z salohiyatlarini oshirish, qo‘shma ilmiy loyihalarda ishtirok etish va dolzarb muammolarga hal qiluvchi yondashuvlar topish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bundan tashqari, akademik almashinuv umumiy ta’lim tizimlarining integratsiyasiga xizmat qilib, ta’lim sifatini va dasturlar raqobatbardoshligini oshiradi.

Kredit-modul tizimi va akademik harakatchanlik o‘rtasidagi bog‘liqlik Kredit-modul tizimining eng muhim ustunliklaridan biri – bu akademik harakatchanlikni rag‘batlantirishdagi roli bilan bog‘liq. Tizimning asosiy unsurlaridan biri – standartlashtirilgan kredit tizimi bo‘lib, bu har xil mamlakatlar yoki oliy ta’lim muassasalari o‘rtasida kreditlarni tan olish va uzatish imkoniyatini beradi.

Masalan, Yevropa kredit uzatish va to‘plash tizimi (ECTS) orqali:

- talabalar bir universitetdan boshqasiga oson o‘tish imkoniga ega bo‘ladilar;

- o‘qitilgan kurslar va modul kreditlari tan olinadi;

- baholash mezonlari uyg‘unlashadi va bu ta’lim jarayonini shaffof qiladi.

Bunday mexanizm akademik almashinuv dasturlarida ishtirok etish istagidagi talabalar uchun o‘quv jarayonining soddaligi va aniqligini ta’minlaydi. Natijada, xalqaro darajadagi harakatchanlik imkoniyatlari oshadi, bu esa bevosita ta’lim sifati, raqobatbardoshlik va inson kapitali rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Kredit-modul tizimi va akademik harakatchanlik o‘zaro bir-birini to‘ldiruvchi hamda zamonaviy ta’limning integratsiyalashuvini kuchaytiruvchi muhim omillardir. Bu tizim orqali talabalarning individual ehtiyojlari e’tiborga olinadi, o‘qituvchilarning ilmiy salohiyati oshiriladi va ta’lim sifatining global raqobatbardoshligi mustahkamlanadi. Shu boisdan, O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida kredit-modul tizimini izchil joriy qilish va akademik harakatchanlikni qo‘llab-quvvatlash ta’lim strategiyasining asosiy ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolishi zarur.

Akademik harakatchanlik va uning ta’lim jarayoniga ta’siri Zamonaviy ta’lim tizimining muhim komponentlaridan biri sifatida talabalarning akademik harakatchanligi ularning shaxsiy va kasbiy salohiyatini kengaytirishga xizmat qiladi. Talabalarga xorijiy mamlakatlarda ta’lim olish imkoniyatining yaratilishi, ularni turli madaniy, ijtimoiy va ilmiy muhitlar bilan tanishtiradi, bu esa keng ufqqa ega, moslashuvchan va innovatsion fikrlaydigan mutaxassislarning shakllanishiga zamin yaratadi.

Akademik almashinuv dasturlari orqali talabalar xorijiy oliy ta’lim muassasalarining ilg‘or tajribasi, zamonaviy o‘quv metodikalari hamda madaniyatlararo yondashuvlar bilan bevosita tanishadilar. Bu esa ularning shaxsiy o‘sishi**,** madaniy bag‘rikengligi**,** ijtimoiy moslashuvchanligi **va** xalqaro mehnat bozori talablariga tayyorligini oshiradi. Shu bilan birga, almashinuvda ishtirok etgan talabalar xorijda o‘qish davomida kelajakdagi faoliyati uchun muhim bo‘lgan professional aloqalar va ijtimoiy tarmoqlarni shakllantirish imkoniga ega bo‘ladilar.

Kredit-modul tizimi bu borada muhim o‘rin tutadi. Xususan, kreditlar orqali o‘zlashtirilgan fan va kurslarni tan olishning soddalashtirilgan mexanizmlari**,** talabalarni xorijda tahsil olgach, o‘z

vatanlarida o‘qishni davom ettirishlarida qulaylik yaratadi. Bu ularga qo‘shimcha kurslar yoki fanlarni qayta o‘zlashtirish zaruratisiz, ta’lim jarayoniga uzluksiz tarzda integratsiyalash imkonini beradi. Natijada o‘qish muddati cho‘zilmaydi, resurslar tejaladi va o‘quv jarayonining uzviyligi saqlanadi.

Shuningdek, xorijiy tajribani o‘zlashtirib qaytgan talabalar mahalliy ta’lim muassasalarida yangi g‘oyalar, zamonaviy ta’lim texnologiyalari va ilg‘or metodologiyalarni targ‘ib etishda faol ishtirok etishadi. Bu holat nafaqat o‘zlashtirish samaradorligini, balki sinfdoshlar va o‘qituvchilarning umumiy motivatsiya darajasini ham oshiradi. Bunday talabalarning o‘rnak sifatida ko‘rilishi o‘quv jarayonining sifatiga bevosita ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Akademik harakatchanlik shuningdek, oliy ta’lim muassasalari o‘rtasida raqobat muhitini shakllantiradi. Universitetlar ko‘proq xorijlik talabalarni jalb qilish, xalqaro reytinglarda yuqori o‘rinlarni egallash hamda jahon standartlariga mos keluvchi o‘quv dasturlarini taklif etishga intilmoqda. Bu esa ta’lim muassasalarini ta’lim sifati**,** ilmiy-tadqiqot salohiyati, va “xalqaro obro” ni oshirishga undaydi.

Yuqori motivatsiyaga ega talabalar, odatda, o‘z o‘quv faoliyatida yanada faol bo‘lishadi, mavzularni chuqur o‘zlashtirishga intiladilar va akademik natijalari ham yuqori bo‘ladi. Bunday talabalar ta’lim muhitida ijobiy raqobat, innovatsion fikrlash va o‘z-o‘zini rivojlantirishga undovchi muhitni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydilar.

Talabalar motivatsiyasini oshirish va ta’lim jarayonining amaliy yo‘naltirilganligini ta’minlashda kredit-modul tizimi va reyting baholash mexanizmining o‘rni zamonaviy oliy ta’lim tizimining asosiy ustuvor yo‘nalishlaridan biri – bu talabalarni faollikka undash, ularning o‘zlashtirish darajasini oshirish va mustaqil fikrlashga tayyor, mas'uliyatli shaxslarni shakllantirishdan iboratdir. Bu jarayonda talaba motivatsiyasi markaziy o‘rin egallaydi. Chunki yuqori motivatsiyaga ega talaba nafaqat o‘zining ta’lim ko‘rsatkichlarini yaxshilaydi, balki jamiyatda faol, mas’uliyatli va ijtimoiy ongli fuqaro sifatida shakllanadi.

Motivatsiyani qo‘llab-quvvatlash zarurligini asoslovchi sabablar

1.2.2-jadval

№	Motivatsiyani qo‘llab-quvvatlash zarurligini asoslovchi sabablar
1.	O‘quv muhiti — qiziqarli materiallar, zamonaviy uskunalar va yetakchi mutaxassislar bilan hamkorlik imkoniyati talabalarni faol o‘rganishga undaydi.
2.	O‘qituvchilarning talabalarga ko‘rsatgan yordami va o‘qishdagi qiyinchiliklarni yengishga ko‘maklashuvi ularda kelajakdagi muvaffaqiyatga ishonch uyg‘otadi.
3.	Talabalarga o‘zlarini qiziqtirgan fanlar, tanlov kurslari yoki tadqiqot mavzularini tanlash imkonini berish o‘qish jarayonini yanada jozibador qiladi.
4.	Ijobiy natijalar va o‘qituvchilarning konstruktiv fikrlari talabalar salohiyatining ochilishi va ularning kuchli tomonlarini aniqlashga yordam beradi.
5.	O‘z o‘qish maqsadlarini anglagan talabalar o‘quv jarayoniga ko‘proq e’tibor va diqqat bilan yondashadilar.

Kredit-modul tizimining joriy etilishi talabalarning o‘quv faoliyatini reyting baholash tizimi orqali monitoring qilish imkonini yaratadi. Bu esa o‘z navbatida, ularning ichki motivatsiyasini kuchaytirish va o‘zlashtirish samaradorligini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Reyting tizimi orqali talabalar o‘zlarining harakatlari va erishgan natijalari o‘rtasidagi bevosita bog‘liqlikni ko‘ra boshlaydilar. Bu bog‘liqlik esa ularni ta’lim jarayoniga faolroq jalb qiladi, o‘z ustida ishlashga, jamoada hamkorlik qilishga va o‘z ko‘rsatkichlarini yaxshilashga undaydi.

Reyting tizimi sog‘lom raqobat muhitini shakllantiradi. Har bir talaba o‘z ko‘rsatkichlarini oshirish uchun intiladi, bu esa o‘qish guruhidagi umumiy bilim darajasining ham ortishiga olib keladi. Shuningdek, reyting baholash tizimi faqatgina yakuniy nazorat natijalariga asoslanmaydi, balki talabaning o‘quv jarayonidagi doimiy ishtiroki, loyihalarda faol qatnashuvi, mustaqil tadqiqot olib borishi va

ijtimoiy hayotdagi faolligi kabi omillarni ham qamrab oladi. Bu esa baholash jarayonini yanada xolis, kompleks va motvatsiyalovchi vositaga aylantiradi.

Yana bir muhim jihat shundaki, reyting tizimi individual yondashuvga asoslangan. Har bir talabaning o‘ziga xos o‘quv uslubi, mustaqil ishlash sur’ati va qiziqish sohalari inobatga olinadi. Bu esa ularga o‘z imkoniyatlarini to‘liq namoyon qilish, faqatgina akademik bilim emas, balki ijodiy va tashabbuskorlik salohiyatini ham ochishga imkon beradi. Shunday qilib, reyting tizimi orqali talabaning o‘zini har tomonlama rivojlantirishiga qulay shart-sharoit yaratiladi.

Ta’lim tizimida amaliyotga yo‘naltirilgan yondashuv ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi mehnat bozorida talab qilingan kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish uchun ta’lim jarayoni nazariy bilimlar bilan cheklanmasligi kerak. O‘quv dasturlarida amaliy topshiriqlar**,** real loyihalar**,** simulyatsiyalar**,** kasbga oid treninglar va ish beruvchilar bilan hamkorlikda tashkil etiladigan mashg‘ulotlar keng o‘rin olishi zarur. Bunday yondashuv nafaqat o‘rgatilgan bilimlarni real vaziyatlarda qo‘llash imkonini beradi, balki talabalarda muammoli vaziyatlarga tanqidiy yondashish, tezda moslashish, qaror qabul qilish va jamoaviy ishlash ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi.

Shuningdek, amaliy faoliyatga yo‘naltirilgan ta’lim shakllari orqali talabalar bozor iqtisodiyoti sharoitida ish beruvchilarning talablarini bevosita o‘rganadilar. Real loyihalar asosida olib boriladigan ishlar, ularning professional mas’uliyatini oshiradi, kelajakdagi kasbiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan soft-skill (yumshoq ko‘nikmalar) va hard-skill (texnik ko‘nikmalar) kompetensiyalarini shakllantiradi. Bu esa bitiruvchilarni mehnat bozoriga tayyorlashda muhim omil hisoblanadi.

Oliy ta’lim tizimi doirasida talabalar uchun professional mutaxassislar bilan aloqa o‘rnatish imkoniyati katta ahamiyat kasb etadi. Soha ekspertlari, amaliyotchi ustozlar va tajribali rahbarlar bilan o‘zaro fikr almashish, ularning baho va tavsiyalarini olish talabalarni o‘z yondashuvini qayta ko‘rib chiqishga, ta’limga yangicha nuqtai nazar bilan yondashishga undaydi. Shuningdek, bunday muloqot

professional tarmoqlarni shakllantirish, kasbiy yo‘nalishni aniq belgilash va kelgusidagi ish faoliyatini rejalashtirishda yordam beradi.

Umuman olganda, kredit-modul tizimi asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni, reyting baholash tizimi, amaliyotga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlar va tashqi ekspertlar bilan hamkorlik o‘rnatish orqali talabalar faoliyatining barcha jihatlarini qamrab oluvchi va ularni yuqori natijalarga yetaklovchi samarali mexanizmlar tizimini shakllantiradi.

Kredit-modul tizimi nafaqat ta’lim jarayonini zamonaviylashtirishda, balki bitiruvchilarning kasbiy va amaliy tayyorgarligini oshirishda ham muhim rol o‘ynaydi. Bu tizimning afzalligi shundaki, u ta’lim jarayonini shaxsga yo‘naltirilgan, moslashuvchan va mehnat bozorining real ehtiyojlariga javob beradigan shaklga keltirish imkonini beradi. Ayniqsa, dizayn, amaliyot va loyiha asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar orqali talabalarning nazariy bilimlarini amaliy ko‘nikmalarga aylantirish imkoniyati sezilarli darajada oshadi.

Dizayn asosidagi ta’lim shakllari talabalarga nafaqat mavjud bilimlarni takrorlash, balki ularni turli kontekstda mustaqil tarzda qo‘llash, real muammolarga yechim topish, innovatsion fikrlarni ilgari surish va ilg‘or texnologiyalarni sinovdan o‘tkazish imkonini beradi. Talabalar o‘zlarining loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonida ijodiy tafakkur, tanqidiy fikrlash, tizimli yondashuv kabi yuqori darajadagi kognitiv faoliyatga asoslangan ko‘nikmalarni rivojlantiradilar. Bu jarayonda ular o‘z vaqtini samarali rejalashtirish, guruh bilan hamkorlik qilish, mas’uliyatni bo‘lishish va qaror qabul qilish kabi yumshoq kompetensiyalarni ham egallaydilar.

Loyiha ishlari orqali amalga oshiriladigan topshiriqlarning ko‘pchiligi amaliy xarakterga ega bo‘lib, ular tez-tez ishbilarmon doiralar, soha vakillari va ilmiy muassasalar bilan hamkorlikda olib boriladi. Bu esa talabalar uchun o‘z ixtisoslik sohasidagi yetakchi tashkilotlar faoliyati bilan tanishish, ulardan amaliy maslahatlar olish va professional muloqot madaniyatini shakllantirish imkonini yaratadi. Bunday muloqotlar o‘z navbatida, talabalarni bo‘lajak ish beruvchilar

bilan yaqinlashtiradi, ularning kasbiy ufqini kengaytiradi hamda bitiruvdan so‘ng ishga joylashish imkoniyatlarini sezilarli darajada oshiradi.

Amaliyotga yo‘naltirilgan ta’limning muhim jihatlaridan biri bu talabalarni haqiqiy ish muhitiga jalb etish orqali ularning kasbiy tayyorgarligini kuchaytirishdir. Ishlab chiqarish va tashkilotlarda o‘tkaziladigan amaliyot davrida talabalar o‘zlarining nazariy bilimlarini real holatlarga tadbiq etishni o‘rganadilar, korporativ madaniyatga moslashadilar, jamoaviy ishda ishtirok etadilar va rahbarlar bilan samarali muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Shuningdek, ular tajribali mutaxassislardan amaliy tavsiyalar oladi, bu esa ularga o‘z martaba yo‘nalishlarini aniq belgilashga yordam beradi.

Kredit-modul tizimida dizayn va amaliyotga ega modullar mavjudligi o‘quv jarayonini yanada moslashuvchan va dinamik qiladi. Talabalar o‘zlarining individual qiziqishlari, kuchli jihatlari va kelajakdagi martaba rejalari asosida modullarni tanlash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu esa shaxsiylashtirilgan o‘qitish modelini shakllantirib, talabaning o‘ziga xos salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarishiga xizmat qiladi. Shu tarzda, ta’lim nafaqat bilim olish vositasiga, balki o‘zini rivojlantirish va jamiyatda faol ishtirok etishga yo‘naltirilgan strategik platformaga aylanadi.

Kredit-modul tizimi doirasida tashkil etiladigan amaliyotlar nafaqat ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi, balki talabalarni zamonaviy mehnat bozorining murakkab va doimiy o‘zgaruvchan muhitiga tayyorlashda ham muhim vosita hisoblanadi. Bu tizim orqali shakllantiriladigan metako‘nikmalar – mustaqil qaror qabul qilish, stressga chidamlilik, muammoli vaziyatlarda faol harakat qilish va murakkab vazifalarni tahlil qilish – bitiruvchilarning real ish faoliyatiga integratsiyalash jarayonini osonlashtiradi.

Xulosa qilib aytganda, kredit-modul tizimi asosida ta’lim jarayoniga dizayn, loyiha va amaliy mashg‘ulotlarning integratsiyasi talabalarning nazariy bilimlarini amaliy ko‘nikmalar bilan uyg‘unlashtirishga, ularni jahon standartlariga mos, kasbiy jihatdan yetuk mutaxassislar sifatida shakllantirishga xizmat qilmoqda. Bu esa

o‘z navbatida, mamlakatda inson kapitalining raqobatbardoshligini oshirish va innovatsion rivojlanishga zamin yaratishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

1.3. Kredit-modul tizimining huquqiy asoslari

Kredit-modul tizimining huquqiy asoslari va xalqaro standartlar bilan uyg‘unligi Bugungi globallashuv sharoitida oliy ta’lim tizimi zamonaviy talablar asosida qayta ko‘rib chiqilmoqda. Ayniqsa, raqobatbardosh, malakali va innovatsion fikrlovchi kadrlar tayyorlashda kredit-modul tizimi (KMT) alohida o‘rin egallaydi. Mazkur tizim ta’lim jarayonining moslashuvchanligi**,** shaxsga yo‘naltirilganligi va baholashning zamonaviy mezonlari orqali ilg‘or xalqaro tajribalarni milliy ta’lim amaliyotiga integratsiyalash imkonini yaratmoqda.

Kredit-modul tizimi asosan talabaning o‘zlashtirish darajasi, mustaqil ishlash ko‘nikmasi va fanlarni tanlashdagi erkinligini hisobga olgan holda shakllantiriladi. Bu tizim har bir fanning yuklamasini aniq belgilash, modulga ajratilgan mashg‘ulotlar asosida tahlil qilish va oraliq nazorat orqali o‘z vaqtida teskari aloqa berishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, KMT ta’lim muassasalarini akademik erkinlik, o‘z-o‘zini baholash va ichki sifat nazoratini takomillashtirish kabi yondashuvlarga olib keladi.

Ushbu tizimning joriy etilishi va samarali ishlashi normativ-huquqiy asoslar bilan mustahkamlangan. Kredit-modul tizimi xalqaro va milliy darajadagi hujjatlarga asoslanib faoliyat yuritadi, bu esa uning global ta’lim makoniga integratsiyalashuvini ta’minlaydi.

Xalqaro huquqiy asoslar

Bologna jarayoni (1999-yil) – Yevropa oliy ta’lim makonini yaratish bo‘yicha qabul qilingan eng muhim hujjatlardan biridir. Ushbu tashabbus oliy ta’limda kredit tizimini joriy etish**,** ta’lim dasturlarining shaffofligi**,** mutanosiblik **va** talabalar va professor-o‘qituvchilar harakatchanligini ta’minlashni maqsad qiladi. Bologna deklaratsiyasiga qo‘shilgan davlatlar o‘z ta’lim tizimlarini umumiy standartlarga moslashtirishga kirishgan bo‘lib, bu yo‘lda kredit-modul tizimi asosiy vosita sifatida qaralmoqda.

ECTS (European Credit Transfer and Accumulation System) – bu Yevropa Kredit Transfer va Jamg‘arma Tizimi hisoblanadi. Uning asosiy maqsadi – turli mamlakatlar va ta’lim muassasalari o‘rtasida akademik kreditlarni tan olishni soddalashtirishdir. ECTS orqali har bir akademik yuklama miqdoriy ifodalanadi va bu raqamlar asosida talabaning o‘zlashtirgan fani boshqa davlatdagi OTM tomonidan tan olinadi. Bu esa xalqaro almashinuv, qo‘shma dasturlar va chet elda o‘qish imkoniyatlarini kengaytiradi.

UNESCO va OECD tavsiyalari – Jahonning yetakchi tashkilotlari bo‘lmish Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ta’lim, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha tashkiloti (UNESCO) hamda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tomonidan ishlab chiqilgan tavsiyalar oliy ta’limda kompetensiyaviy yondashuv, sifat nazorati, kreditlar bo‘yicha tan olish va o‘quv yuklamasini optimallashtirish masalalarini qamrab oladi. Ayniqsa, zamonaviy bosqichda ushbu tavsiyalar akademik mustaqillik va ta’limda ishtirokchilar o‘rtasidagi hamkorlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan.

Xalqaro huquqiy asoslar KMT’ning yagona standartlar asosida ishlab chiqilishini ta’minlabgina qolmay, balki uning natijalarini boshqa davlatlar tomonidan tan olinishini kafolatlaydi. Bu esa o‘z navbatida, O‘zbekiston oliy ta’lim tizimining xalqaro maydondagi obro‘sini oshirish, xorijiy talabalar va mutaxassislar uchun jozibadorligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Milliy huquqiy asoslar

O‘zbekiston Respublikasi ta’lim siyosatida so‘nggi yillarda oliy ta’lim tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish borasida qator huquqiy va me’yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqildi. Jumladan:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari**,** xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF–5847-sonli “Oliy ta’lim tizimini rivojlantirishning davlat siyosatini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi farmoni;

Vazirlar Mahkamasining qarorlari, jumladan, 2020-yil 31-dekabrdagi 824-sonli “Oliy ta’lim muassasalarida kredit-modul tizimini joriy etishning bosqichma-bosqich chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori;

Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining buyruqlari**,** metodik qo‘llanmalari va yo‘riqnomalari kredit-modul tizimini bosqichma-bosqich joriy etish, unga mos baholash mezonlarini ishlab chiqish va sifat monitoringi tizimini tashkil qilishga qaratilgan.

Milliy huquqiy asoslar xalqaro hujjatlardagi prinsiplarni milliy kontekstga moslashtirib, KMTning O‘zbekiston sharoitidagi samarali amal qilishini ta’minlaydi. Shu orqali talabalarning o‘quv yuklamasini aniq belgilash, baholashda shaffoflikni kuchaytirish, oraliq va yakuniy nazorat shakllarini takomillashtirish, eng muhimi, diplomlar va kreditlarning xalqaro darajada tan olinishi uchun sharoit yaratish maqsad qilinmoqda.

Kredit-modul tizimining milliy normativ-huquqiy asoslari va asosiy tamoyillari O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida kredit-modul tizimini joriy etish va uning samaradorligini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan normativ-huquqiy baza Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining tegishli me’yoriy hujjatlari orqali mustahkamlangan. Ushbu hujjatlar talabalarning bilim darajasini zamonaviy mezonlar asosida baholash, ta’lim jarayonining monitoringini tashkil etish va kreditlarning akkumulatsiya (to‘planish) jarayonini tartibga solish kabi masalalarni qamrab oladi.

Kredit-modul tizimi quyidagi asosiy tamoyillar orqali milliy ta’lim amaliyotida o‘z aksini topmoqda:

1. Akademik mustaqillikni ta’minlash talabalarga o‘zining ta’lim trayektoriyasini shakllantirishda mustaqil qaror qabul qilish imkoniyati berilishi – kredit-modul tizimining markaziy ustunliklaridan biridir. Bu yondashuv asosida har bir talaba o‘zining qiziqishlari, professional rejalari va kasbiy yo‘nalishlariga mos ravishda fanlarni tanlash huquqiga ega bo‘ladi. Akademik mustaqillik nafaqat shaxsiy mas’uliyat va motivatsiyani kuchaytiradi, balki individuallashtirilgan ta’lim muhitini yaratadi;

2. Shaffoflik va kreditlarni tan olish mexanizmi talabalarning o‘zlashtirgan bilim va ko‘nikmalari asosida to‘plagan kredit birliklari boshqa oliy ta’lim muassasalari tomonidan tan olinishi – KMTning muhim tamoyillaridan biridir. Bu tizim o‘quv yuklamasining miqdoriy

ifodalanishini, baholash jarayonining shaffofligini va yakuniy natijalarning adolatli aks ettirilishini ta’minlaydi. Kreditlar mobil o‘qish tizimini rivojlantirishga, xorijiy oliy ta’lim muassasalari bilan almashinuv dasturlarini yo‘lga qo‘yishga asos bo‘ladi;

3. Modullilik asosida o‘quv jarayonini tashkil etish kredit-modul tizimining yana bir konseptual tamoyili – modullilikdir. Bu yondashuv har bir fan yoki o‘quv kursini ma’lum miqdordagi o‘quv birliklariga ega bo‘lgan mustaqil modul sifatida tasniflaydi. Har bir modul yakunida oraliq yoki yakuniy baholash orqali talabaning o‘zlashtirish darajasi aniqlanadi. Mazkur yondashuv ta’lim jarayonida tizimlilik, uzluksizlik va aniqlikni ta’minlaydi, o‘quv natijalarini mezon asosida baholashga xizmat qiladi;

4. Zamonaviy baholash tizimini joriy etish kredit-modul tizimida baholash jarayoni xalqaro standartlarga muvofiq amalga oshiriladi. Xususan, 100 ballik reyting tizimi asosida baholash hamda GPA (Grade Point Average) – umumiy o‘rtacha baho ko‘rsatkichini hisoblash orqali akademik natijalarni aniqlash yo‘lga qo‘yilgan. Bu tizim natijalarni raqamli formatda avtomatik tahlil qilish, baholashdagi insoniy omil ta’sirini kamaytirish, hamda shaffoflik va adolatlilikni kuchaytirishga xizmat qiladi;

5. Xalqaro hamkorlikni kengaytirish kredit-modul tizimi oliy ta’lim muassasalarining xalqaro hamkorlikdagi ishtirokini faollashtirishga xizmat qilmoqda. Jumladan, xorijiy oliy ta’lim muassasalari bilan kreditlarni o‘zaro tan olish mexanizmlarini takomillashtirish, qo‘shma ta’lim dasturlarini joriy etish, professor-o‘qituvchilar va talabalar almashinuvini yo‘lga qo‘yish orqali KMT O‘zbekiston ta’lim tizimini global ilmiy maydonga integratsiya qilish imkonini bermoqda;

6. Talabalar mobilligini ta’minlash kredit-modul tizimi talabalar uchun akademik mobillik tamoyilini real asosga aylantirdi. Endilikda talabalar o‘qish jarayonida boshqa oliy o‘quv yurtlariga o‘tish, qisqa muddatli stajirovka yoki xorijiy modul kurslarini o‘zlashtirish orqali o‘z kredit portfelini mustaqil shakllantirish imkoniyatiga egadirlar. Bu yondashuv global ta’lim makoniga mos raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda muhim rol o‘ynaydi;

7. Raqamli ta’lim platformalari bilan integratsiya kredit tizimi zamonaviy raqamli ta’lim texnologiyalari bilan uyg‘unlikda faoliyat yuritmoqda. Onlayn platformalar, elektron baholash tizimlari, LMS (Learning Management System) kabi vositalar kreditlarning yig‘ilishi va nazoratini avtomatlashtirish, masofaviy ta’lim imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, ta’lim jarayonining ochiqligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi;

8. Ish beruvchilar bilan uzviy hamkorlik kredit-modul tizimi mehnat bozori ehtiyojlari bilan ta’lim dasturlarini uyg‘unlashtirishga xizmat qilmoqda. Ish beruvchilarning fikr-mulohazalari asosida modullar mazmunini takomillashtirish, amaliy mashg‘ulot va stajirovkalarni real ishlab chiqarish muhitida tashkil etish orqali bitiruvchilarning kasbiy tayyorgarligi oshirilmoqda. Bu esa ularning mehnat bozorida raqobatbardoshligini ta’minlaydi.

II BOB. OLIY TA’LIM TIZIMIDA KREDIT-MODUL TIZIMINING IMKONIYATLARIDAN FOYDALANGANLIK HOLATI

2.1. Kredit-modul tizimidan foydalanishda (tadbiq etishda) oliy ta’lim sifatiga ta’sir etuvchi omillar

Oliy ta’lim tizimida zamonaviy kredit-modul tizimining joriy etilishi ta’lim jarayonini chuqur isloh qilishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, bu tizim orqali o‘quv jarayonini puxta rejalashtirish, ilmiy-metodik jihatdan asoslash, shuningdek, ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiluvchi zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini amaliyotga tadbiq etish imkoniyati paydo bo‘lmoqda. Shu ma’noda, kredit tizimi asosida ta’lim jarayonlarini tashkil etish – nafaqat akademik yuklamani tizimli boshqarish, balki o‘quv faoliyatining shaffofligi va samaradorligini ta’minlashda muhim vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Oliy ta’limdagi o‘quv jarayonining murakkab ko‘p qirrali mohiyati O‘quv jarayoni – bu yuqori malakali mutaxassisni tayyorlashda o‘quv, tashkiliy-boshqaruv, metodik va ilmiy yondashuvlarni o‘zida uyg‘unlashtirgan kompleks faoliyatdir. Uning samarali tashkil etilishi bilimlar chuqurligi, kasbiy ko‘nikmalar, tanqidiy va tizimli fikrlashni shakllantirish orqali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi. Shu sababli oliy ta’limda o‘quv jarayoni puxta rejalashtirilgan, metodik jihatdan asoslangan va individual yondashuvni ta’minlovchi boshqaruv mexanizmlariga tayanishi zarur.

O‘quv jarayonining asosiy komponentlari:

1. Akademik mashg‘ulotlar ma’ruza, amaliy, laboratoriya, seminar darslari va interaktiv uslublar orqali o‘tkaziladi;
2. Talabaning mustaqil ta’limi bilimlarni mustahkamlash va kengaytirish, ijodiy fikrlashni rivojlantirish uchun xizmat qiladi;
3. Malakaviy amaliyotlar nazariy bilimlarni real mehnat sharoitlarida qo‘llash imkonini beradi;
4. Nazorat va baholash bosqichlari talabalar tomonidan o‘zlashtirilgan bilim darajasini aniqlash hamda ta’lim sifatini monitoring qilishga xizmat qiladi.

O‘quv jarayonini rejalashtirish va tashkil etish bosqichlari kredit tizimi asosida o‘quv jarayonini rejalashtirish va tashkil etish quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

- Akademik taqvimni tuzish o‘quv yilining barcha asosiy bosqichlari (semester boshi va yakuni, oraliq nazoratlar, yakuniy baholashlar, ta’til va amaliyot davrlari)ni o‘z ichiga olgan akademik taqvim ishlab chiqiladi. Bu hujjat butun o‘quv jarayonining aniq vaqt doirasida tashkil etilishini ta’minlaydi va o‘qituvchi hamda talabalar faoliyatini uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi;
- Tanlov fanlari ro‘yxatini shakllantirish namunaviy o‘quv rejasidan tashqari, har bir ta’lim yo‘nalishi uchun tanlov fanlari ro‘yxati shakllantiriladi. Bu ro‘yxat talabalarga o‘z kasbiy qiziqishlariga mos fanlarni tanlash imkonini beradi, shuningdek, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni ta’minlaydi;
- Talabaning shaxsiy o‘quv rejasini tuzish talabalar tomonidan o‘z yo‘nalishlari va tanlov fanlari asosida shaxsiy o‘quv reja (individual curriculum) tuziladi. Bu jarayonda talabalarga akademik maslahatchi (edvayzer) ko‘maklashadi. Rejalar Registrar ofisi tomonidan tizimlashtiriladi, dekanat tomonidan nazorat qilinadi; Ushbu yondashuv talabani o‘z o‘quv yo‘lini ongli ravishda shakllantirishga jalb etadi.
- Ishchi o‘quv rejalari ishlab chiqiladi har bir ta’lim yo‘nalishi va mutaxassislik bo‘yicha ishchi o‘quv rejasi (Work Plan) tuzilib, unda har bir fanning o‘quv yuklamasi, kredit miqdori, baholash mezonlari, o‘qitish formasi va amaliyotlar aniq belgilab qo‘yiladi;
- Fanlarning ishchi o‘quv dasturlarini ishlab chiqish (syllabus) har bir fan bo‘yicha syllabuslar ishlab chiqiladi. Unda fan maqsadi, o‘quv natijalari, mavzular taqsimoti, baholash mezonlari, foydalanuvchi adabiyotlar va o‘qitish metodlari aniq belgilab qo‘yiladi. Syllabuslar ta’lim sifatini oshirish va talabaga shaffof axborot berishning muhim vositasidir;
- O‘quv yuklamalarini rejalashtirish va professor-o‘qituvchilarga taqsimlash Kafedralar ishchi o‘quv rejalari asosida o‘z faoliyatini rejalashtirib, professor-o‘qituvchilarning shtat birligi**,**

yuklama hajmi va fanga ajratilgan kreditlar asosida ish taqsimoti amalga oshiriladi. Bu jarayon ta’lim resurslaridan oqilona foydalanish va pedagogik salohiyatni samarali taqsimlashga xizmat qiladi.

Kredit tizimi ta’lim sifatini oshirishda quyidagi innovatsion metodlarni qo‘llash imkonini yaratadi:

a) Raqamli monitoring tizimlari (LMS, ERP) – o‘quv jarayonining barcha bosqichlarini avtomatlashtiradi;

b) Portfel baholash – talabalar yutuqlarini tizimli ravishda qayd etish va tahlil qilish imkonini beradi;

c) Flipped learning (teskari sinf) va blended learning (aralash o‘qitish) metodlari orqali mustaqil ta’limga urg‘u beriladi;

d) Talaba fikrini hisobga oluvchi tizimlar – ta’lim jarayonida studentlarning fikr-mulohazalari asosida takomillashtirishlar kiritiladi;

e) Akademik harakatchanlikni rag‘batlantirish – talabalar boshqa oliy o‘quv yurtlarida, xususan xorijda o‘qish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, kredit tizimi asosida ta’lim jarayonlarini rejalashtirish va tashkil etish nafaqat metodik, balki strategik yondashuvni talab etadi. Mazkur tizim orqali individual yondashuv, zamonaviy boshqaruv texnologiyalari, samarali baholash va raqamlashtirish vositalari asosida ta’lim sifatini oshirish imkoniyati yaratilmoqda. Kredit tizimining to‘liq va tizimli tatbiqi, innovatsion metodlar bilan uyg‘unlashgan holda, oliy ta’limda sifat, raqobatbardoshlik va barqarorlikni ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

O‘quv rejalari va fan bloklari tizimi asosida ta’lim sifatini oshirish mexanizmlari zamonaviy oliy ta’lim tizimida ta’lim jarayonini samarali va tizimli tashkil etishning asosiy omillaridan biri – bu kredit-modul tizimi asosida ishlab chiqilgan namunaviy va ishchi o‘quv rejalarining ilmiy asoslangan tarzda tuzilishidir. O‘quv rejalarining to‘g‘ri tuzilishi nafaqat o‘qitilayotgan fanlarning mazmuni va hajmini belgilab beradi, balki o‘quv yuklamasi, fanlar oralig‘idagi muvofiqlik, talaba yuklamasi va o‘qitishning sifat ko‘rsatkichlarini belgilashda ham hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

O‘quv jarayonida akademik potok va guruhlar kesimida dars jadvalini shakllantirish kredit-modul tizimi asosida ta’limni tashkil etishda o‘quv yuklamalari va mashg‘ulotlar akademik potoklar va guruhlar kesimida shakllantiriladi. Bunda talabalar kontingenti va fanlar bo‘yicha o‘qitish shakllari (ma’ruza, amaliyot, seminar, laboratoriya) hisobga olinadi. Akademik potok – bu bir yo‘nalish bo‘yicha umumiy fanlarni o‘zlashtirayotgan talabalar yig‘indisidir. Bu yondashuv ta’lim resurslaridan oqilona foydalanish va o‘qituvchilarning yuklamasini muvozanatli taqsimlash imkonini beradi.

Bakalavriat darajasidagi o‘quv rejalarining blok tuzilmasi Bakalavriat ta’lim darajasi uchun mo‘ljallangan namunaviy o‘quv rejalar, odatda, to‘rt asosiy fan blokidan iborat bo‘ladi:

❖ Tabiiy-ilmiy va gumanitar fanlar bloki – bu blokda talabalar umumiy dunyoqarash, tafakkur madaniyati, ijtimoiy faoliyat, falsafa, til, informatika va boshqa umumiy rivojlantiruvchi fanlar bilan tanishadi. Ushbu fanlar intellektual salohiyatni kengaytirish, kasbiy tayyorgarlik uchun poydevor yaratish maqsadida kiritiladi;

❖ Umumkasbiy fanlar bloki – bu blok kasbiy yo‘nalishga kirish bosqichini tashkil etadi. Uning tarkibida menejment, iqtisodiyot asoslari, statistika, huquq, marketing kabi fanlar mavjud bo‘lib, ular barcha talabalarga kasbiy asoslar bilan tanishishga yordam beradi;

❖ Ixtisoslik fanlari bloki – mazkur blokda talaba o‘zining tanlagan yo‘nalishi bo‘yicha chuqur mutaxassislik bilimlarini oladi. Bunda nazariy va amaliy mashg‘ulotlar, amaliyotlar, loyiha ishlari muhim o‘rin tutadi;

❖ Qo‘shimcha fanlar bloki – bu blokga turli tanlov fanlari, xorijiy tillar, kommunikatsion kompetensiyalar, IT ko‘nikmalari va zamonaviy texnologiyalar bo‘yicha fanlar kiritiladi. Talabaning kasbiy raqobatbardoshligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

Magistratura darajasidagi fan bloklari Magistratura bosqichidagi namunaviy o‘quv rejalar esa ikki asosiy blokdan iborat bo‘ladi:

❖ Ummetodologik fanlar bloki – bu fanlar ilmiy tadqiqotlar metodologiyasi, innovatsion yondashuvlar, ilmiy-analitik fikrlash va kreativ qarorlar qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan;

❖ Mutaxassislik fanlari bloki – mutaxassislik bo‘yicha chuqur nazariy va amaliy bilimlarni o‘z ichiga oladi. Mazkur fanlar orqali magistrantlar ilmiy izlanishlar olib borish, loyihalar ishlab chiqish va mustaqil kasbiy faoliyat yuritishga tayyorlanadi.

Har bir fan bloki tarkibida fanlar majburiy va tanlov fanlariga ajratiladi:

- Majburiy fanlar – bu fanlar Davlat ta’lim standartlari va malaka talablari asosida belgilangan bo‘lib, ular talaba tomonidan albatta o‘zlashtirilishi kerak.
- Tanlov fanlari – bu fanlar esa kadrlar buyurtmachilari, mehnat bozorining ehtiyojlari va oliy ta’lim muassasasining ilmiy salohiyati asosida taklif qilinadi. Talaba ushbu fanlarni o‘z kasbiy manfaatlariga mos ravishda tanlaydi.

Namunaviy o‘quv rejada majburiy fanlar bo‘yicha kreditlar aniq ko‘rsatiladi. Tanlov fanlari uchun esa kredit miqdori OTM tomonidan mustaqil belgilanadi, bu esa o‘quv dasturlarini moslashuvchan va dinamik qilishga xizmat qiladi.

Ishchi o‘quv rejalarni shakllantirish va ta’lim sifatini oshirishdagi roli Yo‘nalish va mutaxassisliklar bo‘yicha ishchi o‘quv rejalar ko‘p hollarda talabalar kontingenti va ularning shaxsiy o‘quv rejalari asosida ishlab chiqiladi. Bu yondashuv xarajatlarni optimallashtirishga, o‘quv resurslaridan samarali foydalanishga, o‘qituvchilarning yuklamasini to‘g‘ri taqsimlashga va talabalar ehtiyojlariga mos o‘quv jarayonini yaratishga yordam beradi.

Ishchi rejalarning katta kontingentga moslashtirilgan va kelgusidagi kasbiy faoliyatga yo‘naltirilgan tarzda ishlab chiqilishi o‘quv jarayonining umumiy samaradorligini oshiradi, real sektor bilan integratsiyani mustahkamlaydi va mehnat bozori bilan uyg‘unlikni ta’minlaydi.

Kredit birligi va o‘quv yuklamasi Kredit-modul tizimida o‘quv yuklamasi kreditlarda ifodalanadi. Kredit – bu o‘quv yuklamasining o‘lchov birligi bo‘lib, odatda, 30 akademik soatga teng bo‘ladi. Semestr davomiyligi 15 hafta bo‘lsa, har bir fan doirasidagi ta’lim yuklamasi – auditoriya va mustaqil ta’lim soatlari – 1:1 nisbatda belgilanadi. Bu

yondashuv talabaning bilim olishdagi faol ishtirokini oshirishga xizmat qiladi.

Har bir fan hajmi butun sonli kredit bilan ifodalanadi. O‘rtacha hisobda bir talabaning umumiy yuklamasi 240 kredit atrofida bo‘lsa, fanlar soni 40 tadan oshmasligi tavsiya etiladi. Bu esa o‘rtacha har bir fan uchun 6 kredit ajratilishini bildiradi. Biroq, fanlarning real yuklamasi va mazmunidan kelib chiqib, ularga ajratilgan kreditlar bundan ko‘p yoki kam bo‘lishi mumkin.

Ta’lim tizimida kredit asosidagi o‘quv rejalari va fan bloklarining ilmiy asosda shakllantirilishi ta’lim sifatini oshirishning eng muhim omillaridan biridir. Mazkur yondashuv orqali o‘quv yuklamasi balanslanadi, talabaning kasbiy tayyorgarligi chuqurlashtiriladi, fanlararo integratsiya kuchaytiriladi va yakuniy natijada raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash kafolatlanadi. Bu tizim ayni paytda talaba, o‘qituvchi va mehnat bozori o‘rtasidagi samarali aloqalarni mustahkamlovchi zamonaviy mexanizmga aylanmoqda.

Ishchi o‘quv rejalari tuzilmasi va ularning ta’lim sifatiga ta’siri Oliy ta’lim muassasalarida kredit-modul tizimi asosida ishlab chiqilayotgan o‘quv rejalari, xususan ishchi o‘quv rejalari, ta’lim jarayonining yuqori darajada tizimlashtirilgan, nazorat qilinadigan va sifatli tashkil etilishini ta’minlovchi muhim vositalardan biridir. Ishchi o‘quv rejalar fanlar kesimida mashg‘ulot shakllari, yuklama nisbatlari, ta’lim metodlari va baholash mezonlari orqali talabalarni kasbiy jihatdan puxta tayyorlashga qaratilgan.

Auditoriya mashg‘ulotlari nisbatlarini aniqlash Ishchi o‘quv rejalarida fanlar bo‘yicha auditoriya mashg‘ulotlari — ya’ni ma’ruza, amaliy, seminar, laboratoriya, yakka tartibdagi mashg‘ulotlar va boshqa shakllar — fanning o‘qitish uslubiga asoslangan holda belgilanadi. Bu nisbatlar oliy ta’lim muassasasining ilmiy-uslubiy kengashi tomonidan tuzilgan maxsus ekspert komissiyasi xulosasiga tayanilgan holda tasdiqlanadi.

Bunday yondashuv, ya’ni har bir fan uchun optimal mashg‘ulot shakllarining proporsiyasini belgilash:

- o‘quv yuklamasining talabaga va o‘qituvchiga nisbatan samarali taqsimlanishini,

- o‘rganilayotgan fan mazmunining chuqurroq anglanishini,

- nazariy va amaliy kompetensiyalar uyg‘un holda shakllanishini ta’minlaydi.

Fan nomlanishi va kodlash tizimi O‘quv rejalari shakllantirilganda har bir fan uchun betakror, o‘ziga xos nom belgilanishi lozim. Bu nom fan mazmuni, yo‘nalishi va kasbiy maqsadiga to‘liq mos kelishi kerak. Shu bilan birga, fanlarga lotin harflari va raqamlardan iborat yagona kodlash tizimi joriy etilishi zamonaviy talablarga mosdir.

Bunda kodlash quyidagi tamoyillar asosida amalga oshiriladi:

- Fan nomiga mos bir nechta lotin harfi asosida qisqartma (masalan, MATH – matematika, RESM – ilmiy tadqiqot metodologiyasi);

- Fan o‘qitiladigan kurs tartibini ifodalovchi raqamlar (masalan, 101 – birinchi kurs, birinchi modul);

- Kod xalqaro fanga oid nomlanishlarga yaqin bo‘lishi lozim.

Masalan:

“MATH203” – bu 2-kurs, 3-modulda o‘qitiladigan “Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika” fanini anglatadi;

“RESM101” – bu magistratura bosqichidagi “Ilmiy-tadqiqot metodologiyasi” faniga to‘g‘ri keladi.

Bu tizim ta’lim jarayonining raqamlashtirilgan, strukturaviy va xalqaro standartlarga moslashtirilgan holda boshqarilishini ta’minlaydi.

Fanlar soni va hajmiga qo‘yiladigan talablar Bakalavriat bosqichida fanlar soni kamroq, lekin yirik hajmli bo‘lishi maqsadga muvofiqdir. Bu yondashuv:

- talabalarga fanlarni chuqurroq o‘zlashtirish imkonini beradi;

- ko‘p sonli mayda fanlar o‘rniga yirik va kompleks yondashuvli modullar joriy etiladi;

- o‘quv yuklamasining ortiqcha parchalanishini oldini oladi.

Majburiy va tanlov fanlari nisbatini belgilashda quyidagi omillar e’tiborga olinadi:

- mutaxassislik bo‘yicha zarur tayyorgarlik darajasi;

- fanlar mazmuni va o‘zaro bog‘liqligi;
- yakuniy ta’lim natijalari va kompetensiyalar;
- xalqaro o‘quv reja tajribalari bilan uyg‘unligi.

Bu esa o‘quv dasturlarining moslashuvchanligi, amaliy yo‘naltirilganligi va xalqaro tan olinuvchanligini oshiradi.

Amaliyotlar va yakuniy bitiruv ishlari Kredit-modul tizimida barcha turdagi amaliyotlar va bitiruv malakaviy ishlari ta’lim dasturining ajralmas qismi hisoblanadi va umumiy kreditlar doirasida baholanadi.

Tavsiya etiladigan yondashuv quyidagicha:

- Bitiruv semestrida kasbiy va ishlab chiqarish amaliyoti uchun 15 kredit;
- Bitiruv malakaviy ishi yoki magistrlik dissertatsiyasi uchun yana 15 kredit ajratilishi maqsadga muvofiq.

Bu yondashuv talabalarning real sektor bilan aloqasini mustahkamlash, nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Shuningdek, Jismoniy tarbiya fani qo‘shimcha fanlar hisobida, sport seksiyalari shaklida tashkil etilishi mumkin. Bu bilan talabalarning sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga xizmat qilinadi.

Talabaning o‘quv yuklamasi va vaqt byudjeti Kredit-modul tizimida bakalavriat talabasining umumiy haftalik yuklamasi 60 akademik soatni tashkil etadi, shundan:

30 soat – auditoriya mashg‘ulotlari (ma’ruza, seminar, laboratoriya);

30 soat – mustaqil ta’lim, shu jumladan 8-14 soat o‘qituvchi rahbarligida olib boriladigan mustaqil ish.

Jadval asosida quyidagi hisob-kitob keltiriladi

1.3.1-jadval

Ko‘rsatkich	Miqdor
Nazariy ta’lim muddati	240 hafta
Har bir haftadagi umumiy yuklama	30+30 = 60 soat

Umumiy o‘quv soatlari (240×30)	7200 soat
Auditoriya mashg‘ulotlari (15×240)	3600 soat
Mustaqil ta’lim (15×240)	3600 soat

Bunday tizimli yondashuv orqali:

- Talaba vaqt byudjeti oqilona rejalashtiriladi;
- Mustaqil bilim olish ko‘nikmalari shakllanadi;
- O‘quv jarayoni shaffof va natijaviy bo‘lib boradi.

Yuqoridagi mexanizmlar asosida ishlab chiqilgan ishchi o‘quv rejalarining kredit-modul tizimi talablariga muvofiqligi, ular orqali auditoriya mashg‘ulotlari va mustaqil ta’lim nisbatlarining optimallashtirilishi, fanlarning yagona kodlash tizimi bilan belgilanishi, shuningdek, amaliyot va bitiruv ishlarining kredit tizimidagi o‘rni – bularning barchasi oliy ta’limda sifatni oshirish, raqobatbardosh mutaxassislarni yetishtirish va ta’lim jarayonining xalqaro integratsiyasini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi.

Talabaning shaxsiy o‘quv rejasi va uning ta’lim sifatiga ta’siri Kredit-modul tizimi doirasida ta’lim jarayonining muvaffaqiyatli tashkil etilishi ko‘p jihatdan talabaning shaxsiy o‘quv rejasi asosida shakllanadi. Shaxsiy o‘quv rejasi – bu har bir talabaga individual yondashuv asosida ta’lim olish imkoniyatini beruvchi asosiy hujjat bo‘lib, u o‘quv yilining boshlanishidan oldin talaba tomonidan edvayzer (maslahatchi professor yoki amaliyotchi mutaxassis) ko‘magida tuziladi.

Kreditlar va yuklama balansining optimal taqsimoti Kredit-modul tizimi talabaning bir semestr davomida o‘zlashtiradigan maksimal o‘quv yuklamasini aniq belgilab beradi. Jumladan, bir semestr uchun:

- 30 kredit hajmidagi fanlar to‘plami tavsiya etiladi (umumiy 240 kredit / 8 semestr = 30 kredit);
- Bu hajmda auditoriya mashg‘ulotlari va mustaqil ta’lim 1:1 nisbatda tashkil qilinadi, ya’ni 15 kreditlik darslar va 15 kreditlik mustaqil ish**.**

Bunday yondashuv orqali talaba:

- ortiqcha yuklamadan xoli bo‘lgan optimal o‘qish muhitiga ega bo‘ladi;

- mustaqil bilim olish va tahliliy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi;

- o‘zining o‘qish sur’ati va imkoniyatlarini hisobga olgan holda shaxsiy trayektoriya tuzadi.

Shaxsiy o‘quv rejasining tuzilishi va mazmuniy asoslari Talabaning shaxsiy o‘quv rejasini tuzishda asos sifatida namunaviy o‘quv reja (NOR) olinadi. NORda davlat ta’lim standartlari va malaka talablariga muvofiq bular majburiy fanlar professional va umumta’lim bloklari va tanlov fanlari kasbiy chuqurlashtirish, ixtisoslashtirish, ko‘nikmalarni diversifikatsiya qilishga qaratilgan keltiriladi.

Shaxsiy o‘quv rejasida bu fanlar ichidan talaba o‘z qiziqishlari, kasbiy rejalari, mehnat bozori ehtiyojlari va ish beruvchilarning talablarini hisobga olgan holda tanlov qiladi. Aynan shu omillar o‘quv rejaning mohiyatini individuallashtirishga xizmat qiladi.

Kompetensiya yondashuvi va bozor talabi uyg‘unligi

- SHO‘R tarkibiga kiradigan fanlar:

- talabaning umumiy savodxonligi;

- ijtimoiy-psixologik moslashuvi;

- iqtisodiy, tashkiliy va kasbiy kompetensiyalarining shakllanishiga xizmat qilishi lozim.

Masalan, texnik yo‘nalishdagi mutaxassislar uchun axborot texnologiyalari, muhandislik grafikasi va umumtexnik fanlar majburiy tarzda yoki tanlov blokida kiritilishi lozim. Bu fanlar talabaning keyingi kasbiy faoliyatida muvaffaqiyatli ishlashi uchun zarur bilim asosini yaratadi.

Shu bilan birga, SHO‘R orqali talaba xalqaro akademik mobillikka, xorijiy tillarni o‘zlashtirishga va boshqa oliy ta’lim muassasalarida o‘qishni davom ettirishga tayyorlanadi. Bu esa o‘zini ta’minlay oluvchi, mustaqil qaror qabul qila oladigan, mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassisni shakllantirish imkonini beradi.

Edvayzerlar instituti va metodik yondashuv Talabaning SHO‘R ni sifatli tuzishida edvayzer (maslahatchi)ning roli beqiyosdir. Oliy ta’lim muassasalari edvayzerlar xizmatini quyidagi tartibda yo‘lga qo‘yishlari maqsadga muvofiq, edvayzer sifatida mutaxassislik kafedralarining tajribali professor-o‘qituvchilari faoliyat olib borishi va ishlab chiqarish korxonalari bilan hamkorlikda amaliyotchi mutaxassislarni ham edvayzer sifatida jalb etish. Bu yondashuv talabaga:

- kasbiy rejalashtirishda puxta yondashish;
- fanlararo integratsiyani to‘g‘ri tushunish;
- individual rivojlanish trayektoriyasini aniq belgilash imkonini beradi.

O‘qituvchi tanlash va ochiqlik tamoyillari Kredit-modul tizimi asosida talaba nafaqat fanlarni, balki o‘qituvchini tanlash huquqiga ham egadir. Bu yondashuv ta’lim sifatini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Shuning uchun oliy ta’lim muassasalari tomonidan quyidagilar ta’minlanishi kerak:

Har bir fan bo‘yicha o‘qituvchilarning ilmiy darajasi, lavozimi va tajribasi haqida ochiq ma’lumotlar bazasi shakllantiriladi;

Talabalar tanloviga shaffoflik kiritish uchun o‘qituvchilar tomonidan ochiq ma’ruzalar haftasi o‘tkaziladi;

Fanlar har xil vaqtda o‘qitiladigan qilib darslar jadvallari moslashtiriladi, bu orqali talabaga erkin tanlash imkoni yaratiladi.

Bu tizim raqobatni kuchaytiradi, o‘qituvchilarning o‘z ustida ishlash motivatsiyasini oshiradi hamda talabalarga eng samarali o‘qituvchini tanlash orqali shaxsiy ta’lim sifatini oshirish imkonini beradi.

Shaxsiy o‘quv reja – bu talabaning bilim olishdagi erkinligi, mas’uliyati va mustaqilligini ifodalovchi asosiy vositadir. Kredit-modul tizimining bu mexanizmi:

- talabaning imkoniyatlarini maksimal darajada ishga solish;
- malakali kadrlar tayyorlashda mehnat bozorining real ehtiyojlariga moslashish;
- ta’limda individuallashtirish va raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiladi.

Demak, shaxsiy o‘quv rejalari va edvayzerlik tizimi orqali talabaning ta’lim trayektoriyasi ongli ravishda shakllantiriladi. Bu esa zamonaviy ta’lim sifatining eng muhim ko‘rsatkichlaridan biridir.

Oliy ta’lim muassasasida o‘quv yuklamalarini rejalashtirish va pedagogik me’yorlarni optimallashtirish orqali ta’lim sifatini oshirish Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini samarali tashkil etishning muhim jihatlaridan biri bu – o‘quv yuklamalari va professor-o‘qituvchilar shtatini rejalashtirishdir. Ayniqsa, kredit-modul tizimi sharoitida ushbu jarayon nafaqat akademik yuklamani adolatli taqsimlash, balki ta’lim sifatini oshirish, pedagoglarning kasbiy motivatsiyasini kuchaytirish va ta’lim muassasasining xalqaro reytinglardagi mavqeini mustahkamlash uchun ham strategik ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik yuklama me’yorlarini belgilash va zamonaviy talablarga moslashtirish Oliy ta’lim muassasasida o‘quv jarayonini rejalashtirishdan avval pedagogik yuklama me’yorlari aniqlashtirilgan bo‘lishi zarur. Ayni paytda bu me’yorlar Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan tavsiya etilgan holda amaliyotga tatbiq etilmoqda. Ammo global ta’lim muhitidagi tezkor o‘zgarishlar, raqobat kuchayishi va oliy ta’lim sifatiga qo‘yilayotgan yangi mezonlar pedagogik yuklamalarni qayta ko‘rib chiqish va ularga moslashuvchan yondashuvni talab qilmoqda.

Shu sababli, har bir oliy o‘quv yurti o‘zining strategik maqsadlari, professor-o‘qituvchilar salohiyati, o‘quvchi-talabalar kontingenti va reyting ko‘rsatkichlarini inobatga olgan holda yuklama me’yorlarini differensial asosda ishlab chiqishi maqsadga muvofiqdir. Bu esa o‘z navbatida quyidagi natijalarga erishish imkonini beradi:

- O‘qituvchining yuklamasi uning malaka va tajribasiga moslashtiriladi;

- Innovatsion ta’lim metodlari (masalan, “flipped classroom”, PBL) uchun vaqt ajratiladi;

- Professor-o‘qituvchilar ilmiy-tadqiqot ishlari va malaka oshirish faoliyatiga ko‘proq e’tibor qaratadi;

- Talabalar bilan individual ishlash sifati oshadi.

O‘quv yuklamalarini rejalashtirishda SHO‘R va ishchi o‘quv rejalarining roli

Oliy ta’lim muassasasida pedagogik yuklamalarni aniq rejalashtirish uchun asos sifatida:

Bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha tasdiqlangan ishchi o‘quv rejalari olinadi;

Har bir fan bo‘yicha ajratilgan kredit birligiga asosan yuklama aniqlanadi (1 kredit ≈ 15 akademik soat);

Yuklamaning taqsimoti: ma’ruza, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari, shuningdek mustaqil ishlar shaklida belgilanadi.

Bu yondashuv orqali kafedra miqyosida fanlar bo‘yicha umumiy yuklama hajmi, uni bajarayotgan pedagoglar soni, kerakli lavozimlar soni va shtat birliklari hisob-kitob qilinadi. Shu bilan birga, ortiqcha yuklama yoki resurslarning noto‘g‘ri taqsimlanishiga barham beriladi.

Kredit-modul tizimida akademik potoklar va guruhlar shakllanishi Kredit-modul tizimi sharoitida o‘quv yuklamalari va guruhlar quyidagi tamoyillar asosida shakllantiriladi talabalar kontingenti fanlarga yozilish orqali aniqlanadi, fan tanlash jarayoni ochiq va raqamlashtirilgan shaklda tashkil etilishi maqsadga muvofiq. Akademik potoklar va guruhlar fanni tanlagan talabalar soni asosida shakllanadi. Masalan:

- Ma’ruza uchun 60 nafargacha talabani bitta potokka;
- Amaliy mashg‘ulotlar uchun 25-30 nafargacha talabani bitta guruhga;
- Laboratoriya mashg‘ulotlari uchun esa 10-15 nafar talabani ajratish mumkin.

Bu jarayon o‘quv haftasining birinchi kunlarida talabalar tanlovi asosida olib boriladi, keyin esa akademik guruhlar rasmiylashtiriladi. Ushbu yondashuv:

- Talabaning o‘zlashtirish darajasini oshiradi;
- O‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi muloqotni samarali qiladi;
- O‘qituvchining yuklamasini adolatli taqsimlashga imkon yaratadi.
- O‘qituvchining lavozimlari va yuklama turlari o‘rtasidagi bog‘liqlik

Professor-o‘qituvchilar shtat birliklarini aniqlashda ularning lavozimi, pedagogik yuklama hajmi va fan turiga ko‘ra taqsimot alohida e’tiborga olinadi. Kredit-modul tizimining joriy etilishi bilan quyidagicha lavozimlar ierarxiyasi moslashtiriladi:

- Professor – ko‘p hollarda magistratura va bitiruvchi kurslar uchun ma’ruza, magistrantlarga ilmiy rahbarlik, ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish;
- Dotsent – bakalavriat fanlarining nazariy va amaliy qismini o‘qitish, ilmiy metodik ishlar;
- Katta o‘qituvchi – amaliy, laboratoriya mashg‘ulotlari, yakuniy nazorat ishlari;
- Assistent – mustaqil ta’limga rahbarlik, oraliq nazorat va talaba portfellarini baholash.

Mazkur taqsimot o‘qituvchining yuklama hajmi, fan sifati va natijadorlik ko‘rsatkichlarini bevosita ta’sir etuvchi omil sifatida e’tiborga olinadi.

Kredit-modul tizimida o‘quv yuklamalarini rejalashtirish va pedagogik yuklama me’yorlarini optimallashtirish:

- oliy ta’lim muassasasining strategik rivojlanish yo‘nalishlari bilan uzviy bog‘liq;
- ta’lim jarayonining moslashuvchanligini, individuallashgan yondashuvini va samardorligini oshiradi;
- professor-o‘qituvchilarning mehnat faoliyatini muvozanatlash hamda ta’lim sifatini oshirishning asosiy vositalaridan biri hisoblanadi.

Shu bois, oliy ta’lim muassasalari o‘z pedagogik me’yorlarini zamonaviylashtirish, o‘quv yuklamalarini aniq rejalashtirish va talabalarning ehtiyojlariga mos individual trayektoriyalarni ta’minlash orqali xalqaro miqyosdagi raqobatbardosh ta’lim sifatiga erishishlari mumkin. Oliy ta’lim muassasalarida o‘quv yuklamalarini rejalashtirish, professor-o‘qituvchilar shtat birliklarini shakllantirish va ta’lim sifatini ta’minlashning tizimli yondashuvlari Kredit-modul tizimi asosida faoliyat yuritayotgan oliy ta’lim muassasalarida o‘quv yuklamalarini puxta rejalashtirish, professor-o‘qituvchilar tarkibini asosli shakllantirish va ta’lim jarayonini samarali tashkil etish orqali sifat

ko‘rsatkichlarini oshirish muhim strategik vazifalardan biridir. Bunda, o‘quv yuklamasi va pedagogik shtat o‘rtasidagi nisbatni aniqlash, yuklamani diferensial asosda taqsimlash, pedagogik faoliyatni rejalashtirish va moddiy-texnik hamda metodik ta’minotni takomillashtirish asosiy e’tiborni talab etadi.

O‘quv yuklamasi va o‘rtacha yuklama ko‘rsatkichi Oliy o‘quv yurti doirasida mavjud umumiy o‘quv yuklamasi hajmining professor-o‘qituvchilar soniga nisbati bitta pedagogga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha yuklamani belgilaydi. Ushbu o‘rtacha yuklama asosida universitet yoki institut miqyosida pedagogik shtat birliklari aniqlanadi. An’anaviy yondashuvga ko‘ra, jami o‘quv yuklamasi o‘rtacha yuklamaga bo‘linadi va natija 0,25 birlik aniqlik bilan yaxlitlanadi. Bu yondashuv oliy ta’lim muassasasining real ehtiyojlariga moslashtirilgan holda shtat siyosatini shakllantirish imkonini beradi. Yuklamani lavozimlar bo‘yicha diferensial taqsimlash O‘qituvchilar yuklamasini ularning lavozim darajasi bo‘yicha farqlangan holda taqsimlash – ta’lim sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan muhim mexanizmdir. Jumladan:

- ❖ Professor – ilmiy-tadqiqot ishlari, magistratura va bitiruv kurslaridagi ma’ruza, rahbarlik vazifalari;
- ❖ Dotsent – bakalavr va magistratura bosqichida nazariy va amaliy mashg‘ulotlar;
- ❖ Katta o‘qituvchi – asosan amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari;
- ❖ Assistent – mustaqil ishlar, oraliq nazorat, yozma ishlarga rahbarlik.

Mazkur yondashuv o‘qituvchining malakasi va tajribasiga mos yuklama taqsimlash orqali nafaqat mehnat samaradorligini, balki ta’lim jarayonining barqarorligini ham oshiradi.

Mutaxassislik fanlari bo‘yicha yuklama va fan soni Bir semestr davomida to‘liq shtatda ishlovchi bir nafar o‘qituvchiga to‘g‘ri keladigan fanlar soni o‘rtacha 3–6 ta oralig‘ida bo‘lishi tavsiya etiladi. Bu ko‘rsatkich:

- O‘qituvchining bilim va malakasini chuqurroq yo‘naltirishga;
- Fanlararo integratsiyani ta’minlashga;

- Talabalarga sifatli bilim berishga xizmat qiladi.

Ushbu yondashuv fanlar sonini ko‘p qilib yuklash emas, balki chuqur va puxta ta’lim berish tamoyiliga asoslanadi.

O‘qituvchining umumiy yuklamasiga quyidagi faoliyat turlari kiradi:

- Auditoriya mashg‘ulotlari (ma’ruza, amaliy, laboratoriya);
- Talabaning mustaqil ishlari bo‘yicha rahbarlik (kurs ishi, bitiruv ishi, magistrlik dissertatsiyasi, hisob ishi);
- Magistratura bosqichida ilmiy-pedagogik faoliyatga rahbarlik;
- Mavjud standartlar asosida malakaviy amaliyotlarga rahbarlik;
- Oraliq va yakuniy nazorat ishlari, baholash va metodik ta’minot tayyorlash.

Yuqoridagi tarkib o‘qituvchi faoliyatining keng qamrovli ekanini ko‘rsatadi. Shuning uchun o‘quv yuklamalarini hisoblashda kompleks yondashuv zarur.

O‘quv yilini rejalashtirish va jadval tuzish Akademik yilni to‘g‘ri rejalashtirish o‘qituvchilar va talabalar uchun aniq, barqaror va sifatli ta’lim jarayonini tashkil etish imkonini beradi. Jadval tuzishda quyidagilarga e’tibor qaratiladi:

- Dars yuklamalari hafta davomida muvozanatli va teng taqsimlanishi;
- O‘qituvchilar faoliyati ortiqcha yuklamalardan holi bo‘lishi;
- Talabalar uchun psixologik va fiziologik yuklamani inobatga olgan holda vaqtlar tanlanishi;

Jadval nusxalarining elektron va bosma shaklda kafedra, fakultet va veb-platformalarda e’lon qilinishi.

Bunday yondashuv orqali ta’lim jarayonida ochiqlik va shaffoflik tamoyillari ta’minlanadi.

O‘quv jarayonini tashkil qilish va metodik ta’minot O‘quv jarayonini tizimli tashkil etish uchun quyidagi hujjatlar va materiallar ishlab chiqilishi shart:

- Talabalar uchun yo‘riqnomalar kredit tizimi, baholash mezonlari, fanlar tanlash tartibi;

- Fanlar bo‘yicha silabuslar (ishchi dasturlar) har bir kreditga nisbatan o‘quv yuklamasi va baholash me’zonlari;

- Auditoriya mashg‘ulotlari uchun o‘quv materiallari ma’ruza matnlari, amaliy topshiriqlar, interfaol materiallar;

- Mustaqil ta’lim materiallari uy vazifalari, testlar, kurs ishi mavzulari, o‘z-o‘zini baholash vositalari;

- Baholash materiallari testlar, yozma topshiriqlar, imtihon savollari;

- Amaliyot uchun hujjatlar amaliyot dasturi, kundalik, hisoboti shakllari;

- Masofaviy o‘quv resurslari elektron platformalar, interaktiv dasturlar, forumlar, video-lektsiyalar.

Ushbu metodik baza mavjud bo‘lishi ta’lim sifatini oshirishda asosiy kafolatlovchi omil hisoblanadi, oliy ta’lim muassasasida o‘quv yuklamalarini rejalashtirish, shtat birliklarini ilmiy asoslangan tarzda shakllantirish va zamonaviy metodik ta’minotni joriy qilish orqali ta’lim jarayonining sifati, samaradorligi va raqobatbardoshligi sezilarli darajada oshadi. Bu esa nafaqat milliy darajadagi, balki xalqaro standartlarga javob beradigan mutaxassislar tayyorlashning muhim sharti hisoblanadi.

Kredit-modul tizimi asosida faoliyat yuritayotgan oliy ta’lim muassasalarida talabalarning mustaqil ta’limga yo‘naltirilganligi va fan tanlash erkinligi ularning akademik mas’uliyatini kuchaytirish, o‘zlashtirish darajasini oshirish, shuningdek, shaxsiy ta’lim trayektoriyasini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, fanlarga yozilish va o‘qituvchini tanlash jarayoni nafaqat tashkiliy, balki pedagogik va psixologik jihatdan ham mukammal rejalashtirilishi lozim. Akademik maslahat va yo‘naltirish tizimi Talabalar fan tanlash jarayonida fakultet dekani nazorati**,** edvayzer (akademik murabbiy) maslahatlari asosida harakat qiladilar. Edvayzer talabaning akademik salohiyati, qiziqishlari, karyera rejalarini inobatga olgan holda unga fanlar, modullar, ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha tavsiyalar beradi. Ushbu tizim o‘qituvchi va talaba o‘rtasida muloqotni faollashtirib, individuallashtirilgan ta’lim yondashuvini shakllantirishga asos bo‘ladi.

Fanlarga yozilishning tartibga solingan mexanizmi Registpатор ofisi (RO) tomonidan fanlarga yozilish jarayoni quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

Birinchi bosqich (avgust oyida):

❖ O‘qishga yangi qabul qilingan talabalar dekantdan o‘z yo‘nalishi bo‘yicha 1-kurs uchun tasdiqlangan ishchi o‘quv rejasini olishadi.

❖ Edvayzer bilan maslahatlashgan holda talabalar fanlarni tanlaydi, va bu tanlov asosida shaxsiy o‘quv reja shakllantiriladi.

❖ O‘qishning birinchi haftasi davomida talaba tanlagan fanlar bo‘yicha dars mashg‘ulotlariga tashrif buyurib, o‘qituvchilarning pedagogik uslubi, fan mazmuni, baholash mezonlari bilan tanishadi.

Shu haftaning yakunida fan va o‘qituvchi tanlovi bo‘yicha yakuniy qaror qabul qilinadi va bu asosda talabaning shaxsiy o‘quv rejasi tasdiqlanadi. Ushbu rejaga keyinchalik o‘zgartirish kiritishga ruxsat etilmaydi.

Keyingi semestrlarda (noyabr va aprel):

a) Talabalar kelgusi semestr uchun fan tanlovini amalga oshiradi.

b) Shaxsiy o‘quv rejaga kiritilgan har qanday o‘zgarishlar talabalar tomonidan imzolanadi va RO ga rasmiylashtirilgan holda taqdim etiladi.

c) O‘qituvchilar yuklamasini va guruh hajmini muvofiqlashtirish

d) Registartor ofisi va fakultetlar bilan hamkorlikda:

e) Har bir fan bo‘yicha minimal talabalar soni belgilanadi (masalan, kamida 8–10 nafar).

f) Har bir o‘qituvchiga maksimal guruh hajmi aniqlanadi (masalan, 25–30 nafar talabagacha).

Agar tanlov fani yetarli miqdorda talabalar tomonidan tanlanmasa, u holda:

Fan yopiladi, va RO bu haqda bir hafta muddatda fakultet veb-sahifasida va axborot oynasida e’lon beradi. Ushbu fanga yozilgan

talabalar bir hafta ichida yangi fan tanlashi, o‘z shaxsiy o‘quv rejasini yangilashi va RO ga rasmiy ariza orqali taqdim qilishi lozim bo‘ladi.

Agar aksincha, fan uchun belgilangan maksimal son oshib ketsa:

— Dekanat tomonidan ikkinchi akademik potok (oqim) shakllantiriladi.

— Tegishli malakaga ega bo‘lgan o‘qituvchilar tayinlanadi.

— Talabalar yozilish navbatiga ko‘ra yangi oqimlarga taqsimlanadi.

— Bu yondashuv orqali guruhlar sonining me’yoriy muvozanati va o‘qituvchilar yuklamasining teng taqsimlanishi ta’minlanadi.

Birinchi kurs talabalari yangi ta’lim tizimiga tez va ongli moslashishi uchun:

15–25 avgust kunlari davomida Registartor ofisi, edvayzerlar, Axborot-resurs markazi (ARM) mutaxassislari tomonidan uslubiy va maslahat ishlari tashkil qilinadi. Ushbu faoliyatlar doirasida talabalarga kredit-modul tizimi, baholash tizimi, fan tanlash tartibi, shaxsiy o‘quv rejalar bilan ishlash bo‘yicha seminar-treninglar o‘tkaziladi. Fan tanloviga asoslangan shaxsiy o‘quv rejalarining ahamiyati shundaki, fan tanlovi yakunlangach fakultet dekani tomonidan talabalar shaxsiy o‘quv rejasi tasdiqlanadi. Hamda ushbu hujjatlar asosida ishchi o‘quv rejalar ishlab chiqiladi, o‘quv yuklamalari, dars jadvali, moddiy va moliyaviy xarajatlar hisoblab chiqiladi.

Agar talaba o‘z shaxsiy o‘quv rejasini belgilangan vaqtda RO ga topshirmasa, unda:

U uchun yo‘nalish bo‘yicha tasdiqlangan ishchi o‘quv reja asos bo‘lib olinadi va avtomatik ravishda tatbiq etiladi.

Kredit-modul tizimining asosi bo‘lgan fan tanlovi va o‘qituvchi tanlash mexanizmi oliy ta’lim tizimida talabaning mustaqilligini, javobgarligini, shaxsiy rivojlanish trayektoriyasini ta’minlashga xizmat qiladi. Bu tizimda har bir bosqich — fan tanlash, edvayzer maslahati, jadval tuzish, yuklama rejalashtirish, guruh shakllantirish — ta’lim sifatini oshirish va talabalarni faol, raqobatbardosh mutaxassis qilib tayyorlashga qaratilgan bo‘lishi lozim.

Talabaning shaxsiy ta’lim trayektoriyasini shakllantirishda fanlararo izchillik prerekvizit va postrekvizitlar va yozgi semestrning o‘rni Kredit-modul tizimi asosida faoliyat yuritayotgan oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayoni talabaning shaxsiy ehtiyojlari, qiziqishlari va karyera rejalari asosida individual ta’lim trayektoriyasini shakllantirish imkonini beradi. Bu jarayonda tanlanadigan fanlar o‘zaro izchil va mantiqan bog‘langan bo‘lishi, ya’ni prerekvizit va postrekvizit tamoyillariga asoslanishi talab etiladi. Mazkur yondashuv ta’lim sifatini ta’minlashda muhim metodik vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Fanlararo izchillikni ta’minlash: prerekvizit va postrekvizit tizimi Har bir fan uchun prerekvizit ya’ni ushbu fanni o‘zlashtirish uchun zarur bo‘lgan oldingi fanlar va postrekvizit ushbu fan asosida kelgusida o‘rganilishi lozim bo‘lgan fanlar aniq belgilab berilishi lozim. Bu tizim orqali:

a) Talaba tanlayotgan fan bo‘yicha yetarli tayyorgarlikka ega bo‘lishi kafolatlanadi;

b) O‘qitish sifati oshadi, fanlararo integratsiya kuchayadi;

c) Akademik yuklama izchil va mantiqan uzluksiz taqsimlanadi;

d) Talabaning shaxsiy ta’lim trayektoriyasi ilgarilash prinsipiga asoslangan holda shakllantiriladi.

Shu sababli, talaba tanlayotgan fanining prerekvizitlari to‘liq o‘zlashtirilgan bo‘lishi shart. Aks holda, bu fanni tanlash huquqiga ega bo‘lmaydi. Shu bilan birga, talabaning o‘zi tanlagan fan kelgusida qaysi fanlar uchun poydevor bo‘lishini (postrekvizit) ham bilishi muhimdir. Bu orqali u o‘zining ta’lim trayektoriyasini ongli ravishda rejalashtira oladi. Kredit-modul tizimi doirasida yozgi semestr ta’lim tizimining ajralmas tarkibiy qismi bo‘lib, u talabalarga o‘zlashtirilmagan fanlarni qayta o‘rganish, qo‘shimcha bilim olish yoki ta’lim dasturlaridagi farqlarni bartaraf etish imkonini beradi. Yozgi semestr talabaning tashabbusi asosida, asosan pullik shaklda tashkil etiladi. Bu holat, o‘z navbatida, talabaning ta’limga nisbatan mas’uliyatini kuchaytiradi va uzluksiz o‘qish jarayonini ta’minlaydi.

Yozgi semestrga ruxsat etiladigan holatlar Yozgi semestrda o‘qish imkoniyati quyidagi toifadagi talabalarga taqdim etiladi:

1. Yuqori baholarga ega talabalar B yoki undan yuqori reyting bilan o‘qiyotgan – qo‘shimcha fanlarni o‘zlashtirish orqali o‘z bilim doirasini kengaytirish uchun;
2. Imtihonlarga qo‘yilmagan talabalar fanni to‘liq o‘zlashtirishi uchun;
3. Akademik qarzga ega bo‘lgan talabalar qarzlarini yopish imkoniyati uchun;
4. Tiklangan, o‘qishni ko‘chirgan va akademik ta’tildan qaytgan talabalar fanlar orasidagi farqlarni qoplash uchun.

Shuningdek, yozgi semestrga ruxsat berishda talabaning GPA (Grade Point Average) darajasi inobatga olinadi:

- GPA 3.0 va undan yuqori bo‘lgan talabalar – to‘rt tagacha fan o‘rganishi mumkin;
- GPA 2.0 dan 3.0 gacha bo‘lgan talabalar – uch tagacha fanni o‘zlashtirish huquqiga ega bo‘ladi.
- Yozgi semestrni tashkil etish tartibi va baholash tizimi

Yozgi semestr quyidagi reglament asosida tashkil etiladi talaba yozgi semestr boshlanishidan avval Registartor ofisiga ariza bilan murojaat qiladi, unda o‘qishga bo‘lgan ehtiyojini va qiziqishini asoslaydi, RO talabalarning arizalarini ko‘rib chiqadi va bahorgi semestr yakunida yozgi semestrga qabul qilish to‘g‘risida qaror qabul qiladi, hamda RO yozgi semestr uchun fanlar bo‘yicha dars jadvalini tuzadi, bu jadval o‘qituvchilarning mavjudligi va ixtisoslashuviga qarab belgilanadi va talaba to‘lovni amalga oshirganidan so‘ng, yozgi semestr jadvali prorektor tomonidan tasdiqlanadi. Yozgi semestr doirasidagi mashg‘ulotlar amaldagi baholash tizimi joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar asosida olib boriladi. Yakuniy baholash yozgi semestrda dars bergan lektor va tyutorlar tomonidan amalga oshiriladi. Yozgi semestrda o‘zlashtirilgan fanlar bo‘yicha baholar talabaning keyingi o‘quv yilidagi GPA ko‘rsatkichiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. RO talabalarning to‘lovlari o‘z vaqtida amalga oshirilishini nazorat qiladi va moliyaviy hisobot yuritadi.

Yozgi semestrning tashkil etilishi orqali:

- Talabalarga individual ta’lim trayektoriyasini davom ettirishga imkoniyat yaratiladi;
- Akademik izchillik ta’minlanadi va bilim bo‘shliqlari bartaraf etiladi;
- O‘zlashtirish darajasi pasaygan talabalar qo‘shimcha o‘quv yordami oladi;
- Oliy ta’lim tizimida sifatli, erkin va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv mustahkamlanadi.

Kredit-modul tizimining amalda muvaffaqiyatli ishlashi uchun talabaning fan tanlash jarayonida prerekvizit va postrekvizitlar asosida ongli qaror qabul qilishi zarur. Yozgi semestr esa, ta’limdagi uzluksizlikni ta’minlovchi, akademik farqlarni yo‘qotuvchi va ta’lim sifatini oshiruvchi muhim modul sifatida xizmat qiladi. Bu tizimlar birgalikda talabaning akademik erkinligini ta’minlaydi, uning o‘zlashtirish darajasini oshiradi va oliy ta’lim muassasasida raqobatbardosh mutaxassislar yetishtirishga xizmat qiladi

Kredit-modul tizimida pedagoglar va akademik faoliyat turlari: ta’lim sifatini oshirish omili sifatida kredit-modul tizimi oliy ta’limda sifatni oshirishning zamonaviy tashkiliy-pedagogik modeli sifatida e’tirof etilmoqda. Mazkur tizimda o‘quv jarayonining ishtirokchilari, ayniqsa, pedagog xodimlarning roli va ularning akademik faoliyat shakllari tubdan o‘zgarib, yangilanishni talab qilmoqda. Shu boisdan, pedagoglarning an’anaviy vazifalari bilan bir qatorda, ularga yangi akademik funksiyalar yuklanmoqda.

Kredit-modul tizimida pedagog quyidagi akademik faoliyat subyektlari sifatida ishtirok etadi:

1. Lektor (lecturer) nazariy bilimlarning berilishi, fanlar bo‘yicha ilmiy-nazariy asoslarni yoritadi;
2. Tyutor (tutor) amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarini olib boradi, talabalarning fan bo‘yicha egallagan bilimlarini chuqurlashtirishda rahbarlik qiladi;
3. Edvayzer (advisor) talabalarning akademik rivojlanishi, individual o‘quv rejasini tuzish va shakllantirishda maslahat beruvchi

rolini bajaradi;

4. Komissiya a’zosi (academic committee member) o‘quv rejalari, mustaqil ishlar sifatini baholash, ta’lim metodik materiallarni ishlab chiqish va monitoring qilishda faol ishtirok etadi.

Lektorlik faoliyati, odatda, professor yoki dotsent ilmiy unvoniga ega, ilmiy-metodik jihatdan malakali pedagoglar zimmasiga yuklanadi. Ma’ruza mashg‘ulotlari akademik potoklar uchun tashkil qilinib, bir nechta guruhlardagi talabalar bilan amalga oshiriladi. Shu bilan birga, har bir ma’ruza mashg‘uloti doirasida talabalar mustaqil ta’limini tashkil etishga 0,5-1 soat vaqt ajratish tavsiya qilinadi, bu esa ta’limning interfaol, talabaga yo‘naltirilgan shaklini kuchaytiradi.

Tyutor – fan o‘qituvchisi sifatida laboratoriya va amaliy mashg‘ulotlarni olib borib, talabaning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtiradi. Shuningdek, u mustaqil ta’limni tashkil qiladi, kurs ishlariga rahbarlik qiladi, ishlab chiqarish va o‘quv amaliyotini muvofiqlashtiradi. Tyutor o‘z faoliyatida quyidagi sifatlarga ega bo‘lishi kerak:

1. Pedagogik kompetentlik – talabalarni mustaqil ishlashga undash, ularga yo‘naltirilgan metodik yondashuvlarni qo‘llash;

2. Maslahat berish mahorati – guruhli va individual konsultatsiyalar orqali bilimlarni mustahkamlashga yordam berish;

3. Ta’lim menejmenti – talaba faoliyatini boshqarish, ularni fanni o‘zlashtirish bo‘yicha nazorat qilish.

Tyutorning asosiy vazifasi – talabaning shaxsiy o‘sishiga, akademik faolligiga va o‘quv motivatsiyasining uzluksizligini ta’minlashga yo‘naltirilgan.Edvayzer (advisor) – talabaning butun ta’lim jarayonida akademik yo‘nalishini aniqlash, o‘zlashtirish darajasini monitoring qilish, fanlar tanlovi va individual o‘quv rejalarini tuzishda maslahat beruvchi asosiy shaxsdir. U quyidagi funksiyalarni bajaradi:

1. Talabalarga o‘quv rejasini tanlashda maslahat berish;

2. Shaxsiy o‘quv trayektoriyasini belgilashda yordam ko‘rsatish;

3. Akademik monitoring va reyting bo‘yicha komissiyalar

ishida qatnashish;

4. Bitiruv ishi mavzularini tanlash va kasbiy amaliyot bazalarini aniqlashda ko‘maklashish.

5. Edvayzerlar rektor buyrug‘i asosida fakultet dekani va kafedra mudiri bilan kelishilgan holda tayinlanadi.

Kredit-modul tizimining xorijiy tajribasida keng qo‘llaniladigan qo‘shimcha akademik rollar fasilitator**,** modarator va supervayzer ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim o‘rin tutadi:

1. Fasilitator guruh ichida muloqot va ijtimoiy o‘zaro ta’sirni rivojlantiruvchi, muammoli vaziyatlarda yechim topishga yo‘naltiruvchi shaxs;

2. Modarator seminar, davra suhbatlari va treninglarni boshqaruvchi, intizom va fikr almashinuvini ta’minlovchi pedagog;

3. Supervayzer bir vaqtning o‘zida pedagog, metodist, ekspert va maslahat beruvchi rolini bajarar ekan, talabaning umumiy ta’lim strategiyasini shakllantirishda ko‘maklashadi.

Ushbu faoliyat turlarining joriy etilishi ta’lim jarayonining sifat ko‘rsatkichlarini sezilarli darajada yaxshilaydi.

Kredit-modul tizimida o‘quv rejalari, ishchi o‘quv dasturlari va mustaqil ishlar sifatini boshqarish maqsadida turli komissiyalar faoliyati muhim o‘rin tutadi. Xususan:

1. O‘quv rejalari bo‘yicha komissiya fanlar ro‘yxatini shakllantirish, prerekvizitlarni aniqlash, yo‘nalishlar bo‘yicha o‘quv rejalarni ishlab chiqadi;

2. Ishchi o‘quv dasturlari komissiyasi fanlar bo‘yicha dasturlar sifatini tahlil qilish, ularning metodik asoslarini takomillashtirish bilan shug‘ullanadi;

3. TMI (talabaning mustaqil ishi) nazorati komissiyasi mustaqil ishlar sifati, muddati va nazorat shakllarining takomillashuvini ta’minlaydi.

Komissiyalarning faoliyatini samarali tashkil qilish orqali oliy ta’limda ta’lim sifatining oshishiga erishiladi.

2.2. Kredit-modul tizimini kamchiliklari va muammolari. SWOT tahlil

SWOT tahlil, Kredit-modul tizimi (KMT)

2.2.1-jadval

Kuchli tomonlari (S – Strengths)	*Zaif tomonlari (W – Weaknesses)*
Talabalarga fanlarni va kurslarni tanlashda erkinlik beradi.	Talabalarda yuklama ortadi, stress kuchayadi.
Moslashuvchan o‘quv rejalarini yaratish imkonini beradi.	O‘qituvchilarni yangi tizimga moslashtirish qiyinchilik tug‘diradi.
Mustaqil ta’lim va shaxsiy javobgarlikni rivojlantiradi.	Bilimlarni yuzaki o‘zlashtirishga olib kelishi mumkin (ko‘p modullar tufayli).
Baholash tizimi reyting asosida aniqroq bo‘ladi.	Moliyaviy, texnik va infratuzilmaviy resurslar yetishmasligi tizimni sekinlashtiradi.
Talabalarning o‘ziga xos qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.	Universitetlar o‘rtasida kreditlarning muvofiqlashtirilmasligi akademik mobillikni qiyinlashtiradi.
Imkoniyatlar (O – Opportunities)	*Tahdidlar (T – Threats)*
Xalqaro tajribalarni joriy etish orqali ta’lim sifatini oshirish.	Noto‘g‘ri joriy etilsa, rasmiyatchilik kuchayib, natijadorlik pasayadi.
Raqamli texnologiyalarni keng qo‘llash imkoniyati.	Talabalarning tayyorgarligi va IT-savodxonlik darajasidagi farqlar.
Talabalar uchun moslashtirilgan va mehnat bozoriga yo‘naltirilgan ta’lim.	O‘qituvchilar qarshiligi va malaka yetishmovchiligi.
Akademik mobillikni rivojlantirish va chet el bilan integratsiya.	Baholashning subyektivligi va sifatga emas, kvantitativ ko‘rsatkichlarga yo‘naltirilish xavfi.

Kredit-modul tizimi zamonaviy ta’lim talablariga mos, individual yondashuv va shaxsiy rivojlanishga imkon beruvchi tizimdir. Biroq, uni muvaffaqiyatli joriy etish uchun:

- moliyaviy va infratuzilmaviy tayyorgarlik,
- o‘qituvchilar malakasini oshirish,
- baholash tizimini takomillashtirish,
- byurokratik yukni kamaytirish talab etiladi.

Kredit-modul tizimining afzalliklari va kamchiliklari: zamonaviy o‘quv texnologiyasining ikki qirrasi So‘nggi yillarda O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida xalqaro standartlarga mos ravishda o‘quv jarayonini tashkil etishga bo‘lgan e’tibor kuchaymoqda. Ayniqsa, kredit-modul tizimiga (KMT) o‘tish orqali talabalarning o‘quv mustaqilligini oshirish, o‘zlashtirishni individuallashtirish va akademik harakatchanlikni ta’minlashga erishilmoqda. Mazkur tizimning joriy etilishi, bir tomondan, o‘quv jarayonini moslashuvchanlashtirish, ikkinchi tomondan esa, uning to‘g‘ri va sifatli amalga oshirilishini ta’minlashda qator muammolarni ham yuzaga keltirmoqda.

Kredit-modul tizimining asosiy afzalliklari bu kredit-modul tizimi bir qancha ijobiy jihatlarga ega bo‘lib, ularni quyidagi asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha tizimlashtirish mumkin:

1) Individuallashtirilgan ta’lim trayektoriyasi talaba o‘zining qiziqishlari, bilim darajasi va istiqboldagi rejalari asosida mustaqil fanlar tanlovi orqali o‘ziga xos o‘quv rejasini shakllantiradi;

2) Talabaga yo‘naltirilgan yondashuv o‘quv jarayoni markaziga talaba qo‘yilib, u mustaqil o‘rganish, tahlil qilish, tanqidiy fikrlash va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi;

3) Modullik printsipi o‘quv fanlari aniq mavzular (modullar) asosida strukturalashadi va har bir modul yakunida oraliq yoki yakuniy nazoratlar o‘tkaziladi;

4) Akademik harakatchanlik imkoniyati kreditlar tizimi xalqaro moslashtirishni ta’minlab, talabalar boshqa mamlakatlardagi oliy ta’lim muassasalarida o‘qishni davom ettirish imkoniyatiga ega bo‘ladi;

5) Shaffof va reyting asosidagi baholash tizimi baholash ko‘rsatkichlari aniq mezonlarga asoslangan bo‘lib, subyektivlik darajasi kamaytiriladi.

Yuqoridagi afzalliklar talabaning o‘zlashtirish jarayonini optimallashtiradi, professor-o‘qituvchilarning mas’uliyatini oshiradi va ta’lim muassasasida sifat menejmenti tizimini shakllantirishga xizmat qiladi.

Kredit-modul tizimining afzalliklari bilan bir qatorda, uni amaliyotda joriy etish mobaynida yuzaga kelayotgan muammolar va

kamchiliklar ham mavjud. Bu jihatlar talabalarning, o‘qituvchilarning va o‘quv jarayonini boshqaruvchi mexanizmlarning tayyorgarligi bilan bog‘liqdir.

Ukraina, Qozog‘iston va O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida olib borilgan tadqiqotlar asosida aniqlangan asosiy kamchiliklar quyidagilardan iborat:

1. O‘quv fanlari bo‘yicha yagona talablar va standartlarning yetarlicha ishlab chiqilmagani – bu holat talabalarda chalkashlik, noaniqlik va bilimlarning sinchkovlik bilan baholanmasligi xavfini yuzaga keltiradi;
2. Pedagoglarning kredit-modul tizimiga tayyorgarligi yetarli emasligi o‘qituvchilarning ayrimlari yangi tizimning mohiyatini to‘la anglab yetmagani sababli, ularning faoliyati samaradorligi pasayadi;
3. Kreditlarning to‘g‘ri taqsimlanmaganligi ayrim fanlarga ortiqcha yoki yetarlicha kredit ajratilmasligi natijasida ta’lim yuklamasida nomutanosiblik vujudga keladi;
4. Talabalarga yuklama ortiqligi SRS talabaning mustaqil ishlari, nazariy ma’ruza, laboratoriya va amaliy mashg‘ulotlar o‘rtasidagi muvozanatning yo‘qligi ta’lim sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

So‘rovnoma asosida aniqlanishicha, talabalarning 75 foizi o‘qituvchilar bilan bevosita amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarida ko‘proq ishlashni istashadi. 42 foiz talaba amaliy mashg‘ulotlar, 33 foiz – laboratoriya mashg‘ulotlar sonini ko‘paytirishni ma’qul ko‘radi, faqatgina 4 foiz talaba SRS yuklamasining oshirilishini qo‘llab-quvvatlaydi. Bu esa kredit yuklamasining noadekvat taqsimlanayotganini anglatadi.

Shuningdek, talabalarning 11 foizi o‘quv jarayonida o‘qituvchilarning yangi tizimga moslashmasligi va baholash mezonlarining noaniqligi ularning samarali o‘qishlariga to‘sqinlik qilayotganini qayd etgan.

Toshkentdagi yirik oliy ta’lim muassasalarida o‘tkazilgan empirik so‘rov natijalari quyidagi natijalarni ko‘rsatdi ya’ni, talabalarning 72 foizi kredit-modul tizimiga ijobiy baho bergan bo‘lsa, 12 foizi salbiy

munosabat bildirgan va 16 foizi esa betaraf yoki hali qaror qilmagan holatda bo‘lgan.

O‘quv jarayonini tashkil etish darajasi talabalarning 89 foizi tomonidan “qoniqarli”, 4 foizi tomonidan “mukammal”, 8 foizi tomonidan esa “qoniqarsiz” deb baholangan. Bu raqamlar shuni ko‘rsatadiki, kredit-modul tizimi o‘zining afzalliklari bilan birga, hali hal qilinishi zarur bo‘lgan tizimli masalalarni ham o‘z ichiga oladi. Jumladan:

- O‘qituvchilarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish;
- Yagona metodik materiallar bazasini shakllantirish;
- Sifatli baholash mezonlarini joriy etish;
- Yuklamalarni ilmiy asosda optimallashtirish zarur.

Kredit-modul tizimidagi amaliy muammolar va talaba qarashlari asosidagi tahlil

Kredit-modul tizimi ta’lim jarayonini modernizatsiya qilish yo‘lida muhim bosqich hisoblanadi. Biroq, amaliyotda tizimning samaradorligini belgilovchi asosiy mezon – bu bevosita talabalar va pedagoglar tomonidan bildirilgan fikr va mulohazalardir. Keng qamrovli ijtimoiy-pedagogik so‘rovlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, KMTning ayrim muhim jihatlari hali-hanuz o‘zini oqlamayapti yoki maqsadga muvofiq amalga oshirilmayapti.

Talaba-o‘qituvchi o‘zaro munosabatlarining zaiflashuvi, so‘rovnoma natijalariga ko‘ra, KMTning 47 foiz asosiy kamchiliklari talaba bilan o‘qituvchining individual ishlashi ehtimolini pasaytirayotgani bilan bog‘liq. Bu esa o‘z navbatida o‘quv jarayonida sifatli interaktiv yondashuvlar, mentorlash, ilmiy qiziqishlarni rivojlantirish imkoniyatlarini cheklaydi. O‘qituvchi bilan yuzma-yuz muloqotlar kamaygani sari, ta’lim sifati va talabaning shaxsiy rivojlanish sur’atlari ham susayadi.

Modul boshqaruvi, ijodkorlik va differensial yondashuv muammolari ya’ni, respondentlarning 18 foizi modul boshqaruvi bilan bog‘liq kamchiliklarni tan olgan bo‘lsa, 14 foizi KMT sharoitida talabalar ijodiy salohiyatini rivojlantirish imkoniyatlari cheklanganini bildirgan.

Mazkur holat KMTning hozirgi amalda “o‘rtacha talaba” modeliga yo‘naltirilgani va iqtidorli talabalar bilan individual ishlash imkoniyatlari yetarlicha ta’minlanmayotganidan dalolat beradi. Natijada, iqtidorli talabalar “standart” baholash mezonlari doirasida o‘z imkoniyatlarini to‘la namoyon eta olmaydilar.

Parazitizm va akademik adolat muammosi bunda, so‘rovda qatnashgan talabalar 62 foizi KMT doirasida kuchli talabalar zimmasiga ko‘proq yuklama tushishini va bu holat “passiv” talabalar tomonidan ekspluatatsiya (ya’ni parazitlash) qilish holatlariga olib kelishini bildirgan va 30 foiz talaba esa bu fikrga qo‘shilmay, bunday holatlarni inkor etgan.

Mazkur tafovutlar KMTdagi guruhiy baholash elementlarining noaniq tartibga solinganligini, kuchli talabalar zimmasiga qo‘shimcha yuklama tushayotganini ko‘rsatadi.

Baholash tizimi va uning talaba ongidagi qabul qilinishida KMT doirasidagi baholash tizimi haqida quyidagi fikrlar bildirilgan bu yerda 35% talaba KMTni adolatli baholash imkoniyati sifatida e’tirof etgan, 11% bu tizim orqali bilimlar oshishini qayd etgan hamda 10% akademik guruhda salbiy ruhiy muhit shakllanishi mumkinligini aytgan.

Bu ko‘rsatkichlar KMT baholash tizimi nisbatan shaffof va obyektiv bo‘lishiga qaramay, hali ham salbiy holatlarni bartaraf etish uchun qo‘shimcha chora-tadbirlar zarurligini anglatadi.

Majburiy imtihonlar va baholash shakllari bo‘yicha qarashlarga kredit-modul tizimi doirasida fanlar bo‘yicha majburiy imtihonlar o‘tkazilishiga ma’lum bo‘ldiki 77% talaba ijobiy munosabat bildirgan, 7% esa befarq yoki salbiy fikrda bo‘lgan. Bu natijalar shuni ko‘rsatadiki, talabalar baholashning majburiy shakllarini ma’qullaydilar va bu uslub ta’limga mas’uliyatli yondashuvni kuchaytiradi.

Sinov topshiriqlari samaradorligida “Test topshiriqlari talabaning bilimini qanchalik aks ettiradi?” degan savolga quyidagi javoblar olingan va 30% – ha, to‘liq aks ettiradi, 48% – qisman, 22% – yo‘q, to‘liq baho bermaydi.

Yana bir savol – “Birinchi bosqichda test topshiriqlari nimani tekshiradi?” 49% – bilim darajasini, 33% – amaliy ko‘nikmalarni, 18% – ijodiy faoliyatni deb baholagan. Bu natijalar test shaklidagi baholashlar, ayniqsa ijodiy va analitik fikrlashni baholashda samarasiz ekanini ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, yopiq va ochiq test topshiriqlariga munosabatda 45% talabalar fikricha, yopiq shakldagi testlar bilimlarni aniq ifodalaydi, agar barcha elementlar inobatga olingan bo‘lsa, 37% talabalar esa ochiq shakldagi topshiriqlar orqali bilimlar yaxshiroq sinovdan o‘tishini bildirgan va 18% test shakli muhim emasligini bildirgan.

Talabalarning 65 foizi bitta to‘g‘ri javobni tanlashga asoslangan oddiy test variantlariga javob berishni oson deb biladi, qolganlari esa ko‘p variantli, moslashtirish, yoki to‘g‘ri ketma-ketlikdagi topshiriqlarni murakkabroq, ammo bilimni chuqurroq sinovchi uslublar sifatida baholashgan.

Kredit-modul tizimi xalqaro standartlarga mos yondashuv bo‘lishiga qaramay, uni amaliyotga to‘liq singdirishda qator tizimli kamchiliklar mavjud:

- o‘qituvchilar va talabalar o‘rtasidagi individual muloqot kamaymoqda;
- iqtidorli talabalarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi mexanizmlar zaif;
- testlar ijodkorlik va amaliy bilimlarni to‘la baholay olmaydi;
- baholash adolati va akademik yuklamalar muvozanati ta’minlanmagan.

Shu asosda, KMT samaradorligini oshirish uchun baholash tizimini diversifikatsiya qilish, o‘qituvchilar malakasini oshirish, fanlar bo‘yicha modullarning sifatini yaxshilash va talabalar fikrini doimiy monitoring qilish zarur.

O‘qitish metodikasi va pedagogik texnologiyalar nazariyasining modulli ta’limdagi ahamiyati

Zamonaviy ta’lim jarayoni natijaviylikka, samaradorlikka va o‘quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirishga yo‘naltirilgani bois,

o‘qitish metodikasi va pedagogik texnologiyalar muhim nazariy-amaliy omil sifatida e’tirof etiladi. Ayniqsa, daromadlar pedagogikasi nuqtayi nazaridan qaralganda, metodika va texnologiya o‘rtasidagi farq yanada chuqurroq ilmiy asosga ega bo‘lib, u o‘qitish jarayonining qanday uslubiy asosda tashkil etilishini aniqlaydi.

O‘qitish metodologiyasi – bu ma’lum bir fanni o‘qitish jarayonida qo‘llaniladigan didaktik yondashuvlar, vositalar, shakllar va usullarning tizimi bo‘lib, o‘qituvchining amaliy pedagogik faoliyatida nazariya bilan amaliyot o‘rtasida ko‘prik vazifasini bajaradi. Bu metodikaning samaradorligi ko‘plab omillarga bog‘liq bo‘lib, eng asosiylaridan biri bu o‘qituvchining kasbiy mahorati, didaktik bilimlari va interfaol yondashuvlarga tayangan holda darsni tashkil etish qobiliyatidir.

O‘qitish metodikasi ko‘pincha pedagogik texnologiyalarning asosiy unsuri sifatida namoyon bo‘ladi. Biroq, metodika bilan texnologiya o‘rtasidagi asosiy farq ularning jiddiylik darajasida va tizimlilik xususiyatida ko‘rinadi. Shu bois, so‘nggi yillarda pedagogik texnologiya tushunchasiga yangicha yondashuv shakllanib bordi.

Pedagogik texnologiyaning zamonaviy talqini Pedagogik texnologiya – bu ta’lim jarayonini ilmiy asoslangan holda loyihalashtirish, amalga oshirish va nazorat qilish faoliyatidir. U ta’lim jarayonining barcha bosqichlarida aniq va kafolatli natijalarni olishga xizmat qiluvchi tizimli yondashuvdir. Bu jarayonda quyidagi mezonlarning bajarilishi pedagogik texnologiyaning mukammalligini belgilaydi:

1. Maqsadga muvofiqlik – o‘quv jarayonida belgilangan didaktik maqsadlarning aniq, ravshan va izchil ishlab chiqilganligi.
2. Kontseptual asoslanganlik – chuqur o‘ylangan, ilmiy asoslangan didaktik nazariyaga tayanishi.
3. Tizimlilik – ta’lim jarayonining barcha komponentlari (maqsad, mazmun, metod, vosita, natija) yagona tizimda faoliyat yuritishi.
4. Diagnostiklik – o‘quv faoliyatining boshlang‘ich, oraliq va yakuniy natijalarini baholash imkoniyati (miqdoriy va sifat jihatidan).
5. Sifat kafolati – bilimlarni egallash darajasining minimum

70% (assimilyatsiya koeffitsienti 0.7) dan yuqori bo‘lishi zarurligi.

6. Innovatsionlik – zamonaviy pedagogika, psixologiya, axborot texnologiyalari va multimedia vositalari yutuqlariga tayanishi.

Pedagogik texnologiyalar o‘qituvchini oddiy “ko‘rsatma beruvchi shaxs” sifatida emas, balki o‘quv faoliyatining tizimli tashkilotchisi va dizayneri sifatida ko‘radi. Shu sababli, ularni an’anaviy o‘qitish metodikasidan farqli tarzda baholash zarur.

Modulli ta’lim va pedagogik texnologiyalar uyg‘unligi Modulli o‘qitish tizimi zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida shakllangan bo‘lib, u o‘quv jarayonini modul nomli mustaqil o‘quv bloklariga ajratadi. Har bir modul talabaning o‘zlashtirish sur’atini hisobga olgan holda, uning bilim darajasiga mos, differensial va individual yondashuvga asoslangan shaklda tashkil etiladi.

Modul bu o‘quv elementlarining standartlashtirilgan yig‘indisi bo‘lib, u quyidagi komponentlarni o‘z ichiga oladi:

- o‘quv maqsadi;
- nazariy materiallar;
- amaliy topshiriqlar;
- oraliq nazorat shakllari;
- yakuniy baholash mezonlari.

Modulli ta’lim nazariyasi dunyo miqyosida ko‘plab olimlar, jumladan, M.A. Choshanov, M.V. Klarin, S.Ya. Batishev, Yutzavichen, A.I. Kamyashenkov kabi mutaxassislar tomonidan ishlab chiqilgan. Jumladan, A.I. Kamyashenkov modulni maxsus didaktik to‘plam sifatida talqin qiladi. Bu modulda o‘qitish strategiyasi, bilim manbalari, nazorat vositalari va o‘zlashtirishni mustahkamlash mexanizmlari mujassam bo‘ladi.

Modulli o‘qitishda pedagogik texnologiyalarning qo‘llanilishi quyidagi afzalliklarni beradi:

- o‘quvchini o‘z-o‘zini baholashga va o‘z ustida ishlashga yo‘naltiradi;
- ta’lim sifati bo‘yicha aniqlik va shaffoflikni ta’minlaydi;
- o‘qituvchining baholashdagi subyektivligini kamaytiradi;

- iqtidorli va sust o‘zlashtiruvchi talabalar uchun moslashtirilgan yondashuvni ta’minlaydi.

O‘qitish metodikasi va pedagogik texnologiyalar modulli ta’lim tizimi doirasida uzviy bog‘langan. Agar metodika o‘qituvchining darsdagi yondashuvi va harakatlarining tizimi bo‘lsa, pedagogik texnologiya bu – boshqariladigan, nazorat qilinadigan va takrorlanuvchi o‘quv jarayonining mexanizmidir. Shu bois, zamonaviy ta’limda pedagogik texnologiyalarning modulli yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirilgan holda qo‘llanilishi, o‘qituvchining kasbiy mahoratini yangi bosqichga olib chiqadi va ta’lim sifatining kafolatini kuchaytiradi.

Zamonaviy oliy ta’lim tizimida ta’lim sifatini oshirish, samarali o‘quv faoliyatini tashkil etish va talabalarning mustaqil o‘rganish kompetensiyalarini rivojlantirishda modulli o‘qitish tizimi muhim o‘rin egallaydi. Ushbu tizimda asosiy e’tibor o‘quv faoliyatini modul deb ataluvchi mustaqil o‘quv birliklari asosida tashkil etishga qaratiladi. Har bir modulda o‘quv jarayonining to‘laqonli amalga oshirilishi uchun zarur bo‘lgan barcha pedagogik va metodik resurslar mujassam bo‘ladi.

Modulli ta’lim tizimining tarkibiy qismlari L.V. Korupova va T.I. Shamov tomonidan ishlab chiqilgan ilmiy yondashuvga asosan, o‘quv moduli quyidagi asosiy komponentlardan tashkil topadi:

1) Aniq shakllantirilgan o‘quv maqsadlari – modulning pedagogik natijalarini belgilovchi, mezonli va aniqlashtirilgan maqsadlar.

2) Zarur materiallar va vositalar ro‘yxati – laboratoriya uskunalari, texnik vositalar, o‘quv adabiyotlari va boshqa zarur resurslar.

3) Tegishli o‘quv elementlari va fanlararo aloqalar – modul tarkibidagi mavzularni boshqa fanlar bilan uzviy bog‘liqligini aks ettiruvchi tarkib.

4) Ta’lim materiallari – ma’ruzalar matni, asosiy tushunchalar, grafik materiallar, sxemalar va nazariy ma’lumotlar.

5) Amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari uchun metodik ko‘rsatmalar – talabalarda kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirishga

qaratilgan bosqichma-bosqich uslubiy yondashuvlar.

6) Baholash va teskari aloqani tashkil qilish shakllari – testlar, yozma ishlar, amaliy topshiriqlar, keys-stadi va boshqa nazorat shakllari.

7) Elektron darsliklar va axborot-multimediyaviy ta’minot – masofaviy ta’lim yoki raqamli nazoratda qo‘llaniladigan interaktiv vositalar.

Bu tarkibiy elementlar qat’iy, statik bo‘lmasdan, o‘qitilayotgan fan, ta’lim darajasi, talabalar tayyorgarligi va o‘qituvchining tajribasiga qarab moslashuvchan tarzda shakllantiriladi. Demak, modul – bu didaktik, metodik va texnologik jihatdan yaxlit, adaptiv ta’lim bo‘lagidir.

Modullarning shakllanish mezonlari Odatda, bir semestrlik ma’ruza kursi (40–50 soat) 10–12 ta modul asosida tuziladi. Har bir modul:

- fanning asosiy mavzusi yoki muammosiga qaratiladi;
- bir yoki bir nechta fanlararo tushunchalarni integratsiyalaydi;
- mustaqil o‘rganiladigan tarkibiy qism sifatida ishlaydi.

Modulda o‘quv maqsadlariga erishish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va kompetensiyalar aniq bayon qilinadi. Bu esa o‘quv jarayonining shaffofligini, aniqligini va baholanish imkonini ta’minlaydi.

Modulli o‘qitishning afzalliklari Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, modulli ta’lim tizimi an’anaviy tizimga nisbatan ko‘plab ustunliklarga ega. Jumladan:

- Metodik uyg‘unlik va tizimlilik – o‘quv jarayonining barcha bosqichlari (tayyorgarlik, o‘qitish, nazorat, tahlil) metodik jihatdan muvofiqlashtirilgan bo‘ladi.
- Moslashuvchanlik – modul tarkibi, murakkabligi va hajmi bozor ehtiyojlari, mehnat bozori dinamikasi hamda talabalar qobiliyatiga qarab o‘zgarishi mumkin.
- Fanlararo integratsiya – alohida o‘quv fanlari o‘rtasida tematik va mantiqiy bog‘liqlikni shakllantiradi (M.A. Choshanovning differensial-integrativ yondashuvi asosida).

- Talabaning faolligini oshirish – modulda talabaga mustaqil ishlash, o‘zini baholash va o‘zlashtirish sur’atini belgilash imkoniyati beriladi.
- Kasbiy yo‘naltirish – har bir modul real kasbiy vazifalarni yechishga yo‘naltirilgan topshiriqlardan iborat bo‘ladi.

Modulli o‘qitish tizimining muammolari va kamchiliklari Shunga qaramay, modulli ta’limni joriy etishda bir qator tizimli muammolar mavjud:

- Modullarni ishlab chiqishning murakkabligi – har bir modul uchun alohida metodik qo‘llanma, nazorat tizimi, baholash mezonlari tayyorlanishi kerak bo‘ladi.
- Tashkiliy qayta tuzilish zarurati – an’anaviy o‘quv jarayoni modulli formatga moslashtirilishi uchun auditoriya fondi, guruhlar soni va jadval qayta ko‘rib chiqilishi lozim.
- Uslubiy ta’minotning yetishmasligi – har bir modul uchun sifatli darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar, laboratoriya topshiriqlari mavjud emasligi amaliyotda muammo tug‘diradi.
- Axborot texnologiyalaridan foydalanish zaruriyati – baholash natijalarini tezkor va obyektiv qayta ishlash uchun avtomatlashtirilgan test tizimlari va axborot tizimlari talab qilinadi.

Shuningdek, har bir o‘qituvchining modullarni mustaqil ishlab chiqishi zarurati ularning yuklamasini oshirib, sifatga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu bois, modul asosida o‘qitishni yo‘lga qo‘yishda institut darajasida yagona metodik platformani ishlab chiqish muhim hisoblanadi.

Modulli o‘qitish tizimi zamonaviy oliy ta’limda talabaning faolligini, mustaqil fikrlash qobiliyatini, kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi innovatsion-pedagogik model sifatida qaralmoqda. Bu tizimda o‘qituvchining roli o‘quv ma’lumotini beruvchidan ko‘ra, o‘quv faoliyatini loyihalovchi va yo‘naltiruvchi muhandis roliga o‘zgaradi. Shu bois, modulli o‘qitish nafaqat didaktik, balki tashkiliy-uslubiy va texnologik jihatdan ham puxta tayyorgarlikni talab qiladi. Uning to‘liq joriy etilishi esa zamonaviy ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqadi.

Oliy ta’lim tizimining zamonaviy rivojlanish bosqichida an’anaviy va innovatsion yondashuvlarning uyg‘unlashuvi ta’lim samaradorligini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Ayniqsa, kredit-modul tizimining bosqichma-bosqich joriy etilishi ta’lim jarayonining liberallashuvi, moslashuvchanligi va natijaga yo‘naltirilganligini ta’minlashga qaratilgan. Biroq bu tizimni amalga oshirishda qator pedagogik, tashkiliy, texnologik va psixologik muammolar mavjudligi kuzatilmoqda:

1. O‘qituvchilar va talabalarning qarshiliklari ya’ni kredit-modul tizimi ko‘plab o‘qituvchilar tomonidan o‘quv jarayonining murakkablashuvi sifatida idrok etilmoqda. Modulli kurslarni yaratish, yangi metodik materiallar tayyorlash, baholash tizimlarini yangilash o‘qituvchilardan yuqori tashkiliy va ilmiy-metodik salohiyatni talab etadi. Bu esa, an’anaviy tizimga o‘rganib qolgan pedagoglar uchun psixologik va kasbiy moslashuvda muammolar keltirib chiqaradi. Talabalar esa o‘z o‘quv yukini mustaqil rejalashtirish, doimiy baholash va faollik asosida o‘qishga jalb etilish kabi tamoyillarga moslashishda qiyinchiliklarga duch keladi. Ular orasida passiv o‘rganishga ko‘nikkan, faqat yakuniy imtihon natijasiga tayanadiganlar borligi bu tizimda muvaffaqiyatsizlik xavfini kuchaytiradi;

2. O‘quv yukining ortishi va stress omili bu kredit-modul tizimi an’anaviy yakuniy nazoratga asoslangan tizimdan farqli ravishda, uzluksiz baholash, topshiriqlarni semestr davomida bajarish va talabaning o‘quv jarayoniga faol jalb etilishini talab etadi. Bu esa talabalar uchun o‘quv yukining ortishiga olib keladi. Ayniqsa, vaqtni mustaqil rejalashtirish va topshiriqlarni o‘z vaqtida bajara olish ko‘nikmasi yetarli bo‘lmagan talabalar doimiy psixologik bosim ostida qoladilar. Bunday sharoitda o‘quv yukining muvozanatli taqsimlanishi bir tomondan yakuniy imtihon oldidan haddan tashqari bosimning oldini olsa-da, boshqa tomondan o‘zini boshqarish va motivatsiyani yuqori darajada saqlashni talab qiladi;

3. Bilimlarning yuzaki egallanishi xavfi kredit-modul tizimi o‘z mohiyatiga ko‘ra, belgilangan muddat ichida yetarli miqdorda kreditlar to‘plashni talab qiladi. Bu esa ayrim hollarda talabalarni faqat minimal

talablarni bajarishga, modullarni “yopish” orqali rasmiy natijaga erishishga intilishlariga sabab bo‘ladi. Natijada chuqur bilim olish va kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirish emas, balki rasmiy bahoni olish asosiy maqsadga aylanadi. Bu esa bilim sifatining pasayishiga olib kelishi mumkin;

4. Pedagogik va metodik tayyorgarlik darajasining pastligi bunda, kredit-modul tizimining muvaffaqiyatli joriy etilishi, avvalo, yuqori darajadagi metodik ta’minot, o‘qituvchilarning zamonaviy o‘quv yondashuvlariga tayyorligi va baholash tizimlarining takomillashganligini talab qiladi. Afsuski, amaliyotda malakali o‘qituvchilar sonining cheklanganligi, tayyor uslubiy materiallar bazasining sust rivojlangani, darsliklar va qo‘llanmalar modul talablariga to‘liq javob bermasligi, kabi omillar bu tizimning samarasini pasaytiradi.

5. Tashkiliy-texnologik cheklovlar kredit-modul tizimi samarali ishlashi uchun raqamli infratuzilma, elektron boshqaruv tizimlari va kreditlarni hisoblashning avtomatlashtirilgan mexanizmlari mavjud bo‘lishi lozim. Ammo kreditlarni hisoblashdagi xatoliklar, axborot tizimlarining nosozligi, elektron o‘quv platformalarining yo‘qligi yoki to‘liq ishlamasligi, kabi holatlar kredit-modul tizimining mohiyatini buzib, boshqaruvdagi chalkashliklar va noroziliklarga sabab bo‘ladi.

6. Akademik harakatchanlikdagi cheklovlar Boloniya jarayonining asosiy tamoyillaridan biri bo‘lgan akademik harakatchanlik kredit-modul tizimi orqali erishilishi lozim. Biroq amaliyotda turli oliy ta’lim muassasalari kreditlarni hisoblashda har xil yondashuvlardan foydalanadi. Bu esa talabaning bir universitetdan boshqasiga o‘tishini murakkablashtirib, tizimning moslashuvchanligiga putur yetkazadi.

7. Moliyaviy resurslar cheklanganligi yangi tizimni joriy etish uchun raqamli texnologiyalarni joriy etish, o‘qituvchilarni qayta tayyorlash, o‘quv dasturlarini moslashtirish uchun molyaviy sarmoya talab qilinadi. Barcha oliy o‘quv yurtlarining bu kabi xarajatlarni o‘z zimmasiga olishi esa oson emas. Bu holatda ayrim universitetlarda tizimning qisman va sifatsiz joriy etilishiga va resurslar

yetishmovchiligi sababli reformalarning surunkali kechikishiga olib keladi.

8. Talabalarga bo‘lgan ta’siri: motivatsiya va moslashuv kredit-modul tizimi o‘quv jarayonini yangicha asosda tashkil qilish orqali talabalar motivatsiyasini oshiradi, chunki ular kurslarni tanlash, kreditlarni to‘plash va o‘z o‘quv yukini rejalashtirishda faol ishtirok etadilar. Shu bilan birga haddan tashqari o‘quv yukining ortishi, doimiy baholash tizimi, yuqori tashkiliy bosim va ularni ruxiy zo‘riqish (stress) holatiga olib kelishi mumkin. Natijada, o‘rganishga bo‘lgan ichki motivatsiya o‘zgarib, rasmiy natijalarni olishga yo‘naltirilgan tashqi motivatsiyaga aylanadi. Bu esa chuqur bilim olish jarayoniga salbiy ta’sir qiladi.

Kredit-modul tizimining joriy etilishi oliy ta’lim sifatini oshirishda muhim omil bo‘lsa-da, uning samarali ishlashi uchun pedagogik, tashkiliy va texnologik jihatdan puxta tayyorgarlik zarur. Talabalar va o‘qituvchilarni yangi tizimga moslashtirish, zarur infratuzilmalarni shakllantirish, baholash tizimlarini takomillashtirish va psixologik qarshiliklarni bartaraf etish kredit-modul tizimining muvaffaqiyat kalitidir. Aks holda, bu tizim o‘z oldiga qo‘yilgan maqsadlarga erisha olmaydi va an’anaviy tizimdagi kamchiliklar yangicha ko‘rinishda namoyon bo‘lishi mumkin.

Kredit-modul tizimini joriy etishdagi ma’muriy to‘siqlar va ularning ta’lim sifatiga ta’siri Kredit-modul tizimi bugungi kunda O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida bosqichma-bosqich joriy etilayotgan muhim islohotlardan biridir. U ta’lim jarayonini dinamik, natijaga yo‘naltirilgan va talabaning mustaqil o‘quv faoliyatini kuchaytiruvchi mexanizm sifatida e’tirof etilmoqda. Biroq, ushbu tizimning samarali faoliyat yuritishi nafaqat texnik va metodik bazaning mavjudligiga, balki ma’muriy-huquqiy sharoitlarning qulayligiga ham bevosita bog‘liqdir. Amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, ma’muriy byurokratik to‘siqlar va moliyaviy resurslarning cheklanganligi bu jarayonni jiddiy darajada sekinlashtirmoqda yoki uni murakkablashtirmoqda.

Kredit-modul tizimini joriy etish universitetlarda o‘quv rejalari va dasturlarining tubdan qayta ko‘rib chiqilishini, kreditlar asosida modul

tuzilmalarini ishlab chiqishni, o‘quv yukini kredit tizimi doirasida qayta taqsimlashni talab qiladi. Bu esa o‘z-o‘zidan byurokratik tasdiqlash bosqichlarining ortishi**,** qaror qabul qilishdagi sustkashlik va moslashuvchanlikning yetishmasligi muammolarini yuzaga keltiradi. Jumladan:

- Har bir yangi modul yoki kurs dasturini tasdiqlash ko‘plab instansiyalar orqali amalga oshirilmoqda;
- O‘quv jarayonini moslashtirishga oid tashabbuslar, tegishli ruxsatlarsiz amalga oshirilmaydi;
- Innovatsion yondashuvlar ko‘pincha mavjud me’yoriy-huquqiy hujjatlar bilan muvofiqlashtirilmagani sababli rad etiladi yoki kechiktiriladi.

Bu holatlar kredit-modul tizimining mohiyatiga zid tarzda, uning asosiy printsiplari bo‘lgan avtonomiya**,** moslashuvchanlik va tezkor yangilanish tamoyillarini zaiflashtiradi.

Kredit-modul tizimini joriy etish texnik, metodik va inson resurslari bilan ta’minlash bo‘yicha muayyan sarmoyani talab qiladi. Jumladan:

- raqamli infratuzilmani rivojlantirish (LMS, kredit hisoblash tizimlari, elektron jurnal va portallar);
- o‘qituvchilar va ma’muriy xodimlar uchun qayta tayyorlov va malaka oshirish kurslari;
- o‘quv-resurs bazasini modul talablariga moslashtirish (darsliklar, qo‘llanmalar, videodarslar, test bazalari);

ammo amaliyotda ushbu xarajatlarning katta qismi yetarli darajada moliyalashtirilmagan. Natijada:

- mavjud texnologiyalar eskirgan yoki funksional jihatdan to‘liq ishlamaydi;
- kredit tizimlarini yurituvchi elektron platformalar to‘liq integratsiyalashmagan;
- professor-o‘qituvchilar uchun metodik ko‘mak va rag‘batlantirish tizimi yetarli emas.

Bu esa kredit-modul tizimining texnik asoslariga putur yetkazib, uning formallashuviga va sifatsiz amalga oshirilishiga olib keladi.

Kredit-modul tizimining ta’lim sifatiga bo‘lgan ta’siri ziddiyatli va ko‘p qirrali bo‘lib, uni har ikki yo‘nalishda — ijobiy va salbiy oqibatlar doirasida ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Ijobiy jihatlar:

- O‘quv jarayoni moslashuvchan va talabaning shaxsiy ehtiyojlariga yo‘naltirilgan bo‘ladi;
- Talabalar o‘z o‘quv yuklarini rejalashtirish, mustaqil ravishda o‘rganish va o‘zlashtirishda faolroq bo‘ladi;
- Modulga asoslangan tizim maqsadga yo‘naltirilgan baholash (outcome-based education) asosida natijadorlikni oshiradi;
- Doimiy nazorat orqali oraliq bilimlar muntazam aniqlanadi va orqada qolish holatlari erta aniqlanishi mumkin.

Biroq tizimdagi ba’zi mexanizmlarning noto‘g‘ri ishlashi yoki puxta tayyorgarliksiz joriy etilishi quyidagi salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin:

- Yuzaki o‘zlashtirish doimiy nazoratga asoslangan baholash tizimi ayrim talabalarni fanni chuqur tushunishdan ko‘ra, topshiriqlarni qisqa muddatli eslab qolish orqali yakunlashga undaydi;
- Rasmiy yondashuv ustunligi kreditlarni yig‘ish jarayoni rasmiylashtirish va minimal talablarni bajarishga yo‘naltirilgan bo‘lib qoladi;
- Stress va ruhiy charchoq uzluksiz topshiriqlar, oraliq baholashlar, vaqt taqchilligi — bularning barchasi talabalar orasida stress, demotivatsiya va ruhiy zo‘riqish holatlarini keltirib chiqaradi;
- Motivatsiyaning pasayishi mazmunli o‘rganish o‘rniga baho olishga qaratilgan tashqi motivatsiya ustuvor bo‘lib qoladi, bu esa ta’lim sifatining pasayishiga olib keladi.

Kredit-modul tizimi, albatta, zamonaviy ta’limning raqobatbardoshligi va talabaga yo‘naltirilganlik darajasini oshiradi. Ammo bu tizimning muvaffaqiyatli joriy etilishi nafaqat texnologik va metodik tayyorgarlik, balki byurokratik soddalashtirish va moliyaviy qo‘llab-quvvatlash bilan chambarchas bog‘liqdir. Shuningdek, tizimni joriy etishda inson omili — ya’ni, o‘qituvchi va talabalarni yangi yondashuvlarga moslashtirish, ularni ruhiy va psixologik jihatdan tayyorlash, eng muhim omillardan biri sifatida qaralishi lozim.

Shunday qilib, kredit-modul tizimi o‘zini to‘liq namoyon etishi uchun uni institutsional islohotlar**,** resurslar bilan ta’minlash va inson kapitalini rivojlantirish bilan birgalikda joriy etish zarur.

Kredit-modul tizimining zaif tomonlari va tahdidlari: o‘qituvchilar va talabalar qarshiligi, moliyalashtirish, byurokratiya

Kredit-modul tizimi (KMT) bugungi global ta’lim muhiti talablariga mos ravishda ishlab chiqilgan bo‘lib, talabaning mustaqil o‘quv faoliyatini, o‘qituvchining fasilitatorlik rolini kuchaytirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida ushbu tizimni joriy etish jarayoni qator zaif jihatlar va real tahdidlar bilan to‘qnash kelmoqda.

Quyida KMTning amaliyotda uchrayotgan asosiy muammolari tahlil qilinadi:

1. Bilimni yuzaki o‘zlashtirish xavfi KMTning asosiy tamoyillaridan biri — o‘quv jarayonini modullarga bo‘lish va oraliq baholash tizimi orqali nazoratni kuchaytirishdir. Ammo amaliyotda bu talabalarni chuqur bilim olishdan ko‘ra, topshiriqlarni qisqa muddatda bajarish va baho olishga yo‘naltirmoqda. Ko‘plab talabalar uchun:

✓ modulni yopish mezonlariga erishish — o‘rganishdan ko‘ra ustuvor vazifa bo‘lib qolmoqda;

✓ reproduktiv yondashuv (eslab qolish – qaytarish) dominanta bo‘lib, analitik, tanqidiy va kreatif fikrlash ko‘nikmalari zaif rivojlanmoqda.

Natijada, KMT talabalarni amaliyotga yo‘naltirilgan, hayotiy kompetensiyalar bilan qurollangan mutaxassis sifatida emas, balki baho yig‘uvchi ijrochilar sifatida shakllantirib qo‘yish xavfini tug‘dirmoqda.

2. Talabalar o‘quv yukining oshishi va ruhiy bosim kredit-modul tizimi semestr mobaynida doimiy oraliq nazoratlar, topshiriqlar, testlar va loyihalarni talab qiladi. Bu holat:

- o‘quv yukining teng taqsimlanmasligi;
- doimiy muddatlar bosimi;
- baholashda subyektivlik xavfi;
- vaqtsizlik sindromi kabi omillar orqali talabalar orasida stress, emotsional charchoq va motivatsiyaning pasayishi kabi psixologik

muammolarning ortishiga olib kelmoqda. Ayniqsa, shaxsiy rivojlanish yoki ijtimoiy hayot uchun vaqt qolmasligi talabalarning psixologik salomatligiga salbiy ta’sir qiladi.

3. Byurokratik yuk va ma’muriy to‘siqlar, kredit-modul tizimi o‘z mohiyatiga ko‘ra yuqori darajadagi tashkilotchilik, elektron nazorat tizimlari va uzviy modullararo aloqani talab qiladi. Bu esa quyidagi administrativ muammolarni yuzaga keltiradi:

- ✓ modullarni shakllantirish, qayta ko‘rib chiqish va tasdiqlashdagi ko‘p bosqichli byurokratik jarayonlar;
- ✓ kreditlar bo‘yicha hisob-kitoblar, akademik yozuvlar va elektron platformalarni yuritishdagi ma’lumotlar nomuvofiqligi;
- ✓ kadrlar salohiyatining yetarli emasligi va malakali akademik menejerlarning tanqisligi;
- ✓ natijasida KMT o‘quv jarayonini soddalashtirish o‘rniga ko‘proq hujjat aylanishi va nazorat yukini keltirib chiqaradi.

4. Universitetlar o‘rtasida kredit moslashuvining murakkabligi, kredit-modul tizimi Yevropa davlatlarida Boloniya deklaratsiyasi asosida birlashtirilgan umumiy kredit konvertatsiyasi tizimini nazarda tutadi. Ammo O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalari o‘rtasida:

- ✓ kreditlar soni, modullar mazmuni va o‘quv yuklamasi bo‘yicha standartlashtirish yetarli emas;
- ✓ turli universitetlar KMTni turlicha talqin qilmoqda va bu akademik harakatchanlikni cheklamoqda;
- ✓ o‘qishni boshqa OTMga ko‘chirish holatlarida kreditlarni tan olishdagi tafovutlar talabalarga yo‘qotishlar va qiyinchiliklar tug‘dirmoqda. Bu tizimni milliy darajada yagona kredit konvertatsiyasi modeli asosida optimallashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

5. O‘qituvchilar qarshiligi va malaka yetishmovchiligi o‘qituvchilar KMTga moslashishda quyidagi asosiy muammolarga duch kelmoqdalar:

- ✓ yangilangan baholash tizimlariga o‘z vaqtida moslasha olmaslik;
- ✓ modul asosida o‘qitishning metodik asoslarini yetarli bilmaslik;

- ✓ elektron platformalardan samarali foydalanish bo‘yicha ko‘nikmaning pastligi;
- ✓ ortiqcha baholashlar va hisobot topshirishlar sababli o‘zining ilmiy-pedagogik faoliyatiga yetarli vaqt ajrata olmaslik.

Shuningdek, tajribali o‘qituvchilar orasida an’anaviy yondashuvdan voz kechishdagi psixologik qarshilik, o‘z uslubiga bo‘lgan ishonch va innovatsion tizimlarga nisbatan ehtiyotkorlik kuzatilmoqda.

6. Yetarli moliyalashtirishning ta’minlanmaganligi kredit-modul tizimini joriy etish raqamli texnologiyalar, metodik platformalar, o‘qituvchilarning malakasini oshirish va texnik ta’minot kabi ko‘plab resurslarni talab qiladi. Biroq, ko‘plab OTMlar:

- ✓ elektron tizimlar uchun litsenziyalar, serverlar va texnik qo‘llab-quvvatlashga yetarli mablag‘ ajratolmayapti;
- ✓ o‘qituvchilarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslarini davlat xarajatlari hisobidan to‘liq qamrab olishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda;
- ✓ o‘quv resurslari (modulga mos darslik, testlar, videodarslar) yetarli emas yoki yangilanmagan.

Moliyaviy infratuzilmaning zaifligi KMTni formallikka aylantiradi va uning sifat jihatidan yuksalishiga to‘siq bo‘ladi.

Kredit-modul tizimi oliy ta’limda talaba markazida bo‘lgan, individual yondashuvga asoslangan ilg‘or mexanizm bo‘lsa-da, uning joriy etilishi institutsional, ma’naviy, iqtisodiy va psixologik jihatlardan puxta tayyorgarlikni talab qiladi. Yuqorida tahlil qilingan zaif jihatlar va tahdidlar tizimning mohiyatiga ziddir va ularni inobatga olmagan holda kredit modul tizimi samarali ta’lim vositasi emas, balki rasmiyatchilik va yuklama manbaiga aylanishi mumkin.

Kredit modul tizimining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun quyidagilar zarur:

- ➢ o‘qituvchilar uchun tizimli metodik yordam va doimiy malaka oshirish dasturlarini yo‘lga qo‘yish;
- ➢ kredit va modul tuzilmasini milliy OTMlar miqyosida standartlashtirish;

- akademik harakatchanlik uchun yagona kredit tan olish tizimini ishlab chiqish;
- elektron infratuzilmani rivojlantirish uchun byudjet mablag‘larini ko‘paytirish;
- o‘quv jarayonida stressni kamaytirishga qaratilgan psixologik va maslahat xizmatlarini kuchaytirish.

Talaba qarshiligi bunda:

1. Oliy o‘quv yuklamasi ya’ni kredit modul tizimida talabalar muntazam ravishda sinovlarni o‘tkazishi, vazifalarni bajarishi va faoliyatda ishtirok etishlari va faoliyatni kuchaytiradi va yaxshi o‘zini o‘zi tashkil etishni talab qiladi.

2. Doimiy bilimlarni boshqarish ko‘plab talabalar an'anaviy tizimga o‘rganib qoladilar, bu erda yakuniy baho asosan imtihonlarga bog‘liq. Kredit modul tizimida har bir modul muhim va oraliq bosqichlarda xatolar yakuniy natijaga ta’sir qilishi mumkin.

3. Mustaqil rejalashtirishning murakkabligi kredit modul tizimining moslashuvchanligi intizomni tanlashga imkon beradi, ammo talabalarni talabalardan vaqtni boshqarishni talab qiladi, bu har doim ham oson emas.

O‘qituvchilarning qarshiligi.

1. O‘qitish metodologiyasini o‘zgartirish zarurati o‘qituvchilar kurslarga moslashishi, yangi baholash usullarini ishlab chiqish va ko‘proq cheklovlar o‘tkazishlari kerak. Buning uchun qo‘shimcha kuch va vaqt talab etiladi.

2. Yukdan tashqari talabalarning bilimlarini doimiy ravishda kuzatib borish, o‘qituvchilar ishini murakkablashtiradigan ko‘proq tekshiruvlar, hisobot va ma’muriy vazifalarni anglatadi.

3. Tayyorlanmagan hamma o‘qituvchilar emas, balki kredit modul tizimini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan o‘qitish va raqamli vositalarga yangi yondashuvlar haqida etarli ma’lumotga ega emas. Shunday qilib, talabalar va o‘qituvchilarning qarshiligi kuchayish va qo‘shimcha yuklarga bo‘lgan ehtiyojning oshishi bilan bog‘liq. Kredit modul tizimini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun ushbu omillarni

ko‘rib chiqish va o‘quv jarayoniga qatnashchilarni qo‘llab-quvvatlash muhimdir.

Kredit-modulli tizim o‘quv jarayonlarining barqarorligiga bog‘liq, ammo global chaqiriqlar uning samaradorligi va rivojlanishiga jiddiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin:

1. Iqtisodiy inqirozlar, moliyaviy qiyinchiliklar universitet byudjetlarining qisqarishiga olib kelishi, ta’lim texnologiyalari mavjudligini pasayish va tizimni rivojlantirishga investitsiyalarning pasayishi olib borishi mumkin. Bu mashg‘ulotlarning sifatini yomonlashtiradi, o‘quv dasturini modernizatsiya qilish va o‘qituvchilarga yukni ko‘paytirishni qiyinlashtiradi.

2. Malakali kadrlarning etishmasligi, xususiy sektorda demografik o‘zgarishlar va mutaxassislarning oqishi kontekstida universitetlar kredit modul tizimi doirasida ishlashga qodir bo‘lgan o‘qituvchilarning etishmasligi bo‘lishi mumkin. Kadrlar uchun etarli darajada ta’lim olish, shuningdek, tizimning zamonaviy ta’lim talablariga moslashuvini kuchaytiradi.

3. Usullarning eskirishi, treningning jadal rivojlanishi va o‘qitish uchun yangi yondashuvlar an'anaviy modullarni eskirgan bo‘lishi mumkin. Agar kredit modul tizimi yangi muammolarga mos kelmasa, u samaradorligini yo‘qotishi va rasmiyatchilikka aylanishi mumkin.

4. Raqamli xavflar, kredit modul tizimiko‘p jihatdan raqamli platformalar va kiber hujumlari, texnik kambag‘allik yoki ma’lumotlar etishmovchiligi o‘quv jarayonini xavf ostiga qo‘yishi mumkin. Ta’lim tizimlaridan mahrum bo‘lish talabalar va o‘qituvchilar ma’lumotlarini yo‘qotishga olib keladi, bu tizimga ishonchni buzadi.

5. Ijtimoiy va siyosiy o‘zgarishlar, siyosiy beqarorlik, ta’limdagi islohotlar yoki qonunchilikdagi o‘zgarishlar kredit modul tizimini amalga oshirish va rivojlanishiga ta’sir qilishi mumkin. Ba’zi mamlakatlarda, etarlicha tayyorgarliksiz o‘tkir islohotlar tartibda tartibsizliklarga olib kelishi va ta’lim sifatining pasayishi mumkin.

Shunday qilib, kredit modul tizimining kelajagi tizimning moslashuvchanligiga, yangi voqeliklarga moslashish va kadrlar va texnologiyalarni rivojlantirishga o‘z vaqtida investitsiyalar bilan

bog‘liq. Doimiy yangilash va qo‘llab-quvvatlashisiz, tizim jiddiy muammolarga duch kelishi mumkin.

Kredit-modulli tizimning samaradorligi bo‘yicha yagona standartlarning etishmasligi ta’siri Kredit-modulli tizim moslashuvchanlikni va akademik harakatchanlikni o‘z ichiga oladi, ammo universitetlar o‘rtasidagi yagona standartlarning yo‘qligi uning samarali ishlashiga jiddiy to‘siqlarni keltirib chiqaradi.

1. O‘quv harakatchanligi bilan bog‘liq muammolar bunda turli xil universitetlar modullarni baholashning turli mezonlarini va intizom uchun kreditlar sonini baholaydilar. Bu talabalarning universitetlari o‘rtasidagi tarjimasini va ularning akademik yutuqlarini tan olishni talab qiladi. Natijada talabalar buyumlarni yo‘qotishi yoki buyumlarni qaytarib olish zarurligini yuzlaydilar.

2. Talabalarga notekis yuk, ya’ni universitetga qarab, bir xil kurs turli xil ishlarni talab qilishi mumkin, bu esa o‘quv yukida nomutanosiblikni talab qiladi. Bu o‘quv jarayonini rejalashtirishni talab qiladi va talabalar orasida norozilikni keltirib chiqarishi mumkin.

3. Ta’lim berish va baholashning turli xil yondashuvlari bir universitetda alohida e'tibor amaliyotda, ikkinchisida esa nazariy sinovlarda bo‘lishi mumkin. Bunday farqlar tizimning oldindan taxminini kamaytiradi va bitiruvchilarni tayyorlash darajasidagi nomuvofiqliklarga olib kelishi mumkin.

4. Ma’muriy qiyinchiliklar, universitetlar boshqa universitetlarning kreditlari va modullarini tan olish mexanizmlarini ishlab chiqishlari kerak, ammo standartlarning etishmasligi ushbu jarayon kompleksi va byurokratiklashtiradi. Bu ma’muriy xodimlarga yukni oshiradi va talabalarning arizasini qayta ishlashni sekinlashtiradi.

Shunday qilib, yagona standartlarning etishmasligi tizimning moslashuvchanligini pasaytiradi, akademik harakatchanlikka xalaqit beradi va o‘quv jarayonini murakkablashtiradi. Kredit modul tizimining samaradorligini oshirish uchun kreditlarni hisoblash va bilimlarni milliy va xalqaro darajadagi bilimlarni baholash bo‘yicha umumiy mezonlarni ishlab chiqish kerak.

Kredit-modulli tizim talabalarga ta’lim sifatini oshirish va o‘quv jarayonining moslashuvchanligini oshiradigan bir qator imkoniyatlar mavjud:

1. Individual ta’lim traektori bu talabalar mustaqil ravishda fanlarni tanlashlari va o‘quv rejalari va martaba maqsadlariga muvofiq o‘quv dasturini tashkil qilishlari mumkin. Bu sizga profil ob'ektlarini chuqurlik bilan o‘rganishga va keraksiz nazariy yuklardan qochish imkonini beradi.

2. Akademik harakatchanlik, kredit tizimi (Evropadagi ECTS) tufayli talabalar akademik yutuqlarni yo‘qotmasdan mamlakat ichidagi va chet el universitetlari o‘rtasida tarjima qilinishi mumkin. Bu xalqaro o‘quv dasturlari va almashinuviga kirishni ochadi.

3. Yuk ko‘tarish taqsimoti kredit modul tizimi stress an'anaviy tekshiruv sessiyalaridan stressni kamaytiradi, chunki baholash butun semestr davomida asta-sekin o‘tib ketadi. Bu talabalarni kurs oxirida favqulodda vaziyatlar uchun emas, balki doimiy tadqiqotlar uchun rag‘batlantiradi.

4. Shaffof baholash tizimi kredit-modulli tizim o‘z faoliyatini tozalaydigan mezonlarni ta’minlaydi. Hisob-kitoblar modulli vazifalar, testlar va dizayn ishlaridan iborat bo‘lib, ular talabalarga ularning yakuniy natijalariga ta’sir ko‘rsatish uchun ko‘proq imkoniyatlar beradi.

5.Mustaqil o‘quv ko‘nikmalarini ishlab chiqish bunda talabalar o‘z vaqtlarini rejalashtirishni, o‘quv yukini boshqarishni va o‘zlarining bilimlarini boshqarishlari uchun javobgar bo‘lishlarini o‘rganishadi.

